

To'rtinchi bob

I

Mana uch oyga yaqindir, Nuriniso o'zi ko'rmagan, bilmagan, hatto ismini to'y arafasida kelinoyisidan eshitgan eri bilan yashaydi. Barcha musulmon qizlari kabi, u ham tamom begona, noma'lum bir yigitga tegishdan bosh tortgan emas, hatto zimdan bo'lsin surishtirib ko'rgan emasdi. "Fotiha" o'qilganini eshitgach, u, aksincha, sevingan edi. Zotan, "fotiha" o'qilgandan so'ng, taqdirga bo'ysunishdan boshqa chora qoladimi - surishtirishning biron foydasi bo'ladimi? "Fotiha" b"b" go'yo yarim nikoh. U, ikki tomonning kelajak hayotiga taqdir muhrini bosadi. "Fotiha" dan so'ng har ikki tomon aynish, taraddud huquqidan ko'pincha mahrum bo'ladi. Qudalar o'rtasida ro'y beradigan anglashilmovchiliklar, janjallar aksar vaqt muzokara va murosa yo'li bilan hal qilinadi. Otalar-onalar bo'lajak qudalarining, kelinlarining, kuyovlarining har qanday nuqsonini op-ochiq ko'rishlariga qaramay, endi "fotiha buzilmasligi" uchun, u nuqsonlardan ko'z yumadilar!

Nuri fohihadan xabardor bo'lgach, kelajak turmushini o'z xayolida bezash bilan mashg'ul bo'lgan edi. U kelin bo'lib borgusi oilaning boyligini o'ylamagan, chunki, bu narsa u uchun ochiq-oydin edi; otasi va akalari, albatta, Toshkentning eng dongdor boylaridan biri bilan quda bo'lishlariga u chuqur ishongan. Ular kambag'allarnigina emas, o'rta boylarni ham nazar-pisand qilmas edi. Ammo, kuyov yigit to'g'risida ham Nurining ko'ngli to'q edi. Ba'zan: "Qanday ekan u? Ko'rgan-bilgan odamlarimdan qay biriga o'xshatsam bo'ladi?" degan savollar fikrini mashg'ul etarkan, u, albatta, musbat javob topar, shubhasini ishonchi yengar edi...

Nuri yangi oilada yashaydi, qarilik orqasida ko'zdan qolib, ikki-uch yildan buyon uy ichiga qamalgan qaynota - Najmiddinboyning davlati zo'r. Yangi va eski shaharda katta attorlik do'konlari bor. Cholning katta o'g'li Abdullaboy, kichik o'g'li (Nurining eri) Fazliddinboyvachchaning tashabbusi va harakati yolg'iz shu boylukni o'stirishga qaratilgan.

Ichkari-tashqari dang'illama hovli. Ichkari hovlining sahni keng. Hovlining uch tomoni bir uy-bir ayvoya qilib qatorasiga solingan yangi binolar bilan o'ralgan, bir tomoni gilozor bog'cha. Hamma uylarda gilamlar, taxmonlarni to'ldirgan ko'rpa-yostiqlar, po'lat sandiqlar, tokchalarda har nav asboblari, xitoy chinnilar qalashib yotadi.

Tabiiy, hammadan Nurining uyi hashamatli: qimmatli jihozlar bilan magazinday yasatilgan, ko'rgan odamning ko'zi qamashadi. Bu oilada yeyish-ichish belgili tartib ham rejaga tobe esa-da, har kun shirin-shirin ovqatlar tayyorlanadi. Ammo mehmon siyrak bo'ladi, mo'l-jo'l katta ziyofatlarni Nuri hali ko'rgani yo'q.

Nurining qaynanasi ikkita bo'lib, biri "o'ziniki", ikkinchisi o'gay edi. Najmiddinboyning bosh xotinidan Abdullaboy, kichik xotinidan Nurining eri Fazliddin tug'ilgan. Katta - O'gay qaynana, yoshi oltmishlarga borgan semiz, zabardast, dimog'dor kampir edi. Butun ro'zg'orga egalik qilishga, o'z amridan hech kimni chiqarmaslikka tirishar edi. Kichigi, ya'ni Nurining o'z qaynanasi qirq besh-ellik orasida, kichkina, ori-qajmon xotin bo'lib, ko'rinishida muloyim ko'rinar, oz gapirar, lekin uzib gapiruvchi, pismiq edi. Nuri bu oilaga tushgach, uch kun o'tar-o'tmas ikki qaynana-kundosh orasidagi dushmanlikni sezdi. Ertalab, odat bo'yicha, Nuri to'r ro'mol yopinib beshikdagi boladan to'keksalarga qadar hammaga salom qilar ekan, "nega senga oldin salom qiladi?" deb kundoshlari bir-biri bilan achchiqlashib qolishgandi. Ular arzir-arzimas narsa ustida minut sayin talashib-tortishar edilar. Ro'zg'orga kim biylik qiladi? b"b"Janjalga mana bu narsa ko'proq sabab bo'lar edi. So'ngra cholni parvarish qilish to'g'risida ham tez-tez urish bo'lib turar edi. Katta kundosh derdi: "Huzurini san ko'rgansan, bir kecha bo'lsin, undan ayrilmas eding, qariganda tashlaysanmi? Boq endi!" Kichigi ham sira qolishmasdi: "Cholning ko'z ochib ko'rgan xotini - sen. Sendan maslahatsiz ish qilmas edi. Bir tovoq oshni boshimga mushtlab-mushtlab berarding. Ro'zg'orni qo'lingga olib, bordonday semirib o'tirasanmi? O'zing qara; moli shirinu, o'zi harommi?!"

Nurining ovsinlari ham kundosh edi. Abdullaboy, otasi kabi, ikki xotinga ega edi. Kattasi Oysara o'ttiz besh yoshlarda, hali o'z husnini yo'qotmagan, lekin hastalardek parishonhol, ingichka, nozik xotin; jisman zaifligiga qaramay, yumushni ko'p qilar, har oqshom o'z bolalari bilan tancha atrofini to'ldirib, kitob b"b"Malikaiy Dilorom", "Bo'z yigit", "Sanobar"ni o'qir edi. Buning kundoshi Mariya ismli rus xotin bo'lib, unga Maryamxon nom qo'yishgan. Uning yoshi yigirma sakkizlarda, oq-sariq yuzli, baland bo'lyli, tiniq havo rang ko'zli to'lagina xotin edi.

Maryamxon o'n to'qqiz yoshida, bundan sakkiz-to'qqiz yil ilgari bu uyga, musulmon "ichkarisiga" qamalgan. U Moskvada kambag'al oilada tug'ilib, otasi o'lgandan keyin, onasi besh yashar Mariyani amakining oilasiga tashlab, erga chiqib ketadi. Qiz o'n olti yoshgacha bu oilada, muzika muallimi bo'lgan kambag'al amakining tarbiyasida o'sadi, ibtidoiy tahsil ko'radi, muzikadan ham bir oz ma'lumot oladi. Mariyaning baxtiga qarshi, amaki sil kasaliga uchrab, ishdan qoladi. Uning mayda-chuyda bolalar bilan to'la oilasi moddiy qiyinchiliklar ichida qiynalarkan, qiz o'z kunini o'z kuchi bilan ko'rish tilagida amakidan ketishga majbur bo'ladi. Rizqini qozonish uchun hayot girdobida ikki yil chirpinadi. Nihoyat, boy bir rus oilasiga bola boquvchi sifatida qabul qilinadi. Bu oila Toshkentga ko'chib kelgach, Abdullaboy, yaqin tanish bo'lgan bu oilaga kelib-ketib yurarkan, Mariyani ko'rib sevadi va unga uylanadi.

Abdullaboyning rus xotin olishi u vaqtlarda ko'pchilik o'rtasida, to'y, azalarda xotinlar og'zida, gap-gashtak va choyxanalarda erkaklar orasida - ancha gap-so'zga sabab bo'ldi. Lekin Abdullaboy mahalla imomi huzurida "kalimaiy shahodat"ni aytirib, nikoh o'qittirib olgan edi. Otasi Najmiddinboy ham faqat shu shart bilangina bunday favqulodda ishg'a ruxsat bergan edi.

Mariyaga darrov boshdan-oyoq musulmoncha kiyim kiydiradilar, namozni, har xil duolarni va qur'ondan bir necha surani yod o'qishga o'rgatadilar. Yolg'iz o'zini hech yerga yubormaydilar - hatto yo'lakka, ko'cha eshikka ham chiqarmaydilar. Shunday qilib, bir necha yil ichida u butunlay "musulmon" xotin bo'lib qoladi. Ko'zlari, sochlari ajratib turmasa, boshqa jihatdan uning rus ekanini payqay olmaydi kishi. Tili, talaffuzi, o'tirish-turishi, butun qiliqlari bilan atrofdagi xotinlardan, ichkarining sohibalaridan ayirib bo'lmaydi. Besh vaqt namozni kanda qilmasdan o'qiydi, ixlos bilan ro'za tutadi. Biron ish qilarkan, yo ovqat ichmoqqa boshlarkan, "bismillo"ni sira unutmaydi. Endi u duxoba paranjiga o'ralib, uzun chachvonni yuziga tutib, savat-savat kulchalar, barkashlarda oshlar, sovg'a-salom bilan, butun qoidaga muvofiq to'ylarga, azalarga, tug'ruqlarga borib keladi. Maryamxon to'rt devor orasida qamalgandan buyon bironta rus bilan bir og'iz ham gaplashgan emas. Ko'chada ketarkan, ba'zan ruslarni ko'rib, jonli rus tilini eshitib qolar edi. Bu narsa uning o'tmishini uzoq bir tush kabi xotirlatar; ular bilan o'z tilida ikki og'izgina so'zlashuvga orzu qilsa-da, atrofdagi musulmonlardan qo'rqqanidan, jur'at qila olmas edi. Chunki musulmonlar darrov o'ylagan bo'lar edilar: bu paranjili musulmon xotin nima uchun ko'chada erkak bilan, yana o'ris bilan gaplashadi? Bu dindan qaytgan xotin, islovotda yurib til o'rgangan bo'lsa kerak!..

Maryamxon yoshlikda maktabda o'qir ekan, rus yozuvchi va shoirlarining birmuncha asarlari va maktab bolalari uchun chiqarilgan har xil ta'limiy, maroqli kitoblar bilan bir qatorda, bir qancha yengil, jinoiy-mojaroviy romanlarni yashirin o'qib chiqqan edi.

Pushkin ham Lermontovning ba'zi she'rlarini hali ham yoddan bilardi. Lekin, ichkarida yasharkan biron marta kitob yuzini

1 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

ko'rmadi. Bir vaqtlar bu uyga opasi bilan mehmon bo'lib kelgan bir tatar qizi ruscha bir axloqiy romanni unutib qoldirgan; bu kitobni o'sha kechasi katta qiziqish bilan qo'lga olarkan, eri Abdullaboy kelib qolib, kitobning ruscha ekanini payqab, qo'lidan yirib oladi va g'azablanib shu ondayoq parcha-parcha qilib tashlaydi.

- Dindan qaytaradi, dinni buzadi bu kitob!- baqiradi Abdullaboy.

- Yo'q, juda qiziq, juda foydali kitob,- yolvorib tushuntirishga boshlaydi xotini.

Lekin u qancha so'zlamasin, bu kitobning dinga ziyonsiz yakanini o'jar musulmonga tushuntira olmaydi.

- Yolg'iz, yolg'iz bitta kitob bor,- do'q bilan deydi Abdullaboy,- u Olloning kitobi - Qur'on! Boshqa kitobni kitob dema! Hammasi bir tiyin. Xohlasang, Qur'on o'qishni, qiroat bilan o'qishni men o'zim o'rgataman.

Ba'zi vaqtda eski ruscha kitoblardan yasalgan paketlarda bozordan narsa o'rab keltirishadi. Maryamxon paketlarni buzib, parcha-parcha qog'ozlarni, garchi bundan to'la ma'no chiqmasa ham, o'qiy boshlaydi. Lekin keyinchalik bundan-da voz kechadi.

Maryamxon dastlab o'z kundoshi bilan chiqisha olgan emas. Hatto musulmonlarning bunday "ahmoqona zakunini" fikr-xayoliga aslo sig'dira olmagan. U ochiqcha shovqin-suron ko'tarmasdan, eriga yalingan, bu odatning yomonligini, erning ko'ngli ikkiga bo'linsa, turmush yomonlashajagini tushuntirishga tirishgan. Keyin arazlagan, yig'lagan. Ammo kundoshini qo'ydirib yuborishga muvaffaq bo'lgan emas. Bir-ikki bola tug'ib, ichkarining urf-odatiga, musulmonchilikning ruhiga chuqurroq kira boshlagach, kundoshga bo'lgan rashki ba'zan olovlanib qo'ysa-da, asta-asta taqdirga ko'nikkan. Endi kundoshi bilan uch-to'rt kun apoq-chapoq bo'lib, og'iz-burun o'pishganday bo'lar, lekin yana uch-to'rt kun, sababli-sababsiz, sira gaplashmay, teskari burilar edi. Shunday vaqtlarda Nuri:

- Oralarigizdan qora mushuk o'tdimi?- derdi kulib.

Maryamxon o'zi to'qiganmi, yo atrofdan eshitganmi, har vaqt shunday javob berar edi:

- Kundosh - boshingda tosh, ko'zingda yosh...

Ba'zi vaqt Nurining achchig'ini chiqarish uchun, jiddiy ravishda der edi:

- Shoshmang, sizga ham bir kundosh topib beramiz!

Nuri bu gapni hazil tariqida aytilganiga ishonsa-da, ba'zi vaqt yuragi cho'chib ketar edi: "Bu uyda ikki xotin olish bir rasm bo'lib qolgan ekan. Erim otasi, akasi izidan ketib, ustimga xotin olsa-ya... Sho'rim qursin, nima qilaman!"

Fazliddin, Nuri qizlik chog'ida o'z xayolida chizgan, turli kiyim va qiyofatlarda tasavvur etgan yigitlarga sira o'xshamas edi. Nikoh kuni kechasi go'shangaga kirish bilan, "tortishmachoq" hangamasidan hali o'ziga kelmagan xotinlarning qiy-chuvi davom etarkan, Nuri, yuziga tushirilgan uzun, oq ro'moli orasidan, ko'zlarini yashirincha kuyovga tikkan, bir onda chuqur o'ksinib, butun quvvati so'ngan kabi, boshidan oyog'iga qadar ohista bir titroq bilan qoplangandi. Mana shu er bilan uch oydan buyon birga yashaydi.

Erining fe'li, mijoz - tabiati kun sayin unga ravshanlashdi.

Fazliddin albatta, badbashara emas, ko'rinishda tuppa-tuzuk yigit... Lekin muddatdan ilgari tug'ilib o'sgan odamlar kabi, uning gavdasida nimadir yetishmaydi, bir mutanosibsizlik seziladi. U o'rta bo'yli, kichik gavdali, siyrak sariq mo'ylovli, tiyrak - O'tkir ko'zli yigirma uch yoshlarda, chaqqon, serharakat yigit. Ahli rastaga va yosh boyvachchalarga yarasha durustgina kiyinadi, lekin o'ziga ortiqcha zeb bermaydi. Har kun ertalab bir vaqt-da - bir minut kechikish, yo oldin ketish yo'q - nonushta qilmasdan do'konga ketadi, oqshom albatta, uyga qaytib, oila bilan ovqatlanadi, so'ngra otasini ziyorat qiladi. Xufton namozidan keyin o'z uyiga kiradi, tanchaga, Nurining qarshisiga o'tirib, chollar kabi, "yo hayotannabiy!" yoki ko'pincha, "yo sarvarkoinot!" deb, boshini egarak, jim o'tiradi. Aksar, kechalari uy eshigini berkitib, derazalarga parda tuttirib, alla-pallagacha pul sanaydi, bunday vaqtda ikki qoshi o'rtasini burushtirib, o'z-o'zicha nimalarnidir shivirlab ko'yadi. Katta ro'molga pulni tugib, yostiqlay qilib, Nuriga uzatadi:

- Sandiqqa tiq, ertaga Abdulla akam oladi.- Keyin oyog'ini cho'zib mahsini tortish uchun Nuriga ishorat qiladi.

Kechalardan birida Fazliddin boshini solib, mudrab jim o'tirar ekan, Nuri chiday olmadi, birinchi marta achchiqlanib gapirdi:

- Siz ham u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirsangiz bo'lmaydimi? Bu nima, to'rva-xaltasini yo'qotgan gadoydek, shumshayib o'tirasiz, bag'rim qon bo'lib ketdi-ku!

Fazliddin tirjayib, egri-bugri tishlarining oqini ko'rsatdi. Lekin vaziyatini buzmay, muloyim tovush bilan dedi:

- Xafa bo'ldingmi? O'rinsiz. Uylab qara, ertadan-kechgacha qancha odam bilan muomala qilaman?

- Do'koningizda pirkashiklar bormish-ku. Ular ishlasin, siz xo'jayin bo'lib o'tiring. Do'konga kechroq borib, ertaroq qayting. Sizlar ham katta boy ekansizlar, izvosh qiling, besh kunlik dunyoda davri-davron suring,- deb Nuri achchig'idan yuzini boshqa tomonga burdi.

- To'g'ri, biz katta boymiz,- qo'lga do'ppisini olib tozalab gapirdi Fazliddin,- haftamabilKj olsak ham davlatimiz ko'taradi. Lekin davlat dadamniki. Men bunga ozgina qo'shdim, dadam davlatiga yana bir-ikki hissa qo'shay, keyin birvarakay dovriq solaman. Har bir ish o'z vaqtida yarashadi. Lekin o'shanda ham do'konga erta borib, kech qaytaman. Savdogarchilikning taomili shu...

Boshqalarga ishonib bo'lmaydi. Qani, iloji bo'lsa bitta odam tutmasdan, butun ishni o'zim eplay bilsam... Iloji yo'q, hozir uchta prikashik ham shoshib qoladi.

III

- Es-hushingiz savdoda. Uyuqda ham ko'pincha mol sotib, pul sanab baqirasiz,- kinoyali kulib dedi Nuri.

- Man tinch uxlayman-ku.

- Yo'q!

- Balki to'g'ridir. Baliq suvda suzadi, suvda uxlaydi. Men ham savdoda suzib, savdoda uxlasam ajab emas. Xo'p, o'rinni sol... Yo rahmon, rahmatingni ayama!

Bunday erni Nuri hech vaqt xayolga keltirmagan edi. "Kimga tushdim? Boyvachcha yigit ham shunaqa bo'ladimi? Dadamning shuncha davlati bor ekan, erning boy bo'lishi lozimmi manga?" Ё Ё o'ylar edi u. Faqat u endigi pushaymonlari unga foyda bermasligini yaxshi bilgani taqdirga isyon qilishga ojizligini sezgani uchun, qayg'ularini yurakka ko'mar edi, bu haqda hech kimga, hatto onasiga ham bir nima demagan edi.

Nuri ko'rinishda kelinchaklikni qo'ldan bermaslikka tirishdi. Deyarli har kun boshini yuvar, pardoz qilar, har kuni yangi ko'ylak kiyardi. U bu uydagi xotinlarning hammasini yomon ko'rди. Lekin zerikkanidan, Maryamxonni o'ziga yaqinroq tutdi. Chunki Maryamxon ochiq ko'ngilli, samimiy xotin edi. Dastlab uning muomalalari Nuriga dag'alroq ko'rinsa-da, keyincha unda hech qanday adovat, g'araz yo'qligini, tabiati shunday keskinroq ekanini tushundi. Chol qaynata ham kelinlar orasida Maryamxonni ko'proq sevar edi. Ammo uning g'aribligi ham ayniqsa, "kofir qizini din islomga musharraf qildik, tongla savobi tegadi" degan

andisha bilan sevar edi u.

Kecha yoqqan qordan bu kun peshinga qadar hovlida iz qolmagan edi. Qor erib, tunuka tarnovlardan suv varillab oqa boshladi. Tarnovlar ostiga qo'yilgan tog'ora, chelaklarga suv tusharkan, har xil sho'x sadolar tarqaladi. Zangori osmon ham shunday tiniq, shunday beg'uborki, ko'zni oladi... Nuri uy derazalarini ochdi. Quyosh shu'lalari qon-qizil gilamlarda, tokchadagi chinni asboblarda, kumush idishlarda, grammofoonning tekis, yorqin karnayida o'ynaydi. Hovli xamirday balqigan, undan yengil bug' ko'tariladi.

Hovlining narigi burchida ko'ringan eski paranjili qizni ko'rgan zamon, zerikkanidan, qadrli mehmonni qarshilagan kabi, darrov o'rnidan sakrab turdi, dahlizga otildi...

- Nima balo, dov-daraksiz bo'lib ketdilar!- Gulnor bilan ko'rishdi u.

- Qish, loygarchilik, Nuri opa, sog'indingizmi?- Gulnor paranjini bir yoqqa otib, dasturxonga o'ralgan barkashni uzatdi:

- Qiy mali yupqa.

- Bu yerdagilar ham yupqani mazali pishirishar ekan. Har kelishingda bir nimani ko'tarib kelasan. Bundan keyin hech nima keltirma!

- Katta oyim, quruq borma, deb qo'linga tutqizdilar,- dedi Gulnor.

Uyga kirarkan, Nuri Gulnorning ust-boshiga razm soldi:

- Quda-andani o'ylagan oyim senga butungina mahsi ham kiygizib yubormabdi. Mahsingni qara, oyoqqa ilib bo'lmaydi.

- Hech kim ko'rmas, shu yerdan keta qolarman. Ham kambag'alning qizini kim masxara qiladi,- dedi kulib Gulnor.

- Jilla bo'lmasa yamat mahsingni!

- Dadam, Yo'lchiboy akang yamaydi, degan edi, bilmadim, qo'li bo'sh emas shekilli.

- U shahardami? Yamoqchilikni bilar ekanmi?- dedi Nuri va yuragi, nechundir, bir lahzada allanechuk urib ketdi.

- Anchadan buyon shaharda. Shokir ota degan mahsido'zning do'konxonasida o'z etigini butunlab olibdi, dadam shunaqa dedi.

Gulnor bu yerga kelsa, Nuri har gal biron og'ir yumush qildirar edi. Ammo bu safar qizga ish buyurmadi. Tanchaga o'tqazib, dasturxon yozdi, gaplashib o'tirdi. Gulnor Nurining o'z oilasidagi voqealardan, bilgan-eshitganlaridan so'zladi. Nurining onasi - Lutfiniso uni qanday sog'inganligini, bugun tush ko'rdim, Nuri keladi deb, eshikka har kun ko'z tikkanini va kelar juma Hakimboyvachchaning gap berishini, shunga Fazliddin bilan u, albatta, borishlari kerakligini, yana Lutfinisoning bir ko'p buyruqlarini topshirdi.

- Shu hafta ichi o'zim borib kelmoqchiydim. Oyimni bir oydan beri ko'rganim yo'q. Bir kecha yonida yotishni orzu qilaman,- dedi yengillanib Nuri.

- Yana bir haftadan keyin Salim akam gap berarmishlar.

- Bahona topilib boraverar ekanman. Ishqilib Abdulla pochchamning ziyofatiga to'g'ri kelmasin...

So'z aylanib yana Yo'lchiga taqaldi. Nuri bu yigit to'g'risda ko'proq narsa bilishni istash bilan baravar, bu qizning unga munosabatini ochish kabi, yashirin, bir niyat bilan gapni cho'zardi. Gulnor dastlab soddalik bilan gapiraverdi. Yo'lchining kir-chirini yuvib, chopon va ko'ylaklarini yamab berganligini va ba'zi vaqt dadasi Yormat buni va onasini uyga kirgizib, ayvonda Yo'lchi bilan uzoq hangamalashib o'tirishini so'zladi. Nuri o'z ichida xo'rsindi va:

- U yaxshi yigit-a. Sanga yoqadimi? Ё Ё” dedi, tikilib.

Gulnor qizarib ketdi, ko'zlarini qaerga yashirishii bilmay javdiradi. Nurining bu savoli va boshqa so'zlaridan shubhalandi-da, yurak sirlarini chuqur yashirishga tirishdi. Zotan, birovga ochishdan qo'rqr va uyalar edi.

Nuri Gulnorni jo'natgandan, so'ng, ancha, vaqt xayol surib qoldi. Uning yuragini qarama-qarshi hislar, kechinmalar o'radi. O'tgan yoz xotiralari yana qalbiga hokim bo'la boshladi. Uning xayollari sirli vahima va qo'rqinch bilan bog'langan yangi otashin lazzatlarga surgadi...

II

Yo'lchi uch haftadan beri shaharda. Skladdan Mirzakarimboyning do'koniga, do'kondan yana boshqa joylarga har kun aravada gazlama tashiydi. Boyning do'koni oldiga o'nlarcha, yuzlarcha toy gazlamani tushirib uni yechar, yerdan shipga qadar taxlar, yana aravani minib jo'nar edi.

Mirzakarimboyning eski shahardagi do'koni chit rastasida edi. Bu rasta - ikki tomonda, besh-oltita katta do'kon bo'lib, tor, kamgak yo'l bilan bazzozlikka, shohifurushlik rastasiga tutashar edi. Usti tim bilan qoplangan bu qorong'u rastada, odatda boshqa rastalarda bo'ladigan shovqi-suron, g'ovur-g'uvur, shoshqaloq olomon, tiqilinch yo'q. Bu yerda bozor kunlari bilan bebozor, kunlarining farqi sezilmaydi, bu yerda har vaqt jimjitlik hukm suradi. Bundagi do'konlarda jiddiy, sersoqol kekla yahudiylarni, ularning serharakat, chaqqon o'g'illarini va prilavka orqasida, naq machitda namozda qaqqaygan kabi sukut qilgan, ko'rinishda mutavoze, lekin haqiqatda o'lguday mo'ltoni, kibrli, dimog'dor, aksari xasis musulamon boylarni, ko'rish mumkin. Bu rastada ming xil kiyimli olomon yo'q, shoshilish yo'q, qo'lni siqib: "Bor baraka top!"lar ham yo'q. Faqat, har bir do'konda ko'pincha bir xil tovush: shaq-shaq, shuq-shuq cho't qoqiladi. Rastaning ichida besh-o'n kishi paydo bo'ladi, ular sun'iy tavoze bilan shovqinsiz muomalaga kirishadi. Do'kondor ularga qalin kitob shaklida bir nimani tutqizadi Ular buni varaqlab, kerakli gazlamalarning parcha-parcha nusxalarini ko'rib, tanlaydilar. Keyin gazlamalarni aravalarga tog'-tog' qalab olib ketadilar. Mol bu yerdan Toshkent atrofidagi qishloqlarga, ovullarga, Chimkent, Sayram, Avliyoota kabi shaharlarga, kentlarga jo'natiladi.

Tishdan qaraganda eski, ko'rimsiz, leki katta, sermol do'konda Mirzakarimboy bilan Salimboyvachcha turar edi. Ular xaridor bilan bitishgandan so'ng, qolgan hamma ishni shirin so'z, epchil kishi - prikashik Saidmurod bajarar edi. U bo'sh qolgan vaqtda qo'lini qovushtirib, bir chekkada jim turar, xususan, Mirzakarimboy oldida, eshonning huzuriga kirgan murid singari, halim vaziyat olar edi.

Hakimboyvachcha bir necha kishini ergashtirib, ba'zan bu yerda ko'rinish qolar, dadasi bilan shivirlashib, yana bir zumda g'oyib bo'lar edi. U har vaqt shoshar, gapirganda, yurganda, ishlaganda - bir nimaga intilish, sabrsizlik sezilar edi unda.

Mirzakarimboy aksar vaqt kursida yoki ustiga gilamcha yoyilgan prilavkaning bir chetida taxlangan gazlamaga suyanib, tasbeh donalarini barmoqlari orasidan bitta-bitta o'tkazib, chordona qurib o'tirar edi. Kir do'ppisi qoshiga qadar tushgan, doimo boshida tashigan savatning og'irligi ostida bo'yi qisqarganday, yapasqi novvoy har kun peshin vaqtida ikkita shirmoy nonni boyga tashlab ketar edi. "G'archcha moy!" Ё Ё”uning jarangli ovozi rastaning timini teshgunday yangrardi. Yoshligiga qaramay, chapanicha yurishga taqlid etgan bir bola - choyxonachining shogirdi - naq mo'ljalli vaqtda Mirzakarimboyga choy keltirar, qulog'iga qistirilgan qalam bilan do'konning ustuniga bir "alif" chizib ketar edi.

Yo'lchi bozor aylanib, gazlama tashib, tog'asining do'koni oldida ba'zan soatlarcha o'tirib, bozorning, savdoning, savdogarlarning ko'p sirlariga oshna bo'la boshladi. Turli rastalarda olomonning shovqini, oltin-kumushning jarangi, qog'oz aqchalarning shildirashi, savdo daryosining to'liqini, bo'roni qo'ynida odamlarning turmushi, ruhi, yuragi, baxt va falokati uning ko'ziga yalang'ochlandi. Kosiblar, dehqonlar, har nav kambag'al-qashshoqlarning olov ko'ylak kiygan kabi, bozor jahannamida kuyib-o'tanayotganlarini payqadi. Lekin hali u ko'p sirlarga tushunmas edi. Bozorda "ahli rasta" ishlatadigan ko'p so'zlar, ko'p muomalalar unga yo ma'nosiz, yo sirli tuyular edi. Ammo hayot har kun, har soat unga yangi mevalarini oshkora qilar, sirlar yalang'ochlanar edi: Mirzakarimboy o'z oldiga qo'l qovushtirib kelgan, durust kiyingan ba'zi bir odamlarga qo'pol muomala qilar, ularni koyir, ba'zan ranglarini bo'z qilib qo'yar edi. Mol olish uchun kelgan bir yigitga u bir kun shunday dedi: "Xo'sh, mulla, nega va'dani buzasiz? Juhudda bor bigiz bizda yo'qmi? Bizda o'tkirrog'i bor! Bilib qo'ying, ko'zingizni ochib qo'yaman!"

Yo'lchi buning ma'nosini bir qancha kundan so'ng tushundi: bir ko'p xaridorlar aravalarga, tualarga mol ortib, yonlaridan, qo'ltiqlaridan, g'ishtday, guvaladay taxlam qog'oz aqchani Salimboyvachcha oldiga to'kib sanaydi. Ammo aksar odamlarning pul bergan-bermaganini Yo'lchi payqay olmas edi. Bir savdogar o'n toy molni olib bir zumda qorasini o'chirdi. Yo'lchi taajjublanib, Salimboyvachchadan so'radi:

- Hov, urra qochdi-ku, aqchasi qani! Salimboyvachcha boshini chayqab kuldi va yangi, shildirama oq qog'ozni ko'rsatdi-da, qutiga tashladi.

- Shu bas,- dedi boyvachcha,- buni vekselKj deydi. Muddatida to'laydi.

- Ha, tixirlik qilsa-chi?- Yo'lchi ko'zini katta ochib so'radi.

- Ko'zini moshdek ochib qo'yamiz... Uyi kuyadi, xonavayron bo'ladi!- salmoqlanib, lekin qat'iy qilib gapirdi Salimboyvachcha. ЁЎ"l Tushundim, tushundim,- dedi Yo'lchi,- u bigiz, tunov kun tog'am bittasiga, bigiz tiqaman, degan edilar, bigiz...

Salimboyvachcha labini qiyshaytirib dedi:

- Be!.. Bigiz nima? Bu zaharli nayzaday, balki undan ham o'tkir narsa... Bu olov, yondiradi, kuydiradi.

Yo'lchi indamadi. Otga minib, aravani gumburlatib jo'nadi. Usha kuni sovuq qattiq edi. Ba'zi yillari Toshkentda bir necha kun bo'ladigan o'tkir quruq sovuq!.. Soqollarda, mo'ylovlarda, kipriklarda qirov... Sovuqqa chidamli Yo'lchi ham, egni yupun bo'lganidan, oyoqlarining jonsizlanganini, gavdasining bujmayganini sezdi. U, go'yo qish kuni muzni yorib yalang'och holda suvga tushgan kabi... Ishdan, sovuqdan yorilgan qo'llari qamchini bazo'r tutar edi. Lekin, Yo'lchi bu jihatdan yolg'iz emas, bozor kuni bo'lganidan rastalarda odam qalin, aksar odamlarning egnida "nomi kiyim": telpak o'rniga churuk sallani quloq aralash o'ragan, do'ppi ustidan xotinlar kabi ro'mol o'ragan, mahsi-kalish o'rniga oyoqlariga eski latta bog'lab yurgan odamlar bilan ko'chalar, yo'llar to'la edi. Yo'lchi "do'ppi bozor" dan aravani arang olib o'tdi: bu yerda zo'r tiqilinch, ko'pchiligi xotinlar. Bularning "qishki kiyimini" paranji ham yashira olmas, yuzlaridagi qayg'u iztirobini, mashaqqatini qalin chachvon ham yashira olmas edi. Do'ppi tutgan qo'llarning titrashi, ovozlarning hazinligi, paranjidagi gavdalarning vaziyati igna bilan tirikchilik qiluvchi ayollarning falokatli ahvollarini yorqin tasvirlar edi.

Yo'lchi "Poyakilik" orqali un bozoriga, "Machit-jome" tomoniga chiqdi. Bu yerda xalta-xulta ko'targan kosiblar, erkak-urg'ochi har xil uvada qashshoq liq-liq.. Quv, epchil, dag'dag'ali alloplar qo'llari, og'izlari, ko'zlari bilan ishlab, "tosh-tarozudan" urib, beva-bechorani ovlaydilar.

"Machit-jome" bo'ylab har qadamda gadoy: qalandarlar, tilanchi bolalar, kampirlar...

Yo'lchi "po'sht-po'sht"ni ming marta takrorlab, bozordan chiqdi. Uning muzlagan boshida bir fikr urinadi: "Kim puldor, kim mulkdor, kim savdogar - hammasining bigizi, nayzasi bor. Ular bir-birlariga tiqsalar mayli edi-ya; ammo o'ylab qarasang, ularning hammasi nayzani, bigizni xalqqa tiqadi. Hammaning nayzasi borib-borib xalqqa, kosibga, dehqonga, mardikorga, xizmatkorga, beva-bechoralarga qadaladi... Ular do'konlarda po'stinlarga, movut chakmonlarga o'ralib o'tiradilar. Qorinlari to'q. Bola-chaqalari rohatda, uylarida qazi-qarta qaynaydi. Ko'zlari ham, yuzlari ham kuladi. Kambag'al xalq o'lib-tirilib mehnat qiladi-ku, qorni to'ymaydi, egni butun bo'lmaydi. To'qlar kuladi, ochlar yig'laydi. Mana har kun yuzlarcha toy gazlama tashiyman. Bitta chopon tiktirishga qudratim yetmaydi, badanim muz - kesiladi!" U o'ylay-o'ylay skladga yetganini sezmay qoldi.

Yuk ortib, otni qamchilab, zidlab qaytarkan, Xadraga kelganda u birdan otni to'xtatdi: apteka devariga qisilgan Shoqosim past, ayanchli ovoz bilan bir nimalar so'zlab, o'tkinchilardan sadaqa so'raydi! Uning devorga yopishib turishi, ko'zlarini yerdan uzmasligi, qo'lini cho'zmasdan, tavoze bilan ko'ksiga olib turishi - uning bu vaziyatdan qanday azob sezganini, odamgarchiligining yemirilganidan, uyatdan, nomusdan o'limga rozi ekanini ko'rsatar edi. U ko'zini yerga tikkani uchun Yo'lchini ko'rmadi. Yo'lchi esi og'gan odamday, bir nafas baqrayib qoldi, so'ng boshida shu fikr uchqunlandi: "Men chaqirsam, battar uyaladi, yerga kiradi, ham uning ko'ziga qanday qarayman! Yonimda pulim bo'lsaydi, yordamlashardim. Hech nimam yo'q! Uh!.." Otni haydadi. Faqat ozgina yurib, yana to'xtatishga majbur bo'ldi: "Har nima bo'lmasin, unga suyanchiq kerak". Otdan tushib bir necha qadam orqaga yurdi va chaqirdi: "Shoqosim aka!" Shoqosim boshini ko'tarib, atrofga alangladi. Ikkinchi chaqirishda Yo'lchini ko'rib, egilgan holda, chorig'ini sudrab keldi.

- Ahvol qalay?ЁЎ"ning tilanganini sezmagani bo'lib so'radi Yo'lchi.

- Yashirmayman, ukam. Sen ham bilmaslikka solma. Ahvol mana shuЁЎ" Shoqosim qo'lida qisgani bir necha qora chaqani ko'rsatdi. Ko'zlariga jiq-jiq yosh to'ldi, nafasini tuta olmay, entikib yana davom etdi:- Nima qilay? Qish, sovuq... Ammo ikki kundan beri... yolg'iz ikki kun. Osmon uzoq, yer qattiq...

- O'roz sizni bir qo'ychi boyga yollatgandi-ku.- Sobiq hamqurning foje ahvoliga boqishga botina olmay, boshqa tomonga qarab dedi Yo'lchi.

- Uning kuygurda ikki oy qadar ishladim. Keyin haydadi. Boshimga qancha tuhmatlar ortdi yana. Bunday odamlarni yer yutmaganiga hayronman...

- Undaylarni yutishdan yer hazar qiladi shekilli, xafa bo'lmang, lekin tilanchilik, to'g'risini aytsam, yomon narsa, ishlang. Qanday bo'lmasin, mayli... ha, o'g'il qaerda?

- Bir befarzandga bolalikka berdim. Qaerda bo'lsa eson bo'lsin.

- Ishlang.

- Ish qani? Kun yilt etsa mardikarlikka tushaman. Gadoylikdan o'lim yaxshi, ming marta yaxshi,- yig'lab dedi Shoqosim.

- Bahorni kutmang. Qor kurang, samovarchilarga suv tashiig. Erta-indin o'zim kelaman, qaerda bo'lasiz?

- Anov choyxonadan topasan. Ket endi, yumushingdan qolma, sen ham birovga qaram odamsan.- Yo'lchiga minnatdorlik bilan termilib, orqaga qayrildi Shoqosim.

Yo'lchining ko'z oldi qoraydi, ruhan chuqur ezildi, g'ayri shuuriy ravishda otni haydab ketarkan, bir nima "qars" etib, ot bir

tomonga keskin burilib to'xtadi. Birov baqirdi: "Ko'zing bormi, qanday aravakashsan!.." Yo'lchi birdan seskandi, aravaning gupchagini boshqa arava gupchagiga qattiq urib olganini payqadi.

Uch kundan so'ng Shoqosim tilanchilikdan qutildi. Yo'lchi uni bir juvozkash mayda boyga xizmatkorlikka - uning juvozini haydovchi sifatida o'rnatirdi. Bu juvozkashdan Yo'lchi o'z xo'jayinining sigir-buzoqlari uchun ba'zi vaqt kunjara olib, u bilan tanish bo'lgan edi. U sodda, kamtarin odam ko'rinar edi. U tekin xizmatkor qidirar edi. Shuning uchun Yo'lchining iltimosiga darrov ko'nib, shart bo'yicha, Shoqosimga ovqat, yotish uchun juvozxona oldidan bir hujra berdi. Agar Shoqosim ish bilan o'zini yoqtirsa xo'jayin o'z bilgicha "choy chaqa" ham berib turadi. Shoqosim bu narsani bir muruvvat kabi, sevina-sevina qabul qildi.

III

Oqshom edi. Yo'lchi Mirzakarimboyning darvozasi oldida tanho o'tirar edi. Tor ko'chada hech kim yo'q. Ko'cha tutash balchiq bo'lganidan bolalarning o'yini tugul, yurishga ham imkon yo'q edi. O'tkinchilar devorga yopishib, ehtiyot bilan qadam tashlab yurishadi. Ko'chaning ikki tomonida bo'g'ot tomli, qing'ir-qiyshiq xarob uylar, yarmi qulagan devorlar oqshom qorong'isida dardli manzara yasaydi, safolatdan, yo'qchilikdan qo'rqinch sukutga cho'kadi, qorong'ida asta-asta erib yo'qoladi. Qaydadir, bo'g'otdan suv tomchilaydi: tik-tik.

Boyning darvozasidan yigirma odim naridagi eski, kichkina eshik kishining g'ashini keltiruvchi tovush chiqarib ochildi. Sigirni yetaklagan qiz, Yo'lchining yonidan o'tib, boyning darvozasiga kirarkan, paranjisi uning tizzasiga tegib ketdi. Bu qiz - Gulnor edi. Sigirni u va onasi boqadi. Lekin boyning xotini Lutfinisoning nazorati ostida sog'iladi.

Qizning paranjisini ko'rish bilanoq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi. Yerga mahkam tiralgan, qo'pol etikli og'ir oyoqlari bir zumda zir titrab ketdi. Qachon uning paranjisini qo'rsa, qachon ovozi to'satdan eshitsa, yigit qaltiraydi, rangi oqaradi. Chunki Yo'lchi uni chuqur sevadi, jondan, butun mavjudiyotdan sevadi!

Bundan uch oy ilgari Nurini "o'tkir nafasli" domlaga olib borgan kun, tashqari hovlida qorda cho'qqayib idish yuvgan bu qizga uning ko'zi tasodifan tushgan edi. Ammo qiz yalt etib so'ngan yulduz kabi, bir onda ko'zdan g'oyib bo'lgan edi. Faqat uni ko'rish bilan Yo'lchining o'z xayolida so'roqladigi u "begona qiz" jonlangan edi. Ammo bu voqeadan bir kun keyin, ya'ni Nurining nikoh kuni, u "begona qiz"БҒ" uzoq qiz, butunlay tanish va yaqin bo'lib qoldi. Bu shunday bo'ldi: Nurining nikoh to'yi qiyom chog'ida, ichkaridagi xotinlar uchun samovar qaynatish ishiga boyning xotini Yo'lchini chaqirdi. Chunki ikki katta samovarni uzluksiz qaynatish, unga suv tashish, o'tin yorish va hokazoni xotinlar eplay olmas edilar. So'ngra to'y kunlari ichkarida samovarni ko'pincha erkak kishi kaynatishi eskidan bir taomil bo'lib qolgan. Eng mutaassib, eng rashkli erkaklar ham buni din va diyonatga zararli deb qaramaydilar. Xususan, bunday yumushlar xizmatkorlarga buyurilsa, bu hech qanday taajjublanarli hol hisoblanmaydi. Chunki xo'jayinlar nazarida xizmatkor - yarim odam...

Yo'lchi u kun ichkari kirdi. Katta hovliga ters bo'lgan kamgak - panaroq joyda samovar qo'yish, o'tin yorish bilan mashg'ul bo'ldi. Uylarda, ayvonlarda xotinlar ko'p edi. Ayvonlarda oyoq uchlarini tanchaga zo'r-bazo'r tiqib, jimjit o'tirgan xotinlar, albatta atrofdan yig'ilgan kambag'al-chambag'al xotinlar edi. Yo'lchi ichkari to'yning sirlarini ham tezda o'qib oldi. To'y bekasi, Mirzakarimboyning xotini ayollarni uch guruhga ayirgan edi. Birinchi guruhga dongdor boyvuchcha xotinlar, eshon oyimlar; ikkinchi guruhga obro'liroq oilalarning ayollari va mehmondo'z, bilimdon xotinlar; uchinchi "churuk paranjilar", to'yga noilojlikdan taklif etilgan har xil uzoq-yaqin kambag'al qarindosh-urug'lar kiradi. Birinchi va ikkinchi guruhlar yasog'lik uylarda o'tirishadi. Ovqatlarning sarasi ularga tortiladi. Qandolatfurushlarning do'konidagi kabi, xilma-xil, rang-barang, qimmatbaho meva-chevalar bilan lim to'lgan katta patnislar ketma-ket yetkazilib turiladi. Boshqa ayollar ayvonlarga o'tqazilib, kichkina iflos patnislarda, "puf desa Buxoroga uchadigan" taxir chap-chap non, qurtloqi turshak, jiyda va tishga yopishsa ombur bilan ham sug'urib olish qiyin bo'lgan yopishqoq popuk tortiladi.

Hovlida tinmay-qo'nmay xizmat qilib yurgan paxmoq sochli, isqirt kiyimli yosh-qari xotinlar ham anchagina. Bularning orasida Yo'lchi kecha tashqarida bir zum ko'rdigi qizni tanidi. Lekin u endi bir oz durust kiyingan. Boshida yangi ro'mol, egnida eski bo'lsa ham beqasamdan paxtalik kamzul, oyoqlarida yangiroq mahsi, eskiroq kalish... U yugurib-elib xizmat qiladi. Dasturxonchi va boshqa qari-qartang xotinlar Yo'lchining yoniga bemalol kelib ketsalar-da, u qiz yaqin kelmas edi. Choyni yigitdan emas, ancha uzoqda to'xtab, boshqa qo'llardan olib ketar edi. Uni uyaltirmaslik uchun, Yo'lchi tikilib qaramadi... Dasturxonchi xotin uni qarg'aydi:

- Gulnor o'lgur, seni birov pishirib yeydimi? Kelaver, naq qarchig'ayday yigit ekan... To'yda aralashib-quralashib yuraveradi kishi. To'yning qiy-chuvi, mehmonlarni choy bilan qoniqtirish uchun shoshilish, otin buvilarga, eshon oyimlarga tahorat suvi tayyorlash kabi yumushlar Gulnorni Yo'lchi oldiga asta-asta yaqinlashuvga majbur qildi. U endi, avvalgiday ro'molcha uchi bilan yuzini pana qilib, boshini bir tomonga burmaydi. Uzoqdan bo'lsa-da Yo'lchiga dadil qaraydi, ba'zan yashirin iljayadi.

Mirzakarimboyning xotini bir katta bo'lak choyni Yo'lchiga berib, Gulnorni imladi. Gulnor kelgach, u Yo'lchi bilan qizga shivirladi:

- Mana bu juda toza choy. Katta uyda eshon oyimlar ham To'raxo'jaboyning xotini, kelinlari, Mahammad Sharif qozining qizlari o'tirishibdi. Ularga choyni achchiq-achchiq damlanglar, tuzukmi? U uyga choy so'rashsa, Yo'lchi akangga kelib shipshit, Gulnor qizim!БҒ"deb to'y bekasi Lutfiniso ketdi. Uning orqasidan qiz va Yo'lchi kinoya bilan birdan qattiq kulishdi. Bu kulgi ularning ruhlarini qandaydir ulaganday bo'ldi. Bundan so'ng Gulnor ham minut sayin kelaverdi. Yo'lchi har gal kulib so'raydi: "Eshon oyimmi? Sharif qozimi? Yo Xalcha buvimi? ayting!"

Gulnor "quyuq", "nimtati" deb javob beradi. U chiroyli mayin tovush bilan so'zlarkan, yigitning qo'lidan choynak-piyola olarkan, sho'x, xumor ko'zlari bilan yigitga qaraydi, uning yuzlarida, dudoqlarida yigitning yuragini erituvchi bir tabassum yonadi.

Mana shu kundan boshlab, Yo'lchi shu qizning asiri, maftuni bo'ldi. Yigit qalbiga chuqur o'rnatilgan muxabbat urug'i umidlar, orzular, toza ehtiroslar alangasi bilan tanho kechalarning shirin ro'yolarida o'sdi, g'unchaladi, gulladi. Yo'lchi uchun bu qiz endi begona emas. U Yormatnang qizi, u yaqin. Deyarli har qun Yo'lchi oldidan paranjiga o'ralib o'tadi, ba'zan uning ovozigan eshitib qoladi. Lekin ayni zamonda u juda uzoq. Chunki, Gulnorning ko'zlari, yuzi yolg'iz Yo'lchining xayollaridagina kuladi, jilvalanadi. Qiz nima o'ylaydi, uning qalbi ham ishq alangasida yonadimi, yo'qmi? Mana uch oy o'tdi, buni bilmas adi Yo'lchi.

Atrofda qorong'ilik quyuqlashdi. Namozshomdan qaytganlarni qorong'i eshiklar "tarch", "tit" bilan yutdi. Osmon bulut. Bironta yulduz ko'rinmaydi. Hamma narsa - uylar, devorlar, daraxtlar - qorong'ilikka jimgina cho'kdi.

Kishi hayot yo'lida boshdan kechirgan voqealar orasida baxtli deb o'ylagan zamonlarini yodlashdan har chog' zavqlanadi. Baxtli onlar umr tunida, yulduzlar kabi chaqnaydi, ular yurakka totli hasrat va yupanish bag'ishlab imlaydi.

Yo'lchi hozir qorong'ida tanho o'tirib, Gulnorni, yaqinda ko'rgan qizning ko'zlarida yongan tabassum bilan o'z yuragini mast yetgan

bir kunni yodlar edi. U qorli, sovuq kun Yo'lchi uchun umrning eng mazmunli, eng rangli, eng go'zal kuni edi...

Qorong'ilik ichidan chiqqan ko'lankaning tovushi Yo'lchini shirin xayoldan ayirdi:

- Mirzakarimboy deganning uyi qaysi?

- Kim? Eshvoy akami? Ё Ё ”tanish tovushni eshitish bilan Yo'lchi o'rnidan sapchib turdi.

- Yo'lchimisan? Seni ko'radigan zamon bor ekan-ku. Ikkisi qadrdonlarcha ko'rishdi. Bu kishi qishloqda Yo'lchining yon qo'shnisi bo'lib, Sarimsoqboyning yerida chorakorlik qilar edi. Kambag'al bo'lishiga qaramay, Yo'lchining oilasiga ko'ldan kelgancha yordam ko'rsatar edi. Yo'lchi Eshvoy akani xizmatkorxonaga taklif qildi. Lekin u ko'nmadi.

- Boy shaharga bir oz yuk tushirgan edi. Hozir karvon saroyga tashlab bu yoqqa yugurdim. So'ray-so'ray arang topdim, tezroq qaytay, uka.

- Ikki og'iz gaplashaylik, biznikilarning ahzoli qalay? Yuring,- sudradi Yo'lchi.

- Yo'q dedim, yo'q. Hammalari sihat. Enang ko'pdang ko'p salom dedi. Ukang Qurbon oqsoqol tegirmonida ishlab turadi.

Ro'zg'ordan bir qadar siqilshgan. U yog'ini surishtirsang, qishloqda hammaning ro'zg'ori tang. Enang besh-o'n tanga pul so'rab yubordi. Bo'lsa, chiqarib ber, bayoqishlar chaynab tursin.

Yo'lchi yerga qarab bir minut sukut qildi, keyin do'ppisini olib, boshini kambag'alchasiga qashib gapirdi:

- Onam, ukalarim uchun bu yerlarda, yuribman" Eshvoy aka, buni yaxshi bilasiz. Ammo, hozir, yonimda sariq chaqam yo'q.

Boydan so'rab olib, albatta yuboraman.

- So'raganning aybi yo'q,- dedi Eshvoy,- bola yig'lamasa ona sut bermaydi. Boy o'z urug'ing ekan, yaxshi muruvvat qilar. Ha, hammasini birdan olma,- sekin gapirdi Eshvoy,- bir bo'lagini ol. Qolgani boyda turgani ma'qul. Och uyda qatiq uvimas, degan maqol bor, yeb qo'lasanlar!

Yo'lchi kuldi, Eshvoyning yelkasini qoqdi.

- Xo'p, iloji bo'lsa, ertatayoq sizga yetkizaman. Kappon bozordan topamanmi?.. Bordi-yu, xech nima chiqmadi, unda keyinroq ishonchli odamdan yuboraman.

- Shunday qil, jon uka. Ishonchli odamdan yubor. Hamqishloq deb har kimga ishonib bo'lmaydi. Bu zamonda o'ng ko'zing so'l ko'zingga yov...

Oyoqda turgan holda yana bir oz gashlashib so'ng Eshvoy jo'nab ketdi. Yo'lchi yolg'iz qolarkan o'zi uchun mushkul masalani, ya'ni xo'jayin oldiga kirib, undan pul talab, qilishni o'yladi: "Nega bular o'z bilgilaricha bermaydilar? Qorni ochdan qorni to'qning nima parvoyi bor, degan gap - haq ekanda. Qishloqda o'z jiyanlarining och, yalang'ochligini bilsalar kerak edi. U dam o'ylab xafa bo'ladi, dam ancha pul yuborib, onasini sevintirishini xayol qiladi; pulni qo'lda o'ynab, o'g'liga yig'i aralash duo qilgan onani, quvongan ukalarini ko'radi o'zi ham sevinadi. Faqat boydan pul so'rashga botinmaydi.

Xuftondan so'ng, boyning huzuriga kirishga jazm qildi. Mehmoxona eshigiga kelib, taraddudda qoldi: kambag'al uchun o'z haqini talab qilish ham qiyin. Chunki xo'jayinning xursand, xafa chog'lari bo'ladi. Oldin uning kayfini bilish qerak. Ichki bir jasorat bilash eshikni itarib, uy ichiga kirganini sezmay qoldi. Mirzakarimboy naqshkor mehmoxonada, atlas ko'rpalar to'shalgan tanchada, oldi-orqasi to'la yostiq, o'tirar edi. Yo'lchi kirishi bilan vaziyatni buzmasdan salmoqlanib dedi:

- Kel, qo'zim, nima ishing bor?

Yo'lchi loy etigi bilan gilamga oyoq bosishdan tortinib, gilamni qayirib, eshik oldida tiz cho'kdi va maqsadini tushuntirdi.

Mirzakarimboy ko'zini yumib tinglaganidan so'ng, ancha vaqt jim qoldi. Nihoyat, orqasini yostiqtan uzib, muhim savdo ishi bilan shug'ullangan kabi, jiddiy ravishda gapirib ketdi.

- Xotin toifasining aqli qisqaligi hammaga ma'lum narsa. Onang Xushro'ybibining ham aqli komil deb bo'lmaydi, jiyan. San yuborgan pulning mazasiga tushundimi - bo'ldi, haftada, oyda pul so'rayveradi. Yaxshi yegusi, yaxshi ichgusi keladi, keyin qo'sha-qo'sha kiyim qilish orzusiga tushadi. Xullas kalom, sabrni, qanoatni unutadi. Gapimga kirsang, odam bo'lmoqchi esang, onang zoriga quloq solma!

- Ayam mehnatkash, jafokash xotin,- e'tiroz tariqida gapirdi Yo'lchi,- unday yengil, guvillagan ayol emas. Mana sakkiz oydan buyon bir qora chaqa so'ratgani yo'q. Tilagim shuki, tog'a, ayam bilan ukalarim kishilarga muhtoj bo'lmasin...

- Pul topish qiyin,- soqolini tarab dedi boy,- ammo pul xarajat qilishni bilish undan ham qiyin. San pul topishdan avval, pul sarf qilish yo'lini o'rgan. Hamma gap shunda. Bu narsa sabri qanoat bilan bo'ladi. Kambag'alni sabri qanoat asraydi. Qanoat qilmasa, sharmandaligi ortadi. Eshigimda juda ko'p odamlar ishlagan. Har xil toifadan, ko'plari qarzg'a botdi. Bir xizmatchim to'qqiz yilgacha qarzdan qutulmadi. Axiri churuk chorig'ini tashlab qochib ketdi. Ammo mandan hali qutulgani yo'q u. Yigirma so'm qarz edi. Oxiratda hali javobini beradi. San o'zimmikisan. Bo'yningni qarzg'a kirgizma deymen. Tushundingmi?

Tog'asining so'zini diqqat bilan tinglagan Yo'lchi, so'z tamom bo'lgach, xohlamasa ham, ma'qul deganday boshini qimirlatdi-da, jim o'tiraverdi. Boy nimanidir o'ylab, uzoq vaqt sukut qildi. Keyin yonini kavlati. Karmonidan besh so'mlik qog'oz olib, sandalga qo'ydi. Bir nafas o'ylab, yana uch so'mlik qog'oz va bir so'lkavoy qo'shib Yo'lchiga tashladi:

- Olti so'mini yubor. Uchi yoningda qolsin. Ha, uqtirib yuborki, bu pulga bug'doy olsin. Odamotodan buyon tirikchilik bug'doy, un bilan o'tadi. Odamotoning o'zlari birinchi marta yer haydab, bug'doy sochganlar. Tabarruk narsa. Bug'doydan go'ja osh qaynatsa bo'ladi. Un qilib, atala-umoch, uvra osh, xullas, o'ttiz ikki xil ovqat pishirilsa bo'ladi. Bug'doy shunday aziz ovqat. Ha, onang ko'rpasiga qarab oyoq uzatsin, uqtimgi?

Yo'lchi pulni olib indamasdan chiqib ketdi.

Mirzakarimboy yostiqqa yonboshlab o'ylab qoldi: "Odam ishlatish xo'p yaxshi narsa-da. Xizmatkorlar har kun davlatimga davlat qo'shadi. Bundan tashqari, oxiratda savob bo'lishini ulamolarimiz bir og'izdan gapiradilar. Savobligi aqlga ham to'g'ri keladi.

Chunki xizmatkor ahli qo'limdan non yeydi. Men non bermasam, ular nima qilar edi? O'z urug'ingdan ishlatish hammadan rohat.

Aldaysan, yaxshi gapirasam. Yuraveradi. Ovqatdan, kiyimdan har kimga shikoyat qilmaydi. Begona qursin, so'zga quloq osmaydi, uncha ber, muncha ber deb janjallashadi. Keyin, qozoq, qirg'izdan kishi bahra topadi. Yilbay qilib sahrodan keltirasam. Kuchi - suv tekin, ishlayveradi. Sodda xalq. Aldasang bas. Eti seniki, suyagi o'ziniki..."

Mirzakarimboyning nasihati Yo'lchiga sira ma'qul tushmadi: "To'qqiz so'm olaman deb to'qson gap eshitdim: bo'shanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq",- O'yladi u. Yuragi dilgir bo'ldi. Uxlashni istamagani uchun ko'chaga chiqdi.

Bu mahallada unga ma'qul bo'lgan ikki kishi bor edi. Biri guzarda taqachilik-temirchilik qiladigan Qoratoy, ikkinchisi Shokir ota nomli mahsido'z chol. Otga taqa, aravaga temir qoqtirib, Qoratoy bilan do'st tutingan, kechalari zerikkan chog'larda Shokir ota do'konxonasiga kirib yurib u bilan ota-bola bo'lib qolgan edi. U hozir Shokir ota tomon yurdi. Do'konxonaning ko'chaga qaragan, oyna o'rniga shaldiroq qog'oz yopishtirilgan kichkina derazasi uzoqdan xira yaltirab ko'rindi.

Yo'lchi yengil eshikchani ochib kirdi:

- Assalom. Hormang, ota!

- Kel, bolam, kamnamosan.- Do'konxona burchagida usti yeyilgan, tekis katta kosib to'nkasi orqasida ishlayotgan Shokir ota, odatdagicha ko'zoynagini oz-moz ko'tarib dedi. U oltmish besh yoshlarda, eti suyakka yopishgan, chuvak yuzi va peshanasi chuqur chiziqlar - burushiqlar bilan quyuq qoplangan kam soqol kekse edi. Unga, o'n besh yoshidan boshlab, avval shogird, keyin xalfa, so'ng mustaqil usta sifatida to shu damgacha erta-kech bukchayib ishlashga to'g'ri kelgani uchun uning yelkasi bukri kabi ortiqcha turtib chiqqan edi. Uning butun gavdasida og'ir mashaqqat, iztirob, yo'qchilik va boshqa kulfatlar bilan to'la bir umrning izlarini juda yaqqol ko'rish mumkin edi.

Shipi past, devorlari yupqa, torgina do'konxona, har vaqtdagiday ivirsiq. Shonalar, har xil siniq-mertik qoliplar, charm rezgisi, shirach kosa, mahsi ichiga yopishtiradigan eski lattalar va hokazo do'konxona yuzini tutgan. Katta osma lampa tutabroq yongandan, do'konxonada is va qurum hidi bilan to'lgan havo darrov dimoqqa urar edi.

Ustaning shogirdi - O'n to'rt yashar Yo'ldosh, deraza oldida o'tirardi: shon qoqilgan, bo'yi bir qarich kelar-kelmas tayyor bachkana mahsilarni (Shokir ota bachkanado'z edi) silliq yog'och bilan kuchi boricha ishqalab, so'ng qoragul surkab, ularga pardo beradi. Xira saxtiyon mahsilar pardozdan so'ng yiltiraydi, "ochiladi". Do'konxonaning to'rida Shokir otaning o'g'li Tohirjon o'tiradi. U, Yo'lchining eshitishiga qaraganda, ko'pdan buyon sil kasaliga duchsr. Bir vaqtlar gavdali va chiroyli bo'lgan o'ttiz yashar yigit hozir cho'pday ozib ketgan. Yuzida qon asari yo'q. Uning kattalashgan qora ko'zlari chiroqda allaqanday umidsiz, lekin ma'nodor yonadi. U dam sari yo'taladi. Qisqa yo'tal. Yo'taldan so'ng nafas olishi og'irlashib, suyakdan iborat yelkalar kuchli ravishda chiqib tushadi. Odamshavanda, gap-so'zi ma'noli bu kambag'al xasta yigitni Yo'lchi yaxshi ko'rar, ahvoliga ko'ngildan qayg'urar edi. Yo'lchi bu gal ham kasalning ko'nglini ko'tarish uchun, unga taskin beruvchi umidbaxsh so'zlar aytdi. Shunday yupantiruvchi so'zlarni har kimdan eshita-eshita ularga e'timodi qolmagan va badani kundan-kun ko'proq erigan sari umidbaxsh so'zlarning shunchalik mo'iroq yog'ilgani uchun, bu so'zlarning ma'nosizligini anglagan Tohirjon kinoya bilan jilmaydi:

- Meniki bedavo dard, ukam. Biron kun yengillanish yo'q. Kasal tobora orqaga surib turipti... Shifosiz kasalga har bir doru darmon zahardek amal qilar ekan,- u yo'talib ko'zlarini bir oz yumib harsillagandan so'ng, yana so'zlay boshladi,- shifoli kasal bo'lsa-chi, suv ham doridek yaxshi amal qilib, bemor tuzalaverar ekan. Barcha dorini sinadim. Meniki bedavo dard. Har bir dori kuch-quvvatimim siqib-ezib, o'zimni lattaday majmag'il qiladi. Uh!..b"b"engil xo'rsindi Tohirjon.

- Unday dema, bolam. Noumid shayton,- yupatib g'apirdi dadasi.- Xudoi taolo xar bir dardga bir davo yaratgan. Lekin tabib yo'q. Burungi zamonlarda Ibn Sino, Luqmon Hakim o'tgan. Ular xar bir kasalga davo topgan. Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo'lsa bas ekan, tuzatar ekan. Hammasini eshitganman, eski kitoblardan eshitganman, o'g'lim.

- Qani ular?- so'radi kinoya bilan Tohirjon.

- Ular yo'q. Bu zamonda unday tabiblar qolmagan - javob berdi ota,- tabiblar andi aldamchi. E... bolam, hammaning dili buzilgan. Shuning uchun duo ham, dori-darmon ham yaxshi kor qilmaydi. Endi shifoni yolg'iz Ollodan, halloq olamdan so'ra. Tabiblarning tabibi u, Ajab emas, shifo bersa.

- Xudo qahrini oshkora qildi-ku, lekin rahmini bizdan yashirdi shekilli...- yo'tal aralash dedi Tohirjon. Shokir ota ko'zoynagi orasidan o'g'liga tikilib uning so'zidan norozi ekanini bildirdi.

- Shak keltirma, bolam!

Bir nafas jimjitlik hukm surdi. Shokir otaning yuz burushiqlarida g'am mavjlangan kabi tuyuldi. Shogird bola lab-lunjini osiltirib, tumov bo'lganidan burnini torta-torta, endi payvand tikishga boshladi.

Kasal kishi to so'ngi nafasga qadar tuzalishga umid qiladi, tuzalishga ishonmasa-da, ishongusi keladi. Atrofdagi odamlarning daldasi umidning so'ngi uchqunini so'qdirmaslikka yordam beradi. Hozirgina "meniki bedavo dard" deb tuzalishdan qat'iy ravishda umid uzganligini to'la ishonch bilan so'zlagan Tohirjon, bir necha minutdan so'ng, yana o'z kasali haqida, tabiblar, dorular to'g'risida so'zlamogga boshladi. Bu bilan u, o'z yuragining bir burchagida qilcha nur, yashash orzusiniig so'ngi jilvalari borligini isbot qildi. Ammo esini tanigandan buyon xasta bo'lmagan, tabib betini ko'rmagan Yo'lchi tabiblar, dorular to'g'risida aqlga sig'adigan bir tadbir ko'rsatib, bechorani qanoatlantirishdan ojiz edi. Tohir kabi xastalarga, "uzun og'riq"larga dala, tog' havosining porom kelishini eshitgan edi, bunga ishonar edi ham. U g'amxo'rlik bilan gapirdi:

- Tohir aka, qo'ying siz tabiblarni. Menga qolsa, maslahat shu: mana yaqin o'rtada bahor, siz qirga chiqing, ko'kragingizga toza shamol tegadi. Dala havosi sizga yog'dek yoqadi, butun illatni, xamirdan qil sug'urganday, tortib oladi, keyin toza qimiz iching. Dala qimiz boshqacha bo'ladi. Shaharda qimiz emas, ayron sotadilar.

- To'g'ri, juda to'g'ri!b"b"boshini bir necha marta qimirlatib gapirdi bemor.- Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor - dardimga naq davo. Shu kasalga chalinganimda, bir hakimga bordim. U tomirimni ushlab, andak mulohaza qildi-da, sizniki kosib kasal, dalaga chiqing, bahri dilingiz ochilsa, quvvatga kirib ketasiz, dedi. Lekin ilojimiz yo'q. Nainki uzoq safarga pul kerak. Tekin qimiz, et qayda!.. Ahvolimiz sizga ravshan,- bemor yo'tala-yo'tala do'konxonaga, cholga ishorat qildi.

- Bir epini qilsa bo'ladi... Shoshmang, Ziyoxo'jaboy sizga hammahalla, yon qo'shni, eshiklaring bir-biriga yopishgan, shundaymi? Chimkent ustida ularning qo'y, yilqisi ko'p ekan. Kechagina kichik o'g'li so'zlab qoldi: muncha uyurda muncha biya, muncha ayg'ir, palon-piston... og'zimni ochib qoldim. Bilasizmi, yozda qimizni ichadigan odam topilmas emish... Boyvachchalar qatnab turishar ekan, birga ketasiz. Qo'shni haqi...

Tohir achchiq kuldi, ko'zini yumib boshini chayqadi.

- Siz bu yerda yangisiz, ukam Yo'lchi. Bu yerdagilarning fe'li huyi sizga jilla ma'lum emas.

- Iltimos qilinsa...- dedi Yo'lchi.

Shokir ota ishdan ayrilmay, go'yo o'z-o'ziga deganday, lekin asabiy ravishda so'zlay boshladi:

- Bilasanmi, Yo'lchi, bir shoir, bilmadim, So'fi Olloyormi, shunday deganlar, "Tama noniga qo'l ochgandan o'l och!"b"b"ma'nisiga tushundingmi? Ana! Bilaman, Ziyoxo'janing qo'yi, yilqisi toqqa, dala-dashtga sig'maydi, Yozda qimizlari bijg'ib yotadi. Bunga imonim komil. Lekin undan menga, senga nima foyda. Ana bordiyu, men zaruriyat yuzasidan iltimos qildim. U bachchag'ar "xo'p" deydimi? Yo'q, undan bir nima so'ragandan ko'ra itdan suyak so'ragan afzal.- Chol bir minut gapdan to'xtadi. Tishsiz og'ziga suv to'ldirib, charmga pufladi, keyin charmni cho'zib-cho'zib gapga tushdi:

- Men qancha xaroblashsam, u shuncha xursand bo'ladi. Ko'kragida tukkan niyati menga ma'lum, Yo'lchiboy!

- Sizda qanday keki bo'lsin!b"b"hayron bo'lib dedi Yo'lchi.

- Keki yo'q, yomon niyati bor. Hovlisi biznikiga yopishgan. Lekin torroq. Hovlimni u o'zinikiga qo'shib, ost-ust imorat qurmoqchi, yayrab-yashnamoqchi... Bilaman, ko'pdan beri ko'z tikib keladi. Man bir parcha boshpanamga tish-tirnog'im bilan

yopishganimdan, hafsalasi pir bo'layozgandi. Ammo, Tohirjonning kasali, ro'zg'ordan qiynalganim uchun, yana qulog'ini tikkaytirdi benomus... O'rta odam qo'yib, ra'yimni bilmoqchi ham bo'ldi. Tohirjonning dardi qancha og'irlashsa, u shuncha quvonadi, senag'ar. Tirnoqcha joyimni sen xotintaloqqa bermaganim bo'lsin!- chol keyingi so'zlarini qichqirib gapirdi. Cholning yurak yaralarini ochishda o'zini aybli sanagan Yo'lchining ko'kragi og'ir tuyg'ular bilan to'ldi. Tirikchilik uchun kecha-kunduz tinmasdan mehnat qilgan va yuragida shuncha g'amni ko'targan bu beli bukik, yelkasi chiqiq cholni va yuzida hayot nuri o'cha boshlagan uning xasta o'g'lini so'z bilan yupatishning, yuraklaridan tirqirab oqqan qonni so'z bilan to'xtatishning ma'nosizligini sezdi. Lekin ularning foji ahvoliga tomoshabin bo'lishni ham ulug' gunoh sanadi Yo'lchi. Shuning uchun Yo'lchi ahvolni birmuncha yengillashtiradigan bir yo'l ustida o'ylarkan, eshikdan bir kishi kirdi.

- Hormang, usta!

- Keling, mulla Ikrom. O'tiring,- yumshoqlik bilan joy ko'rsatdi chol.

Mulla Ikrom baland bo'yli, dag'al soqol, og'ir qarashli, qirq beshlar chamasida bir kishi edi. Kiyimi qo'pol, lekin yangi va puxta edi. U eshik oldida devorga suyalib cho'qqaydi. Boshidan qozoqi telpakni olib, qo'lida aylantirib, jim o'tirdi. Tohirjon Yo'lchiga qarab sekingina: "charchadim, ketay", dedi-da qaltirab o'rnidan turdi, hassaga suyalib, kalovlanib eshikka tomon yurdi. Mulla Ikrom go'yo uni hozir ko'rgan kabi, ham loqaydlik bilan, "Tuzukmisiz!" dedi. Bechora unga qaramasdan juda sekin, eshitilar-eshtilmas: "Shukur" deb labini qimirlatdi. U shamolning kuchsiz epkinida tebrangan novda kabi, yengil va ojiz edi. Eshikni bazo'r ochib chiqib ketdi.

Mulla Ikrom usta bilan gaplasha boshladi. Lekin u to'ng odam edi. Yeqimsiz ovozi bilan ustadan biron narsa to'g'risida savol so'rar, ammo javobini tinglamas edi. Yo'lchi uni bu mahallada uchratgani yo'q edi. Keyinroq, gapning mazmunidan, bu kishining chor bozorchi, ya'ni shahar atrofidagi qishloqlarga qatnovchi bir savdogar ekanini va Shokir otaga mahsi uchun oldindan pul berib qo'yg'anligini ham shu buyurtma qilgan molni olish uchun kelganligini angladi.

Mulla Ikrom usta bilan gaplasha boshladi. Lekin u to'ng odam edi. Yoqimsiz ovozi bilan ustadan biron narsa to'g'risida savol so'rar, ammo javobini tinglamas edi. Yo'lchi uni bu mahallada uchratgani yo'q edi. Keyinroq, gapning mazmunidan, bu kishining chor bozorchi, ya'ni shahar atrofidagi qishloqlarga qatnovchi bir savdogar ekanini va Shokir otaga mahsi uchun oldindan pul berib qo'yg'anligini ham shu buyurtma qilgan molni olish uchun kelganligini angladi.

Shokir ota qarzdorlarga maxsus mutelik bilan yalinib-yalpanglanib mulla Ikromni va uning bola-chaqalarini duo qildi, hozircha o'n juft mahsi berishga qodir ekanini so'zladi. Mulla Ikrom "qiyiq" odam bo'lganidanmi yoki kasbi shuni lozim ko'rganidanmi, murosaga unamadi:

- Qirq juft bachkanaga aqcha berganmidim? Balli! Sizdan hozir yigirmatasini so'rab turibman. Iloji bo'lsa, hammasini berib qutulganingiz yaxshi edi-ya. Ammo yo'qni yo'ndirish qiyin, ana shu borini beravering? - U Shokir ota yonida qator tizilgan, pardozlanib yaltiragan mahsilarni ko'rsatdi: chol butun quvva'y nutqini ishga solib, yana yalindi:

- Rahmatli otang bilan juda qadrdon edim. Uning haqqi-hurmati, insof qil, bolam. Sen, xudoga shukur, ahli savdogardansan. Menday isqirt kosib emassan. Dardimni aytaversam, kitobga sig'maydi. Kasal o'g'il, xotini, boz xudo bergan uch nabira. Hammasi shu cholga qaram. Erta chorshanba, bozor, o'n juftini menga qoldir, ertaga sotib, chaynab turaylik. Jilla bo'lmasa, nabiralarimning javdiragan qora ko'zlari uchun yana o'n kun, bir hafta muhlat ber!

- Hammada bir tashvish bor, ota! Tirikchilik g'avg'osi yolgiz sizda emas, taqdirga tan berasiz-da,- dedi mulla Ikrom to'nglik bilan. Yo'lchi boshini quyi solib jim o'tirdi. Ammo choliing yalinishlari, savdogarning o'jarchasiga oyoq tirab turishi yigitning g'azabini oshira boshladi. U hali siyrak, qora mo'ylovini tirnoq uchlari bilan chimtib, qovog'ini solib o'yladi: bunga so'z ta'sir qilmaydi. Bunday odamni ozod ko'tarish, ko'chaga olib chiqib loyga bosish kerak edi. Lekin iloj yo'q! Mulla Ikrom haqli ekanini hammaga uqtira biladi. Zamona shularniki ekan! Shokir ota behuda tuhmatga qoladi.

Chol charmni ko'va bilan asabiy ravishda do'qillatib urib, savdogarni yana yumshatishga tirishdi:

- Senga o'xshash savdogarlar bilan xo'p muomala qilganman. Birontasining tiyinig xiyonat qilgan emasman. Haqim ularga ketgan, lekin ularniki-chi - yo'q... Osh o'rniga suv ichib yashashga roziman. Ming marta roziman. Ammo kishining cho'piga ko'z olaytirmayman. Bu hafta bo'lmasa, kellar hafta olasan, albatta, albatta olasan.

- Shu zamonda kim kimga haqini yediradi. Qo'ying shunaqa gaplarni. Sahar turib qishloqqa jo'nayman, bering, men tezroq ketay, ko'zimni uyqu bosayotir.

Shokir ota yana o'zining "qo'li qisqaligidan", ro'zg'or tangligidan g'oyat kuyunib so'zladi... Yolg'iz o'zi emas, balki butun ahli kosibning ahvoli pachava ekanini ochib tashladi. "Povurkon" mollari har yoqni to'ldirib, kosiblarning bozorini kasod qilganligi, ishi chippakka chiqqan kosiblar birin-ketin "taxta-o'qlog'ini" yig'ishtirayotganligini va hokazoni tasvirlab ketdi. Ammo cholning yuragidan toshgan so'zlar savdogarga zarracha ta'sir qilmay, aksincha, uning to'ngligini oshirdi.

Yo'lchi chiday olmadi, ko'zlarini savdogarga qattiq tikib dedi:

- Boboyning so'zlariga tosh ham eriydi. Siz odamsiz-ku! Shu yigirma juft mahsini olib ketaverasiz, butun oila qozonini suvga tashlab o'tiradimi? Andak insof kerak, uyat kerak. Choliing mehnatda chirigan ko'ksiga bigizni qadayvermang!

- Uka, men haqimni so'rayman. Birovning kissasiga qo'l suqayotganim yo'q!- Ikrom bu so'zlarni juda beparvolik bilan gapirdi va Yo'lchini o'g'ri va muttaham deb o'ylaganidan, ko'zlariga "bilmaz" degan bir ma'no berib, istehzo bilan jilmaydi. Savdogarning bu qarashi Yo'lchiga qattiq to'qindi. Lekin u yolg'iz mo'ylovini chimtidi va og'ir xo'rsindi. Shokir ota o'rnidan turdi. Uvushgan oyoqlari va tizzalarini silab, mahsilarni sanadi. Juft-juft qilib Ikromning oldiga qo'ydi, titroq tovush bilan dedi:

- Ol, o'g'lim, haqingni ertaroq ol...

Savdogar o'rnidan turib bir kerishdi, og'zini ochib homuza tortdi. So'ng, enkayib mahsilarni sekin-sekin sanadi-da, besh juftini ajratib, nariroqqa surdi:

- Ota, anov beshi sizga qolsin, xafa bo'lmang.

- Hammasini olaver, qutulganim yaxshi. Qarzini to'lagan odam xafa bo'ladimi? Sevinishi kerak.

- Bir joydagi odammiz, yana bir-birimizga ishimiz tushadi, otaxon! Kellar haftaga yana o'n besh juftini tayyorlab qo'ying. Ha, xohlaysizmi, men sizga teri keltirib beray. Xo'p, keyin so'zlasharmiz. Xayr.- U o'n besh juft mahsini avaylab ko'tarib, eshikdan chiqdi.

Cholning, hozir ko'rinishida sokin va dadil bo'lsa ham, xiyla asabiylashganligi sezilar edi. Oldida yotgan kerakli asboblarini tez topa olmas, ko'vani qidirgan qo'li shirach kosaga botar edi. Qayrilib tushgan kataklari keng, beso'naqay qayroq burni uchida ter tomchilari yaltirar edi. Ko'zlariga uyqu kelgan shogird bola mumli ipni qir-qir... cho'zib, qatim tortar, ustaning achchig'ini chiqarmaslik uchun, hech qayoqqa alanglamas edi. Yo'lchi, Shokir otaga tikilgan sari, uning hozirgi paytdagi g'amli o'ylarini,

kechinmalarini uning harakatlarida, ko'zoynak orqasida yashiringan kichik ko'zlarining ifodasida, eski mahsiday burushiq yuzining rangida ravshan seza boshladi. Uning ko'kragini bir nima chuqur ezdi. Do'konxona ham sovidi. Shamol derazaga oyna o'rniga yopishtirilgan qog'ozni timdaladi. Yo'lchi chiqib ketmoq istarkan, yana qoldi: "Ota nima qilmoqchi?" Ё Ў"u jo'rttaga, loqaydlik bilan ikki qolipni bir-biriga urib so'radi:

- Bozorga tushasizmi ertaga?

- Kosib chorshanba kuni bozor qilmasa, bir haftagacha qo'li bog'lanib qoladi. Garchi, reja buzildi, lekin bir amalini qilamiz.

- Xo'sh, buzilgan rejani qanday to'g'rilamoqchisiz? Haligi ablah ishni chappa qilib ketdi-ku?

Chol lablari bilan bir parcha eski charmni ho'llab turib dedi:

- O'g'lim, besh bachkini pullab, ip, mum, shirach, lak olamiz, xo'pmi?! Uyda bir oz teri bor. Ammo tag charm yo'q. Bunga ham bir iloj topib qo'ydim. Qanday? O'tgan yil xudo yarlaqab, o'zimga mahsi tikkan edim. Bo'zchi bel boqqa yalchimas, kulol mo'ndiga: eshitganmisan? Mahsini uch kun hayitda kiyib, saqlab qo'ygandim, ana uni pullab, tag charm olamiz. Ish yana maromiga keladi. Ammo, qozon qaynatishga iloj topa olmay turibman, o'g'lim. Biz palov yemaymiz. Bizga mosh, so'k, sholg'om, balo-battar bo'lsa bas. Ozgina pul xarajatlasak, bir haftagacha dekchamiz biqirlaydi.- Shokir ota og'ir xo'rsindi, so'ngra birdan "voy" Ё Ў" deb tomir tortishgan oyog'ini uqalay boshladi.

- Ota, qozon qaynatishga pul berib turaymi? Ko'p emas, uch so'm,- so'radi Yo'lchi yerga qarab.

Chol kallasini qiyshaytirib, Yo'lchiga tikildi. Uning bu boqishida, chuqur minnatdorlik, g'aribning g'aribga bo'lgan mehri yonar edi.

- Rahmat, yuzga kir, uvali-juvali bo'l, o'g'lim. Menga pul berma, peshona teri bilan topgan pulingni o'zingga xarajat qil. Shu so'zing o'zi oltindan a'lo. Naki, ko'nglimni ko'tardi. Bu chol,- Shokir ota qo'lini ko'ksiga urdi, - qanday mashaqqatlarni ko'rmagan! Bu qiyinchilikmi! Yo'q, bu hech gap emas. Bu qari bosh - ko'pni ko'rdi, yana ko'rar. Ollo Tohirjonga shifo bersin, niyatim - shu... Ё Ў"Chol oynagini olib, ko'z yoshini artdi va yana ishga urindi. Yo'lchi uning ra'yiga qarab, e'tiroz qilmadi.

- Zarur bo'lsa, so'rang, men topib beraman, xo'pmi?

- Juda zarur bo'lsa, bu boshqa gap,- Shokir ota duo qilib, yana minnatdorchiligini bildirdi.

Yo'lchi ko'chaga chiqish bilan keskin, sovuq shamol quloqlarida g'uvillab, ignaday o'tkir, mayda qor parchalarini uning yuziga urdi. Ko'cha va tomilar qordan oqara boshlagan. U sirpanib, toyib xizmatkorxonaga jo'nadi...

Beshinchi bob

I

Nuri erdan ko'ngilsiz edi. Ayniqsa keyingi kunlarda erining qusurini o'z xayolida g'oyat qavartirib yubordi, endi u Fazliddinning hamma sifatlarida, qanday bo'lmasin, bir kamchilik ko'ra boshladi. Yolg'iz qolgan chog'larida turli o'y-xayollar bilan chulg'anadigan bo'ldi. Birinchi galda erdan chiqish to'g'risida o'yladi, har xil rejalar qurdi. Lekin bu to'g'rida qurgan har reja, o'ylab to'qigan har bahona, birinchi qarashda juda aniq va to'g'ri - haqqoniy ko'rinsa-da, aqli sig'dirgancha chuqurroq o'ylarkan, puchga chiqaverdi. Erdan ayrilish uchun u, yo ota-ona uyiga qadam bosmaydigan bo'lib bir yoqqa qochishi kerak, yoki o'z oilasi quchog'iga qaytmoqchi bo'lsa, bunga ma'qul bir sabab ko'rsatishi kerak. Toki ota-onasi va akalari uning bu qilg'ini ma'qul ko'ra bilsinlar. Birinchi yo'l Nuriga tamom imkonsiz bo'lib ko'rindi. Ikkinchi yo'l uchun salmoqli bir sabab topolmas edi.

Tantiboyvachcha kabi isrofgar, bekorch, qimorboz kuyovni Mirzakarimboy har qancha yoqtirmasa-da, bir vaqtlar katta qizining undan ayrilish tilagiga to'siq bo'lgan edi. U endi Fazliddin kabi yigitdan qizini ayirib olarmidi! Nuri buni butunlay imkonsiz topdi. Uning xayoli sirli, yashirin zavqlar diyoriga uchdi, qalbi man etilgan lazzatlarga intildi. Pul va boylikning quvvatiga ishongani uchun bu yo'lni qulay deb topdi, bu yo'lga tezroq qadam bosishga oshiqdi. Qat'iy jazm qilgan kuni qaynanasidan Fazliddinning Moskvaga ketish xabarini eshitdi, yuragi toqatsizlandi. Kechqurun Fazliddin akasi Abdullaboy bilan uzoq gaplashib, so'ng, o'z uyiga kirgach, Nuri yasama noz bilan dedi:

- Maskovga jo'narmishsiz, nimaga manga bildirmaysiz?

Fazliddin tanchaning har vaqt o'zi band qiladigan tomoniga o'tirdi, kulib javob berdi:

- O'zimga ham shu bugun ma'lum bo'ldi. Abdulla akamning o'rniga man ketadigan bo'ldim.

- Qachon?

- Erta-indin.

- Maskovda nima qilasiz?

- Savdo Maskovda, jonim, yaxlit foyda ham u yerda. Maskovdan nima olib kelay senga? Buyur!

Nuri jilpanglanib javob berdi;

- O'zingiz eson qaytsangiz bas. Toshkentda manday to'kis kelin bormikan? Hamma narsa joyida...

- Man sanga shunday narsalar keltirayki ularni tushingda ham ko'rmagansan, o'lmaydigan, qimmatbaho narsalardan sovg'a keltiraman.

- Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r, deyishadi. Olib kelmaguningizcha ishonmayman.

Fazliddin bu kecha xursand edi. Har to'g'rida so'zlar, kular edi. Nuri fursatni qochirmaslik uchun hiylani ishlatishga qaror qildi.

Darrov ko'zlariga qayg'uli jilva berdi, yuzini teskari burib, shikoyatli tovush bilan, go'yo o'ziga-o'zi so'zlagan kabi ming'irladi:

- Boyliklaringga ishongim kelmaydi. Nomlaring Maskovchi boy bo'lib tarqalganiga hayronman. Mazmuni bironing pulini ishlatasizlar...

- Xa-xa-xa...- Fazliddin Nurining so'zlaridan ta'sirlanib qattiq kuldi.- Otangga pul kerak bo'lsa, bizdan qarz olsin. Biz birovdan pul olib ishlatamizmi? Najmiddinboydek eski boyning o'g'illari-ya!

- Qaydam, manga shunday ko'rinadi,- loqayd javob berdi Nuri.

Bu so'z Fazliddinning g'ururiga tegdi shekilli:

- Nima uchun, xo'sh? Ё Ў"ko'zlarini tikdi Nuriga.

- Boyga o'xshamaysizlar. Axir, eshiklaringda bironta xizmatkor bo'lmasa, o'tinni xotinlar yorsa... Ko'pincha suv tashiydigan odam topilmay, suvsiz o'tiramiz,- deb Nuri yana teskari burildi.

- Ha, bizni shu bilan kamsitasanmi? Ё Ў"Fazliddin boshini chayqatdi.

- To'g'ri-da. Kecha o'tin yorib, qo'lim og'ridi,- Nuri sog' qo'lini kasal qilib ko'rsatdi va soxta kuldi.- Og'ir yumushlarga xizmatkor kerak emasmi, shunday katta oilada?

Fazliddin yirik tishlarini ko'rsatib, xaxoladi. Keyin jiddiylashdi. O'z ichida xotining so'zini ma'qul ko'rди. Bu narsani o'zi ham

o'ylab yurar edi. Keksalar kabi salmoqdor bir ohang bilan so'zga tushdi:

- To'g'ri, bir malay kerak. Lekin insofli odamni topish qiyin. Xizmatkor, malay qanday bo'lsa? U tanini, jonini xo'jayinlardan ayamasa, ninaday narsaga xiyonat qilmasa, o'l desangʻʻo'lsa, tiril desangʻʻtirilsa! Bunday odam topiladimi? Odamning ichini bilish juda mushkul narsa. Ko'rinishda farishtaday odamning ichida shayton alayhilla'na o'tiradi. Bir vaqtlar bizda bir otaxon ishladi. G'arib, faqir mo'ysafid edi. Ko'p yil ishladi. U oltin odam edi. Hamma yumushni qilar edi. Sotib olingan qul qanday bo'lsa, u ham bizga shunday edi. O'lib ketdi boyoqish. Lekin dadam ham yaxshilikka yaxshilik qaytardi, tirikligida ko'rmasa ham, o'lgandan so'ng ko'rdi.

- Nima qildi dadangiz?

- Yaxshilab ko'mdi. Musofirlarga o'xshab chuqurga tiqib qo'ya qolmadi. Bir qo'y so'yib ma'raka qildi. Man o'zim bir yilgacha har payshanba kuni qur'on o'qib, arvofiga bag'ishlab yurdim. Bundan ortiq yaxshilik bo'ladimi?

- To'g'ri aytasiz, xizmatkor qulday bo'lsin,- erining haligi fikrini jo'rttaga quvvatladi Nuri,- bunaqasini topish qiyin. Biri ishyoqmas bo'ladi, biri yolg'onchi bo'ladi, biri o'g'ri bo'ladi. Sinalgan, tanilgan odamni qidirish kerak.

- Balli,- Fazliddin boshi bilan xotinining so'zini ta'kidladi,- sinalgan odam kerak. Qaerdan topamiz. Mehmonxonadagi asboblarni, buyumlarni kimga ishonamizB?

- Qo'yavering, man o'zim topaman,- sevinchdan yuzlari yonib gapirdi Nuri,- dadamda bir malay bor. Nimasini surishtirasiz, mo'min, ma'qul yigit. O'la qolay yolg'on gapirsam. Naq uch-besh kishining ishini qilarmish. Ham o'zi bizlarga qarindosh, dadamning urug'laridan. Qorni to'q, egni butun bo'lsa bas. "Ing" yo'q, "jing" yo'q, ishlayveradi. Ana shuni olamiz. Endi so'zingizdan aynamang, xo'pmi?

- Mayli,ʻʻdedi Fazliddin,- lekin, shunday yaxshi qulni ular bizga berishmas, deyman.

- Manga berishmaydimi?ʻʻqat'iy ishonch bilan dedi Nuri.- Yo'q, albatta berishadi.

Nuri to'shakda eri bilan alla-pallagacha gaplashib yotdi. Tili bilan Fazliddinga har xil yoqimli so'zlar so'zlasa, fikri boshqa yoqlarda kezdi. O'z rejasining bunday qulay amalga oshuvidan hadsiz sevindi. Eri xurрак tortarkan, teskari burilib, yana uzoq vaqt o'yg'a botdi, ko'zi ochiq esa-da, u shirin xayollar uyqusida orom oldi...

II

Gulnor ko'cha eshigidan hovlisiga kirarkan, rang-ro'yi o'chgan, lablari titroq, ko'zlari bejo edi. Yerdan bir qarich ko'tarilgan, torgina sahnga parcha-purcha churuk namatlar solingan va shipi, devorlari to'ziq ayvonga paranjisini otdi, tikish xaltasini tanchaga tashlab, ustunga suyanibroq bir muddat parishon turib qoldi.

Ayvonda yamoq yamab o'tirgan onasi Gulsumbibi - bu yomon kiyingan, oriqqina, lekin yuzida eski go'zallikning izlari hali saqlangan, qirg' yoshli, sokin, kamtar xotin boshini ko'tarib mehribonlik bilan qiziga qaradi.

- Bir nimadan qo'rqdingmi? Nega bo'shshasan?- Gulsumbibi so'rab, yana ishga mashg'ul bo'ldi.

Onasining savolidan ko'zi ochilgan Gulnor, g'ayri shuuriy ravishda dudoqlarini bazo'r qimirlatib dedi:

- Yo'q, o'zim, shunday.

- Boshing og'ridimi?

- Yo'q. Nimaga tashvishlanaverasiz?

Gulnor shu topda yolg'izlikni, tinchlikni istar edi. U sekin-sekin yurib, kunga ters solingan, bir derazali, kichkina, qorong'i uyga kirib ketdi.

Ayvonda qolgan Gulsumbibi qizini o'yladi. Gulnorda o'qtin-o'qtin ro'y beradigan shunday xafalik, parishonlik, hammadan yashirinish, yotsinish kabi hollarni bir qancha oydan beri u sezar edi. Uylab-o'ylab sababini yaxshi anglay olmas, ko'pincha shu ikki narsani gumon qilar edi: birinchisi, kiyim-kechagi yo'q, dorpech, palak tugul, bir qarich buyumi yo'q, o'z tengi qizlar orasida uyaladi sho'rlik qizim. Yana avji o'ynab-quvonadigan paytda xo'jayinlarning yumushini qiladi. Kir yuvadi, sigirga qaraydi, bola ko'taradi. Ikkinchisi, Gulnorning bir kasali bor. Yosh bo'lganidan, kasalini o'zi sezmasa qerak. Kasali o'qtin-o'qtin bir ko'rinish berib qo'yadi. Xudodan boshqa tayanchim yo'q, o'zi asrasin!

Lekin bu gal butun aybni eri Yormatning ustiga ag'daradi. Ota bo'lmay o'l. Ikki gapning birida, xotin ustiga bo'lsa ham boyga, yerli-suvlikka beraman, deydi, Niyating qursin. Qizimni o'tda yoqmoqchi bo'lasanmi? Qizim aqlli, hushli qiz, dadasining bunday badniyatini biladi, shundan xafalanadi, kuyadi. Ota o'lgur, birovning malayi bo'lsa ham, o'lguday kekkaygan, takabbur. Qancha sovchilarni quvib yubordi axir. Birini past odam deydi. Birini kosib deydi, birini aravakash-ovorakash deydi. Duradgor yigitning onasi qatnay-qatnay tinka-madori quridi. Ayniqsa, o'shanga ko'nglim chopgan edi. Yigitning qo'lida gulday hunari bor ekan, bo'ydoq ekan, uy-joyi tayin ekan. Yana senga nima kerak! Endi yana boshqa bahona topibdi. "Qiz maniki emas, boy otamning qizi. U kishi o'zlari tanlab uzatadilar!" Ul ota bo'lmay... Begona har vaqt begonaligini qiladi. Qizim baxtli bo'ladimi, o'tda yonadimi, Mirzakarimboyga baribir. U begona bizga.

Gulnor butun jihozi bir namat, tokchadagi bir necha siniq-mertik kosa, piyola va eski sandiq ustiga taxlangan bir necha eski, yamoq-yasqoq chit ko'rpadan iborat bo'lgan qorong'i, zax uyiga kirib tanchaga oyoqlarini uzatib yotar edi. U hozirgina o'rtog'i Xadichaning uyidan chiqib, ko'chada hech kim bo'lmagandan va sirpanchiq loyda yurish qiyinligidan, yuzini ochib ko'zlarini yerga tikib kelar ekan, qarshida kelayotgan Yo'Ichiga yuzma-yuz to'qnashgan edi. Gulnor bir entikib, yuzini yashirarkan, Yo'Ichining chiroyli keng yuzida, mardcha o'tkir, jonli, teran ma'noli ko'zlarida, qandaydir, iliq, samimiy tabassum toshgan edi. Sirg'anib, loy sachratib yugurgan Gulnor, o'z eshigida bir nafas to'xtab, kechinmalarini onadan yashirishga qancha urinmasin, buni eplay olmagan edi.

Qiz Yo'Ichini chuqur sevar, uning yolg'iz ismini eshitish bilan yuragi to'lqinlanar edi. Bu muhabbat qizning ko'ngliga yoz chog'i, Yo'Ichini qishloqdan kelgan kunlariyoq saraton quyoshi bilan birga kirgan edi. U yoz chog'i Yo'Ichiga uzoqdan, yaqindan, daraxtlar orasidan yashirincha termulib yurgan, unga maftun bo'lgan edi. Dastlab bunday tuyg'uning mohiyatiga tushunmagan edi. Lekin muhabbat uning yuragini har kun yana chuqurroq egallab, dardni kuchaytirgan, sevgining chin ma'nosini tuya boshlagandi. Bir vaqtlar ishq mojarolarini yolg'iz ertaklardan tinglagan Gulnor, bir qarichlikdan mehnatga uringan bu jafokash qiz, endi o'zi ishqning olov ko'ylagida yashar edi. Lekin Nurining nikoh kunigina Yo'Ichiga yaqinlashib, u bilan so'zlasha olgan edi. Undan beri uchrashuvga, ikki og'iz so'zlashuvga botina olmasdi. Ota-onadan, atrofdagi ko'zlardan qo'rqr edi: "Falonchining qizi falonchiga xushtor bo'lganmish, falonmish, pistonmish..." kabi har xil g'iybat va iftirolar tarqalsa, odamlarning betiga qanday qaraydi? Lekin, ikkinchi tomondan, boshqa bir xavf uning ko'z oldida yana dahshatliroq gavdalanar edi: onasining ta'biricha, boyparast ota bir kun to'satdan: "Boy otam falon odamni ma'qul ko'rdilar, erta to'y, falon kun nikoh, tayyorligingni ko'raver, xotin!" desa, u nima qila

oladi.

Gulnor ishqiy kechinmalar, belgisiz xayollar ichida o'rtanib yolg'iz yotarkan, hovlidan otasining ovozi, qo'y ma'rashini eshitdi, bosh ko'tarib derazadan qaradi, hovlidagi tutga katta semiz qo'yni bog'layotgan otani ko'rdi. Uning choponi beligacha balchiq, yuz va soqollarida ham balchiq tomchilari...

- Qizing qacda? - baqirdi Yormat Gulsumbibiga.

Gulnor darhol o'rnidan turdi, kavushini oyoqqa ilib hovliga tushdi.

- Suv keltir! B' B' dedi Yormat.

Gulnor bir obdastaga suv to'ldirib, dadasiga tutdi.

- Quy o'zing, - dedi Yormat ham ayvonning labiga o'tirib, etik yuvishga boshladi. Qo'llari etikni ishqalarkan, og'zi tinmadi:

- Uh, o'lib bo'ldim, qizim! Yolg'iz qo'yni haydash - nuqul azob. Eng gunohkor bandaga tongla qiyomatda bunchalik azob bermas tangrim. Ikki qadam bosadi-da, ko'cha o'rtasida to'xtaydi. Go'yo oyog'i yerga mixlangan. Harchand urinaman, o'rnidan qo'zg'alsa-chi. Bo'ynidan surgayman - yo'q, dumbasiga arqon solib tortaman - yo'q. Dumba qanday deysan? Ko'rdingmn? Bir yarim pud moy beradi. Suyagigacha moy: ertaga norinxo'rlar maza qiladi-da!

- Har vaqt shundoq. Rohatini boshqalar ko'radi, azobi sizga! B' B' Gulsumbibini piching qildi eriga.

Yormat boshini ortga, xotini tomonga burib, o'graydi va jahl aralash dedi:

- Iyya! Ablah, boshqa gap qurib qoldimi? Qo'y qanchaga olindi degin, kalla-nochasini xo'jayindan so'rab oling, degin!.. Ertaga norindan yersan, buni o'ylamaysan-a.

- Har bir gapda salqitini berishadi bizlarga, - dedi-da, Gulnor onasiga qaradi. Gulsumbibini yashirinchi ko'z qisib, qizining so'zini ma'qulladi. Yormat esa qizining bunday mahmadonaligiga g'azablanib, qosh-qovog'ini soldi. Ushshaygan lablari bilan bir nimani pichirladi. Etikni tozalab, yuz-qo'lni yuvib bo'lgach, ko'zlarini qizidan uzmasdan, choy icha boshladi. Bir oz hordiq chiqargandan so'ng, qizi va xotiniga qarab, uy ichiga kirib o'tirish kerakligini, u hozir Yo'lchini chaqirib, kun kech bo'lmasdan, ikkovlashib qo'yni so'yib, go'shtini go'shtga, moyini moyga ajratmoqchi ekanini bildirdi. Gulnor birdan jonlandi, shoshib-pishib otaning fikrini quvvatlatdi:

- To'g'ri, dada! Qo'yni ertaroq so'yib, saranjom qilganingiz yaxshi. Kechalik ish qursin. Hakimboyvachcha akam, bilasiz-ku, juda shoshiradi sizni.

Yormat qizdan xursand bo'ldi... Pichoq, qayroq topishni va go'sht-moy solish uchun tog'oralarni tozalab tayyor qilishni buyurdi.

Gulnor hamma narsani bir zumda tayyorlab, dadasiga ko'rsatdi. So'ngra uyga kirib, deraza oldida tiz cho'kdi. Ko'zlari Yo'lchiga intizor javdirardi...

III

Akasining gapiga Nuri juma kuni qiyom naytida yetib keldi. Erga tekkanidan buyon bu to'rtinchi kelishi edi. U juda yasangan, bilaklarida qo'sh-qo'sh oltin bilaguzuklar, barmoqlarida brilliant ko'zli uzuklar, "toybarra" nimcha ustida rang-barang tovlanuvchi, go'yo oltin va kumushdan to'qilgan kabi "koktilla" kamzul... U hovlida ko'rinishi bilan uy ichi bir lahzada duv ko'tarildi.

Hammadan burun onasi yugurdi. Qizini quchoqlab, peshanasidan o'pdi. Uning ketidan kelinoyilari, Nuri uchun emas, balki qaynona izzati uchun, aylanib-o'rgilib ko'rishishdi. Gapga da'vat qilingan o'n chog'li qarindosh ayollar ham ko'rishib, qayta-qayta hol-ahvol so'rashib, Maskovga ketgan kuyovining sihat-salomat qaytishi uchun har qaysi o'z bilganicha duo qilishdi. Faqat, shuncha e'tibor, shuncha iltifotga qaramay, Nuri zerikkan kabi xomush o'tirdi. Xotirlarning suhbatiga bir qancha minut parishon holda quloq solib, ikki piyola choyni bazo'r ichib, o'rnidan turdi. O'zini qayoqqa qo'yishini bilmay, yuragini tirnagan kechinmalari, sirli umidlari bilan qarorsizlangan, mast bo'lgan kabi, hovlida kezdi, oshxonaga kirdi. Gulsumbibini sho'rva uchun tandirda "lochira" yopadi. Yana ikki qo'shni xotin o'choq boshida uymalanishadi. Kechki norin uchun katta qozonda yog'li qazi pishadi. Ikkinchi qozonda qo'y etidan sho'rva qaynaydi.

Bir soatdan mo'lroq tentiragandan so'ng, hovlida pildirab xizmat qilib yurgan Gulnorni chaqirdi. Undan-bundan so'zlashib, nihoyat, qandaydir bir maqsad bilan so'radi:

- Uylaringda kim bor?

- Hali kirganimda dadam bilan Yo'lchi akam bor edi, - dedi-da, Gulnor bu to'g'rida gapni uzaytmaslik uchun, tezgina chekinmoqchi bo'ldi. Nuri qoshlarini chimirib, ma'noli kulgi bilan qizni to'xtatdi ham sekingina dedi:

- Yur, o'sha yerga chiqamiz. Ular ayvonda bo'lsa, biz uy ichida o'tiramiz. Bu yerda zerikdim, qiy-chuv, bola-chaqa...

Gulnorning kichkina chiroyli og'zi hayratdan bir nafas ochilib, ko'zlari: "rostmi?" degan kabi Nuriga tikildi. Chunki qizlik vaqtida Nuri ularning kulbasiga juda oz chiqar edi: mabodo kirib qolsa, ularning ko'rpa-yostig'idan jirkanar, tanchaga o'tirishdan hazar qilar, buni yashirmas edi ham. Gulnor hozir Nurining mehribonligiga sevindi. Erga tegib, fe'li ancha yaxshilanibdi shekilli, deb o'yladi. Quvonch bilan so'radi!

- Rostmi, opa? Katta oyim indamasmikinlar?

Nuri javob bermadi, qarshi ayvonga borib, bir chetga uyulgan paranjilardan eskirog'ini oldi, onasini yolg'iz uchratib, uni iydirish uchun erkalanib, sekingina maqsadini aytdi. Onaning ko'zlari taka-puka bo'ldi:

- Bema'ni gapni gapirma, qizim, San kim, ular kim? Allakimlarga o'xshab xizmatkornikiga chiqasanmi? Yo man kuta olmadimmi? Xohlasang, anov uyga o'zingga alohida joy qilib berishadi, tashla paranjini!

- Yo'q, oyi, hech nima kerak emas, - yana muloyim gapirdi qizi, - kuyovingizni jo'nataman deb charchagandim. Bu yerda yana shov-shuv. Gulnor bilan gaplashib o'tiraman u yorda. Keyin unga ashula ayttiraman.

- Uh bay-bay, o'zing bilasan, bolam. Ko'p o'tirma... Ha, tag'in, - onasi juda sekin pichirladi, - bit-miti kirmasin, ehtiyot bo'!!

Lutfiniso Gulsumbibini va Gulnorni juda ozoda-pokiza ekanliklarini, ko'rpa-yostiqlari eski bo'lishiga qaramay, har vaqt toza tutilishini juda yaxshi bilsa-da, bu gapni aytishdan toymadi Chunki u kambag'allarning har nimasini masxara qilishga, ularni har jihatdan o'zlaridan past tutishga, kamsitishga odatlangan xotin edi.

Gulnor Nurini uyga boshlab kirib, tagiga ko'rpacha yoyib, orqasiga yostiq qo'yib o'tqazdi. Bugun uning ko'ngli shod, ruhi dadil edi: kecha dadasini qo'y so'yish bilan ovora bo'lgan-da Yo'lchi unga qarashib turarkan, Gulnor mana shu deraza orqali uning sevgi to'la ko'zlarini bir qancha uchrata bilgan edi. Bir soat mobaynida ular uzoqdan turib, ko'zlari, tabassumlari, yengil entikishlari bilan bir-birlarining ruhlarini, ko'ngillaridagi yashirin, ezgi ma'nolarini ifoda etishgan edi.

Nurida shubha qoldirmaslik uchun, o'zining Yo'lchiga bo'lgan munosabatini biron harakat bilan bildirmaslikka tirishdi. Ayvonda pahlavondek og'ir chordona qurib, mag'rur o'tirgan va boshini quyi solib qandaydir ot asbobini tikishga jiddiy mashg'ul bo'lgan

yigitga deraza orqali to'yib-to'yib qarashga zor bo'lsa-da, Gulnor bu kuchli orzuni yenga bildi. U o'zini beparvolikka solib, undan-bundan so'zlab, "zerikkan" Nuri opani ovutishga urindi.

Nuri esa Gulnorning gaplariga quloq solgan kabi, ko'rinar, lekin fikri boshqa narsalar bilan band bo'lgani uchun, so'zlari, savol-javoblari sira bir-biriga qovushmas edi. Ba'zan bir qadar moyillanib, derazaning bir chetidan ayvonga ko'z tashlab qo'yar edi. Uning parishonligini, istamasdan suhbat qilishini sezib, Gulnor ham jim bo'ldi. Bir qancha minutdan so'ng Yormat kirib sukutni buzdi. U eski sinashta xizmatkor bo'lganidan, Nuri undan qochmas edi. Shuning kabi Gulnor ham Mirzakarimboydan qochmas, Hakim va Salimboyvachchalardan esa bir yildan buyongina chala-yarim yashirina boshlagandi. Yormat sevinganidan kaftini ishqab, kulib, tanchadan bir qadam narida cho'kka tushdi.

- Nuri opa, esonmisiz? Bizning kulbaga qadam qo'yishingiz ko'nglimni tog'dek ko'tardi-da. Balli-balli. Man sizni o'z qizimdan a'lo ko'rardim. Mana, to'g'ri chiqdi Yormatning xotiri uchun kirdingiz rahmat,- dedi Yormat.

Nuri o'rnidan qo'zg'almasdan, sovuqqina so'rashdi. Ezma Yormatning ba'zi savollariga "ha", "yo'q" deb javob berdi. Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi, Nurining qaynatasi Najmiddinboyning bir vaqtlar machit soldirgani, kuyov Fazliddinboyvachchaning do'koni, savdosining zo'rliigi va hokazoni tilyog'malik bilan talay gapirdi. So'ng, o'rnidan turib, olifanamo gerdanib, uydan chiqarkan, Gulnor to'xtatdi: ЁЎ"Kulchatoydan keltiring, men ham to'g'rayman.

- Ozgina qoldi, qizim. Hozir Yo'lchiboy to'g'rab qo'yadi. Sizlar bemalol hangamalashib o'tiringlar. Man tashqari chiqib mehmonlarga xizmat qilaman.

Nuri derazaga qarab, hovlida Yormatning qorasi o'char-o'chmas, Gulnorga dedi:

- Juda qornim ochdi. Gulnor, sen biznikiga chiq, oyimga ayt, bir patnis yasab bersin. Pista-bodomdan ko'proq ol. Ha, kim biladi, sanda oyimning yumushi bordir, bir chiqishing kerak,- Nuri xo'rsindi, sochlari, g'ijim ro'molini tuzatdi.

To'esini tanigandan boshlab Nurining buyruqlariga so'zsiz bo'ysunib kelgan Gulnor, hech nima o'ylamasdan o'rnidan turdi.

- Jonim bilan, boyadan beri aytasangiz bo'lmasmidi? - Gulnor paranjisini nari-beri boshiga ildi.

Nuri uyda yolg'iz qolarkan, yuragi qattiq urdi, lablari qaqradi, tizzalarida kuch qolmagan kabi tuyuldi. U o'yladi: "Ayvonga chiqsammi? Yo'q. Gulnormi, Yormatmi bostirib kelsalar, sharmanda bo'laman. Nima qilish kerak? Derazani ochib gaplashuv qulay. Uzoqdan bir nima "tiq" etsa, yo oyoq tovushi eshitilsa, "tappa" yerga o'tiraman. Uy qorong'u bo'lganidan derazani ochib qo'ydim, deb bahona topaman..."

Deraza ochilishi bilan Yo'lchi boshini ko'tardi. Uning ko'z oldida Nuri! Ko'rkam yasangan, quloqlarida, bo'ynida, bilaklarida va barmoqlarida oltin ham qimmatbaho toshlar yongan kelinchak Nuri! Endi norin uchun xamir to'g'ramoqda bo'lgan Yo'lchi pichoqni xamirga urgan holda bir on hayratda, qoldi, butun yuzi qizarib ketdi.

- Salomatmisiz, kayfingiz chog'mi? ЁЎ"dedi-da, yana xamir to'g'rashga boshladi.

- Kayfim chog'. Sizni ko'rib, yana ko'proq chog' bo'ldi,- Nuri dadillik bilan so'zladi va noz qilib kuldi. So'ng bidirlab Yo'lchining hol-ahvolini so'radi. Vaqtning tig'izligidan xavflanib, darrov o'z dardini ochdi.

- Yo'lchi aka, men sizni bu yerdan olib ketaman.

- Qaerga? ЁЎ"sekin so'radi Yo'lchi.

- Biznikiga... Bizga sizday bir odam kerak. Biznikida ish ming marta yengil. Albatta, yo'q demaysiz, durustmi? ЁЎ"Man" so'zini Nuri chertib ketdi.- Man sizga yaxshilikni xohlayman,- soch tolalarini tishlab, ko'zlarini uchirib tikildi Yo'lchiga.

Yo'lchi indamadi, uning ikki qoshi o'rtasi burishdi, o'yladi "Aha, boyvachcha kuyovidan zerikkanga o'xshaydi. Quvonchi uzoqqa cho'zilmabdi-da, endi mani xizmatkorlikka chaqirib, go'dak boladay o'ynatmoqchi. Bilamiz!"

Yo'lchi uchun Mirzakarimboydan siljish - Gulnordan ayrilish demak edi. Gulnorning bir tabassumi uning uchun hamma narsadan ma'nodor, turmushning hamma zavqlaridan ulug' va qimmatli edi. Gulnorning ko'zlari unga butun umrni yoritgan bir baxt va'da etar edi. Yo'lchi atrofga ko'z yurgizib, so'ng muloyimlik bilan javob berdi:

- Shu kambag'al qarindoshni tortqilamasdan tinch qo'yinglar. Umid bilan shu yerda yuripti, shu yerda qolsin u. Sizga xizmatkor kerakmi? Man topib beray, yaxshi tanishlarim bor. Mani qo'ying.- U pichoqni tashlab, bir qo'lini ko'ksiga qo'yib o'tindi.

- Yo'lchi aka, biznikida umidga-orzuga tezroq yetishasiz. Sizga nima kerak? Qishloqdagilarni boqish uchun pul kerak, kiyim kerak. Bizda ishlasangiz, hammasini mandan olasiz,- Nuri kulib dedi.

- Zo'rlasangiz ham bormayman. Orzum, umidim yolg'iz pul, yolg'iz kiyim emas; ishlayman, topaman ularni.

- Yana nima kerak? ЁЎ"titrab so'radi Nuri.

- O'zim bilaman.

Yo'lchining so'zlari, javobi Nurini esankiratdi. Chunki u bunday "dag'al" muomalani aslo xayoliga keltirmagan edi.

- Siz juda qiyiq, juda o'jar yigit ekansiz. Hali shoshmang, deganimga ko'nasiz axiri,- dedi-da, vaqtning tig'izligidan xavflanib, derazani ohista yopti.

Oltinchi bob

I

Samarqanddan kelgan boylar bilan qimor o'ynab, hamma naqd aqchasini yutqizib, bir necha kun pulsiz qolgan Tantiboyvachcha o'ziga qarashli do'konlardan birini bugun katta pulga sotdi. Qo'sh otli izvoshini kira qilib yaslanib, "sho'xlik" qilish uchun yangi shaharga jo'nab qoldi.

Martning oxiri. Kunduz soat uch chamasi. Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi.

Yangi uyg'ongan, yam-yashil bargchalar bilan yasangan daraxtlar quyosh nurida cho'miladi. Havo yorqin va tiniq...

Izvosh "fon Kaufman" haykali oldidan taraqlab ketdi. Bu yerda xoda yutgan kabi gerdaygan, shop mo'ylov ofitserlar kezar edi.

Tantiboyvachcha ularga ko'zi tushar-tushmas darrov vaziyatini o'zgartirib, tavoze bilan dam boshini, dam butun gavdasini egar, bir muhim vazifani bajargan kabi, o'z qiligi uchun o'zi faxrlanib, mo'ylovini silab qo'yar edi.

Izvosh boshi berk ko'chada to'xtadi. Tantiboyvachcha kira pulini to'lab, ko'rimsiz bir darvozadan ichkariga kirarkan yo'lakda, eski kursida o'tirgan tanish cholg'a uchradi. Cholning patak soqoli kirlikdan oqini yo'qotgan, egnida kirlanib, moylanib yiltillagan dog'-dug'li, lekin diqqat bilan boqilganda, tagi asl-puxta buyum ekanligi hozir ham bilingan uzun qora kamzul, oyoqlarida eskirib olapeslangan amirkon mahsi, yirtiq kalish. Bu kishi bir vaqtlar Toshkentda va Farg'onada dong chiqargan Shomurotboy edi. Butun boyligini aysh-ishrat, fahsh, buzuqlik olamida sovurib, u olamning to'lqinlarida bosh aylantirgach, telbaliklar qahramoni bo'lgan, nihoyat, taqdir uni zavq-safo taxtidan uning iflos ostonasiga otgan edi.

Tantiboyvachchani ko'rgan hamono o'rnidan turdi. Chirkin, xira ko'zlarining yoshini kafti bilan artib, ko'rishmoq uchun qo'llarini

uzatdi.

- Ko'rinmaysiz, inim Mirishoq? Jilla uzoqlashiy ketmang, dam g'animat. Xi-xi-xi.- Bachkana kuldi chol.

- Bormi?B" dedi Tantiboyvachcha.

- Biron marta sizga topilmay qolganmidi. Pul bo'lsa bo'ldi, nokmi, nashvotimi? Pul bo'lsa, naq arsh-a'lodan keltirib beradilar. Pulni cho'z, jannatning kalitini qo'lingga tutqizaman!B" dedi-da, cho'ntagidan arzon papirosni chiqarib, boyvachchaga tutdi va o'zi ham olifalik bilan labiga qistirdi.

- Bo'sh kelmaysiz, oqsoqol! Siz bizning pirimiz, eshonimiz. So'zingizga ishonamiz. Xa-xa-xa...

Tantiboyvachcha cho'ntagidan uch so'mlik qog'oz olib Shomurotboyga qistirdi.

- Rahmat, inim Mirishoq. Biron xizmat bo'lsa, tayyorman!- boyvachchaning orqasidan qichqirib qoldi chol.

Tantiboyvachcha ko'pdan tanish hovliga, atrofi ayrim-ayrim eshikli xonalar bilan o'ralgan hovliga kirdi. Xizmat qilib yurgan g'irrom ko'zli kampirlar, yoki botgina keksaygan yosh xotinlar bilan bosh qimirlatib so'rashgan bo'ldi. Qo'raning so'l yog'ida, quyida, burchakka yashiringan bir uyiring eshigini ochdi.

- Ehe, keling, Mirishoq aka. Har kun sizni kutar edim-da,- uzun bo'yli, qora soqolli, ko'zlari qizargan kishi joyidan qo'zg'almasdan boyvachcha bilan so'rashdi. Uning oldida patnisda bir qancha shisha pivo bor edi. Bir stakan quyib boyvachchaga uzatdi. Pivoni simirib, boyvachcha dedi:

- Xo'jayin, bugun yayramoqchiman. Asalxon tayyorlansin!

- Qo'ying uni, boyvachcha. Zerikmas ekansiz-da,- dedi xo'jayin.

- O'zi yo'qni ko'zi yo'q,- norozi bo'lib gapirdi boyvachcha,- uch kun ko'rinmasam, boshqasiga qo'ndiribsan-da. Haqini rosa olgan eding-ku, bo'shat uni. Man o'shani deb keldim. Aqchaga mo'moy kim bor yana? Ko'ramiz!

Xo'jayin bir oz o'ylandi. Tantiboyvachcha uning "sog'im sigiri" bo'lgani uchun, xursand qilish kerak edi. Pivodan ichib, yupatdi.

- Asalxonning asalini xo'p totdingiz, qo'ying, mumi boshqalarga qolsin. Ikkita hurliqo bor. Biri o'ris, biri o'zimizdan. Ikkovi ham uzilmagan gul. Quling o'rgilsin jononlardan. Man bilaman-ku!

- Bizga o'xshash soqovlarga o'zimizniki durust,- Tantiboyvachcha tilini ko'rsatdi,- bo'lmaydi.

- Ana shunday deng, do'stim,- dedi xo'jayin,- lekin siz ishratni yaxshi bilasiz. Ashulasiz, dutorsiz, suhbatsiz ishrat, yarim ishrat: hali aytganimb"ashulada yakka. Boyvachcha, yana siz mandan koyinasiz. Ishim sizdek to'rtta-beshta og'aynilar bilan bo'ladi.

Sizlar xursand bo'lsangiz shu kifoya bizga. Bilasiz, meniki - gulbog'. Gullarning ham shamol o'pmaganlari teriladi. Endi narx-navosini o'zlariga tashlayman. Zar qadrini zargar biladi. Xa-xa-xa...- xo'jayin yana bir stakan pivo tutdi boyvachchaga.

Boyvachcha "narxi ahamiyatsiz" degan kabi, qo'lini beparvo silkidi. Xo'jayin o'rnidan turib, eshikni qiya ochdi, bironni imlab, yana o'z joyiga o'tirdi.

Yoshlikda satang o'tib, bu doirada sochi oqargan, lekin hali ham butun gavdasidan noz xazonini shildiratuvchi bir kampir kirdi.

- Ha, boyvachcham, enangga nima tortiq qilasan? Umidim to'lka sandan,- O'ynoqlandi kampir.

- Tortig'im shu: sizga bitta kuyov topib qo'ydim. Juda chaynaydigan yigit-da!- hazillashdi Tantiboyvachcha.

Kampir unda-bunda qolgan, tishqoli surilgan tishlarini ochib qih-qih kuldi va xo'jayinning buyrug'ini kutdi.

- Gulandomxonning uyiga olib boring boyvachchani!- dedi-da, ko'zlari va yuz harakati bilan yana nimalarnidir kampirga ishorat qildi xo'jayin.

Tantiboyvachcha xonaga kirganida hech kim yo'q edi. Uy jihozi boyvachcha ko'rgan boshqa xonalarnikidan farqsizdek. Ranggi bir qadar aynigan gilamcha, uzunchoq xontaxta atrofida devor bo'ylab ko'rpachalar to'shalgan, ikki yostiq. To'rdagi devorda kattagina oyna. Qoziqda sadaf bilan ishlangan dutor...

Boyvachcha chordona qurib o'tirdi. Yigirma minut qadar vaqt o'tgandan so'ng yengil ta'zim bilan Gulandom kirib keldi.

Alanglagan ko'zlari bilan xotinga boshdan-oyoq razm soldi boyvachcha.

- Ko'zimiz to'rt bo'ldi, poshshaxon, bazmingizga mushtoqmiz, qoni o'tiring.

- Sizlarning odatlaringiz shu. Har qanaqa xotinni maqtayverasizlar. Rostmi, yolg'onmi, bilib bo'lmaydi.- Gulandom ohangdor jarangli ovoz bilan so'zladi, so'ng oynaga yaqin kelib davom etdi,- Robiya xolam shoshirgani uchun pardozim ham chala qoldi...-

Gulandom derazalarning pardalarini to'g'rilash bilan mashg'ul bo'ldi.

O'n to'qqiz-yigirma yoshli, ko'rkam xotin edi: baland bo'yli, ko'krakli, to'la emas, lekin miqti, dirkillama tanga ega; yuzi oftob yalagan oq yuz kabi, mayin qoramtir; ko'zlari qora va yirik. Bosh uchida, kuchsiz shamol uchira bilajak darajada yengilgina o'ralgan ipak durracha, ustida qora-oq tovlanmali uzun keng atlas ko'ylak. Oyoqlarida, mahsi kabi, poshnasi bilinar-bilinmas yangi amirkon etik...

Tantiboyvachcha Gulandomga o'z yonidan joy berdi ham o'z odati bo'yicha, darrov xushomadgo'ylikka boshladi. Eshikni taqirlatib kampir kirdi, kichkina choynakda choy va meva-chevali patnis keltirib, patnisni xontaxtaga, choynak-piyolani Gulandom yoniga qo'ydi.

- Ena, mehmondo'stlikni bugun do'ndirasiz,- keyin Gulandomga ko'z o'ynatdi boyvachcha,- nimalarni ko'nglingiz istaydi?

Gulandom "siz bilasiz" degan kabi, qoshi bilan chiroyli qilib imo qildi. Boyvachcha hozircha kabob, konKjyak, shirin vino buyurdi, kechgacha palov tayyorlashni iltimos qildi.

Gulandom kichkina choynakdan achchiq choyni ichi zarhalli piyolaga oz-oz quyib, nazokat bilan so'zlashib "shirin" o'tirish yasadi. Tantiboyvachcha shu vaqtgacha bazmini, suhbatini ko'rgan va hisobsiz pullarni sovurgan bir ko'p xotinlarni endi sekin-sekin unuta boshladi. Boyvachchaning ko'zida har bir xotin uning nafsi, hirs uchun yaratilgan chiroyli meva edn. Ularga nisbatan u har chog' qo'pol, har chog' xirpalovchi edi. Chunki u pul kuchi bilan qattiq mast edi. Mast uchun gulzor bilan sho'razor baravar, yanchib o'taveradi!

Lekin Gulandom bilan so'zlashgan sari, u ba'zi qo'pol harakatlardan, ablahona qiliqlardan o'zini tiyishga tirisha boshladi. Chunki Gulandom yolg'iz go'zalgina emas, balki aqlli va insoniy g'ururini hali jilla yo'qotmagan xotin kabi tuyuldi. Xo'jayin aytgancha "uzilmagan gul" bo'lmasa ham, ruhi, qalbi bu chirkin, bo'g'iq muhitda so'nmagan, to'zmagan ko'rinadi. Uning nozida, tabassumida, qiliqlarida, buzuq xotinlardagi kabi sun'iylik emas, qandaydir ilqlik va tozalik sezilar edi. Ko'zlaridagi noz-karashma o'rnida, ba'zan bir zumda chuqur bir qayg'u yonar edi. Bu hollarni Tantiboyvachcha chuqur anglamasa ham, g'ira-shira seza boshladi. Gulandomning ruhi, go'zalligi uni bir qadar o'z ta'siriga olgandan, u hozircha - loaqal ovqat va ichkilik kelguncha - u bilan odmiroq suhbat qilishni istadi. Gulandomni gapga solish uchun dedi:

- Jonim poshshaxon, qerliksiz, qanday shamol sizni bu yerga uchirdi? Biz o'sha shamolga qurbonmiz.

- Daftarni ochib nima qilasiz?- dedi yengil xo'rsinib Gulandom.

- Daftar uzunmi?... Chamasi shunaqaga o'xshaydi. Rostini aytсам, man shu vaqtgacha hech bir ayolning tag-tugini surishtirgan emasman. Mevani uzdik-ku, bog'bonini esga olmadik. Uzun bo'lsa qisqa qiling, shoxdan shoxga qo'ning,- mo'ylovini burab tikildi Tantiboyvachcha.

- Uzun emas-ku, lekin...- Bu yog'ini aytmadi xotin.

- Aftidan, ba'zi dog'-dug'i borgan o'xshaydi. Zarari yo'q, o'tgan ishga salavot, deb tinglaymiz-da. Olamning na'masiga quloq solsang, har xil narsa eshitasan. Qo'lni siltash kerak. Mening bir uloqchi otim bor edi. Endi otmisan, bay-bay! Yaqinda harom qotdi. Bir xumsa otimning dang'ini tushirdi deb, kechasi o'ldirib ketdi. Qattiq xafa bo'ldim. Ammo, hozir parvoyimga kelmaydi. Gulandom kinoyali kuldi. Bodom chaqib kavshangan boyvachchaga choy quyib, tutdi. So'ng, yerga qarab, sekin-sekin so'zlay boshladi.

- Tagimizni surishtirsangiz, namangonlikmiz. Dadam juda yuvosh, shirin so'z chol edi, bozorda kichkina do'koni bo'lib, ertalab ketib, kech qaytardi. Yoshi ulg'ayganda uylanganidan, bosh bolasi men edim, yana ikki singlim, Abdisalom degan bitta o'g'il ukam bor edi, yum-yumaloq, puxta-pishiq, tuyg'ungina bola edi. Hammamiz uni yaxshi ko'rardik. Dadam har kuni kechqurun har birimizga atab biron narsa olib kelar, hammamizni sevintirardi. Lekin, azalda taqdirimiz qora bitilgan ekanmi, tez kunda boshimizga og'ir kunlar tushdi. Dadam sindi, do'konchasini yig'ishtirib, uy ichiga qamalib oldi.

- Kishi sindimi - chetga chiqadi, singandan ko'ra o'lgan durust!bT”beparvolik bilan so'zlab qo'ydi Tantiboyvachcha.

- Sho'rlik dadam,- dasturxonning shokilasini himarib davom etdi Gulandom,- nima qilishni bilmadi. Mardikorlik qilay desa, kuchi kelmaydi. Yotib yeganga tog' chidamaydi. Haytovur, dadam yoshligida shohi to'qishni chala-chatti o'rganib olgan ekan. Uy asboblari birmunchasini sotdi-da, dastgoh qurdi. Ko'zoynakni taqib, ertalabdan to shomgacha, ba'zi vaqt kechalari ham to'qidi.

- Hamma kosib shunday bo'ladi, jonim! Kosibchilik umrning egovi,- choyni ho'plab-ho'plab, go'yo o'z-o'ziga aytganday gapirdi boyvachcha.

- Ammo,- davom etdi Gulandom,- bozor kasodligidanmi yo ishi yaxshi unmaganligidanmi, dadam to'quvchilikdan yalchimadi. Tirikchilik toshi benihoyat og'ir bo'lar ekan, Bizlarni zoriqtirmaslik uchun ayam tikish tika boshladi. Men u vaqtda o'n uch yashar edim. Har kun qo'shnimiz otin bibida qiyomgacha o'qib, keyin to kechgacha, ko'pincha, kechalari ham ayamning yoniga kirib tikish tikdim.

- O'qiganmisiz?bT”dedi uning so'zini kesib boyvachcha.

- O'qiganman. Navoiy, Fuzuliy ham o'tganman...- javob berdi Gulandom.

- Da, aylanay otinchadan!bT”ko'kragiga bir urdi boyvachcha.

- Ilgari nima kerak bo'lsa dadam bozordan keltiraverardi. Biz bilmas edik bahosi qancha, dadam pulni qaerdan oladi?... Tirikchilik boshimizga tushgandan keyin hammasini bila boshladik. Eng bemaza, eng arzon sho'rva-shultini qaynatish uchun igna bilan quduq qazish kerak bo'lar ekan. Xotinlarning mehnati ayniqsa qadsiz, suv tekin bo'lishni o'shanda bildim. Ona-bola jahdu jadal bilan tikamiz, har hafta atigi yarim so'm, uch tanga o'zimizga qoladi. Ro'zg'ordan shunday tanglik tortdikki, gapirsam, balki ishonmaysiz. Qish vaqtlarida dadam zax do'konda ishlagani uchun oyoq og'rig'i bo'lib qoldi. Uydagi eng kerakli asboblarni sotaverdi. U bironta asbobni - buyumni qo'ltiqib uydan chiqarkan, biz ona-bola ho'ng-ho'ng yig'lab qolardik. Narsaga emas, cholning ahvoliga achinar edik. Peshanam qursin, boyvachcha aka, g'am ustiga g'am ko'rdim. Men o'n beshga kirganda ayam o'ldi. Hali qirqqa bormagandi. Yosh ketdi. (Gulandom bir nafas to'xtab, bir "uh" tortdi. Ko'zining chuqurligidan kelgan tomchilarni artib yana sekin so'zlay boshladi.) Ayam o'lgandan keyin ahvolimiz yana og'irlashdi. Uning ma'rakalarini o'tkazish uchun uyimizni qoqladik, qarzga botdik. Men ukalarimni yuvib-tarab, kechqurun bir qoshiq obi yovg'on qaynatib, bolalarning yetimligini bildirmaslikka urindim. Borni tejab, yo'qni yo'ndirib, dam och, dam chala qursoq bo'lib yashadik. Ukalarimni, dadamni sevganimdan, har qanday og'irlikni orqaga tashladim. Bolalarni quvontirishdan boshqani o'ylamadim. Yoshim o'n oltiga rosa to'lgani yo'q ediki, bir paxtachi boydan xotin ustiga sovchi chiqdi, yoshi ellikdan oshgan ekan, o'g'il-qizlari ko'p, lekin pul quturtirib, yosh qizga uylanishni orzu qilgan. Hozir hamma yerda puldorlar shunday qilishadi. Boshqalar osh-nonga zor bo'lsa, ular qizga zor! Yoshi ham, qarisi ham.

- Boylar tekinga olmaydi, pul xarjlaydi, jonim,- G'ulduradi boyvachcha. Gulandom bir oz sukutdan so'ng davom etdi:

- Dadamning yor-og'aynilari, qo'shnilarimiz buni ma'qul ko'rishadi, bechora cholning boshini aylantirishadi, shu bahona bilan belingni bir oz ko'tarib olasan, degan ma'noni ochiq aytmalar ham, imo bilan bildirishadi. Dadam bir kun kechqurun ovqatdan keyin, o'zining qariligidan, kambag'alligidan gapirdi, ancha vaqt boshini egib xomush o'tirdi. Keyin ko'z tirikligida meni uzatmoqchi bo'lganini, haligi Tolibjonboyga xotin ustiga berishga ilojsizlikdan, rozi bo'lganini uch-to'rt og'iz so'z bilan bildirdi. Men, ixtiyor sizda, kimni ma'qul ko'rsangiz, roziman dedim. Dadam ho'ngrab yig'lab yubordi. O'rnidan turib, nafasini tuta olmay, bukchayib eshikka chiqdi. Farzand o'g'ilmi, qizmi baribir ota-onaning yuragi bo'lar ekan. Chol bechora o'sha kunlari xafalikdan cho'pday qotib ketdi. Dastlab, men ham xafa bo'ldim. Keyincha dadamning ahvolini o'ylab, aql tarozisi bilan tortib ko'rib, taqdirga rozi bo'ddim. Tolibjonboyning kekxa kishi ekanini, bolalari ko'pligini qo'shni xotinlardan eshitganimda ichim achisa ham, shunday dedim: bu savdo yolg'iz mening boshimda emas, yurtda qancha qizlar sotilib-sovrilib ketayotipti, dadam maxallaning kekxa kambag'ali-ku, tuppata-tuzuk odamlarning qizlari ham pul uchun ikkinchi emas, uchinchi xotin bo'lib uzatiladilar... Uh, menda ham oruzlar, havaslar bor edi. O'zimga munosib yigitga tegib, bechorachilik bilan bo'lsa ham, tinch, ko'ngil bilan umr kechirishni istar edim. Keksa kishiga, yana kundosh ustiga tushishni xayol qilganmidim? Lekin, vaqti kelganda, ko'ndim, ukalarim tinch, to'q yashasin dedim.

- Ha, buni yaxshi qilgansiz, aylanay sizdan, do'ndiqcham!- Tantiboyvachcha xotinga yana yaqinroq suqilib, uning deraza yuqorisidan tushgan oftobda qora olov kabi yongan sochlarini silab qo'ydi.

- To'y katta bo'lmadi,- davom etdi Gulandom,- ham juda sovuq to'y bo'ldi. Lekin dadam besh yuz so'm naqd pul oldi. To'yimdan ikki hafta o'tar-o'tmas bir, kampirga uylandi. Ukalarimning kir-chirini yuvib, bag'rida olib o'tirsin, deb bu ishga men o'zim bosh qo'shdim.

- Boy akamiz qanday ekanlar? Oti Tolibjonboy dedingizmi? Men tanimas ekanman-da. Farg'ona boylaridan ko'pini taniyman. Oralarida qalin og'aynilarim bor. Lekin shu zamonda boylar ko'paydi. Hammasini bilish qiyin,bT”dedi Tantiboyvachcha.

- To'g'ri, boylar ko'paydi. Ammo, kambag'allar, gadoylar-chi? Ularning son-sanog'i yo'q. Qayoqqa qarasang kambag'al, bekorchi, nonga zor odamlarni ko'rsan,bT”Gulandom choydan bir ho'plab, yana o'z hikoyasini boshladi.bT”Men - O'n oltiga rosa to'lmagan qiz, birdan yot va katta oilaga tushib qoldim. Tolibjonboyning besh o'g'li, uch qizi bor ekan. Ikki o'g'li uylangan, bir qizi erga tekkan, nabiralari ham bor... Kundoshim badjahl, shang'i xotin ekan. Uch kun o'tmay, boshimda tosh chaqishga boshladi. Har bir ish uning buyrug'i bilan bo'ladi, hech nimaga meni biylatmaydi. Boy ertalab ketib, kech qaytadi. Uydagi sinoatni yaxshi

bilmaydi. Urish-janjal ko'paymasii, deb butun dardimni ichimga yutaman. Bir kundosh zulmi emas, bir qarich boladan to kattalarigacha hammalari menga dushman. Nihoyat, dardim yuragimdan to'lib-toshib, ba'zi gaplarni erimga ayta boshladim. Boy nima dedi? Kuladi qo'yadi. Sen yaxshi bo'l, o'zlari insof qilishar, dedi. Shu tariqa bir yil qadar azobda yashadim, o'rtada boy ham o'lib qoldi. Kechasi bir ziyofatdan qaytib laxta-laxta qon qusdi, azonga yaqin jon berdi. Bilmadim, birov zaharlaganmi, haytovur, vaqti-soati yetgan ekan. Boyning ma'rakasi o'tmasdanoq kundoshim ham o'g'illari, qizlari uydan quva boshladi meni. Qo'ni-qo'shnilarimiz, meros olmaguncha hech qayoqqa ketma, deb maslahat berishdi. Hammasi, merosingni ol, boyda yer ko'p edi, pul ko'p edi, deyishadi. Qanday olaman, buni o'rgatgudek odam yo'q. Mahkamani bilmasam, qozixonani bilmasam, qaerga boraman? Dadam yuvosh odam bo'lganidan, bunday g'avg'olardan har vaqt qochar edi. Boyning o'g'illari bir tan bo'lib, menga kaftday yer, bir tiyin pul bermaslikni ochiqcha aytishdi, menga allaqanday qog'ozlar ko'rsatishdi. Kuching yetsa, mana shu vasiqalarni yanchib o't, deb o'dag'aylashdi...

- Bo'shang ekansiz-da, Ё Ё "Tantiboyvachcha uning so'zini kesdi, Ё Ё "manjalaqilik qilib, dodlamadingizmi, yuzlarini yulib timdalamadingizmi? Pul ustida har qanday janjal ko'tarsangiz ayb bo'lmaydi. Pul shunday aziz narsa!

Gulandom qayg'u aralash kuldi va "shoshmang!" deb so'zini davom ettirdi:

- Manga ham bir mehribon topilib qoldi. Boyning gumashtalaridan Oqiljon degan biri meni himoya qildi. U bir kun qo'shninikiga meni chaqirib olib, hamma ishni unga topshirishimni so'radi. Men eshik orqasida turib gapirdim, yalindim, nomimdan da'vo qilishni topshirdim. Oqiljon gazet o'qiydigan, zakunchi odam ekan. Boyning o'g'illari bilan bir qancha oy talashib-tortishdi. Nihoyat, boyning o'g'illari qozilarga, katta-kon to'ralarga porani ko'proq berib, yer-suvdan tamom mahrum qilishipti, menga olti ming so'm pul berishga rozi bo'lishipti. Oqiljon menga to'rt ming so'm pul berdi, ikki ming so'm qozilar, amaldorlarning qorniga ketdi, dedi. Shunga ham juda sevindim. To'rt ming so'm oz pulmi! Shu o'rtada Oqiljon uylanish uchun menga sovchi kirgizdi, dadamga ham o'rtoqlarini yubordi. Pulingizni ishlataman, yer-suv qilaman, siz boyvuchcha xotin bo'lib davri-davron surasiz. Ukalarimiz o'z bag'ringizda bo'ladi, deb boshimni aynitdi. O'zi yaxshigina, siz tengi kishi edi, ham meni himoya qildi. Shuning uchun rozi bo'ldim. U qo'limdan pulni oldi. Ish taraqlab, pul ko'paygandan keyin, birvarakay ichqi-tashqi dang'illama imorat saloman, dedi-da, yomongina bir hovlini ijaraga oldi. O'zi savdogarchilikka kirishdi. Yaxshi gapirdi, siladi-siypadi. Shunday qilib uch oy o'tdi. Bir kun, u, Buxoroga jo'nayman, deb qoldi, ana unday mol keltirib, mana munchaga sotaman, falon-piston, deb hovliqdi. Yo'l uchun darrov patir non yoptirdi. Boy erimnikidan gilam va boshqa asboblarni olib chiqqan edim. Dastmoya mo'l bo'lsin, deb ularni ham sotdi, bir duxoba kamzulimni Buxoroda sotish uchun oldi. Yolg'iz qolma deb allaqaydan bir kampirni topib keldi. Xo'shlashib, o'zi jo'nadi-ketdi... Oqiljon o'n besh kunda qaytmoqchi edi. Bir oy o'tdi - yo'q, ikki oy o'tdi - yo'q. Na xat bor, na xabar! Savdoga qiziqib qolgandir, deb o'yladim, xudodan unga oq yul tilab o'tirardim. Pul tashlab ketmagani uchun, qaquir-ququrni sotib xarjladim. Besh oy o'tganda juda tashvishlandim. Uni, albatta, bir vaqt o'ldirib, pulini oldi dedim. To'leim qursin, deb yondim, kuydim. Folbinlarga bordim, aziz-avliyolarga nazir atadim. Oqiljondan dom-daraq yo'q. Sakkiz-to'qqiz oyda Oqiljondan bir xat keldi. Savdogarlardan oldin xat keladi, keyin o'zlari kelishadi, dedim-da, sevinib, xatni ochdim. O'sha paytda yerga yiqilayozdim...

- Xatda nima deпти zakunchi Oqiljon? Ё Ё "qiziqish bilan so'radi Tantiboyvachcha.

- U g'irt muttaham ekan, Ё Ё "javob berdi Gulandom,- aytiptiki, men bola-chaqali odam, yanglishib, yo'ldan ozib sizga uylangan ekanman: niqohimdan chiqdingiz, meni kutmang, shunga o'xshash gaplarni yozipti uying kuygur.

- Obbo qiztaloq shaytonning domlasi ekan-a! Zakunchilarning ko'pi shunaqa bo'ladi, bilaman,- dedi Tantiboyvachcha papirosini tutatib.

- Boyvachcha aka, dunyoda shunday mo'ltoni, tulki odamlar bo'lar ekan, qaysi yurtda, qay shaharda ekanini yozmapti. Qaerga boraman? Yonimda kimim bor Kunlarcha, haftalarcha qarg'adim. Endi sutishga hech narsam qolmagan edi. Yana tikish tikdim. Bu o'rtada dadam qazo qildi. Ukalarimni uzoq yaqin qarindoshdaramiz olib ketishdi...

Men bilan yashaydigan kampir bozorchi xotin edi. Bir kun bozordan qaytib, menga kuyov topganligini so'zladi. Bir mirza yigit topdim, toleing endi ochiladi, deb vaysadi. Erga tegish xayolimda ham yo'q edi. Chunki erkaklardan yaxshilik chiqmasligini bilgan edim. Lekin ota-onadan ayrilib, ukalarimdan uzoq qolganim uchun yuragim dilgir edi. Haligi kampir yonimdan ketib qolsa, tanho yasholmas edim. Ustimda bitta chit ko'ylakdan boshqa narsa qolmagandi. Shunday bo'lsa ham ko'nmadim. Ammo kampir o'lgur mirza yigitni maqtayverdi. Bir kun u mendan byoso'roq, haligi yigitni hovliga boshlab keldi, tamosha qil, tagli-taxtli odamning bolasi, dedi. Hovlida kulib, turgan yigitga eshik tirqishidan qaradim. U yosh, kelishgan yigit ekan, boshida yangi tagdo'zi do'ppi, ustida oq shohi kamzul, beqasam to'n... Ukalarimni boqsa tegaman, dedim kampirga. Kampir u bilan so'zlashib, keyin rozi ekanini bildirdi. Ertasi kun yana keldi, kampirga, menga bir quchoq kiyim, har xil meva-cheva keltirdi. Endi undan qochmadim. U nikoh o'qitmadi. Toshkentga borib, ota-onalarining oldida to'yni qilmoqchi ekanini so'zladi, bir hafta, o'n kun ichida yana qaytamiz, deb yalindi. Toshkentga borib, mirza yigitning ota-onalarini, uy-joylarini ko'rish qiziq ko'rindi shekilli, rozi bo'ldim. Toshkentga keldik. Meni izvoshga o'tqazib, to'ppa-to'g'ri nomer degan joyga olib keldi, kichkina bir uy ichiga tiqdi. To'y qani, nikoh qani, otasi-onasi qani, uyi qaerda? Ё Ё "hammasi yolg'on ekan. Mirza yigitim o'lgur ashaddiy shaloq, buzuq yigit ekan. Hammasini keyin bildim, ko'zim ochildi, befoyda?... Yo'l-yo'riq bilmasam, bu yerda biron tanishim bo'lmasa, dodimni kim tinglaydi? U meni sallalikka ham, shapkalikka ham ro'baro' qilishga urindi. Bora-bora shu yerga keltirib, o'zi g'oyib bo'ldi. Yana menga o'xshash bir sho'rlikni, bir g'arib benavoni qidirib ketdi shekilli...

- Shu yerning odami u. Har shahardan do'ndiqlarni ovlaydi. Qo'lga tushgansiz. Taqdirda yozilganni ko'raverasiz. Xafa bo'lmang, jonim?- yupatishga tirishdi Tantiboyvachcha.

- Xudo meni yer yuzida eng badbaxt qilib yaratgan ekan. Bu iflos yerga tushirgandan ko'ra, jonimni olgani yaxshi edi. Buzildim, odamgarchiligim qolmadi, suratim odam, boyvachcha aka, mendan hayvon yaxshi...- Gulandom boshini quyi solib, qo'li bilan ko'zlarini yashirdi.

- Xafa bo'lmang,- Gulandomning qo'lini tortib, dedi Tantiboyvachcha,- O'z shahringizga ham qaytib qolarsiz. Sizga maslahatim shuki, siz odamini toping, ishrat qiling. Siz endi meniki, qo'ldan chiqarmayman...

- Baribir emasmi? Siz ham yot erkak. Siz mendan nima kutasiz, ma'lum; bu yerdan qochsam tuzalardim, balki,- Gulandom yuragidagi dard mavjini quygan kabi og'ir xo'rsindi.

- Men sizning qadringizga yetaman. Yana bir necha ulug'vor do'stlarim bor. Keyinroq ular bilan tanishtiraman. Siz bizni xursand qiling, xo'jayinga bildirmasdan pul yig'ing. Ana unda ura qochasiz. Sizni yolg'iz pul qutqaradi, tushundingizmi?

- Pulni sizlardan xo'jayin yulib oladi-ku. Shu vaqt kampir ovqat va ichimliklar keltirdi va Gulandomdagi noxushlikni sezib dedi:

- Xursandchilikni qo'ldan bermanglar. Gulandomxon, hali senga nima degan edim? Boyvachcha akangni mast qil, xursand qil,

gulim,- kampir chiqib ketdi.

Tantiboyvachaning iltimosi bilan Gulandom yarim stakan vino ichdi. Yuzlarida nim rang qizillik yondi. Boyvachcha ovqat yeb, ustma-ust ichib, hislarini quya boshladi. Qo'llari Gulandomning ko'kraklarida izg'ib qoldi...

Gulandom bunday turmushga nafrat qilar, bu iflos doiradan, fahsh uyasidan qutulishni istar, ukalarini sog'inar, ularni o'z bag'riga olib, har qanday mashaqqatlarga chidab, tiriklik toshini o'z qo'li bilan aylantirishni orzu etar, lekin, mirza yigitga aldanib, Toshketga kelganidan buyon u butun nafratiga qaramay, fahshning mast qiluvchi dudiga istar-istamas, ko'proq qayg'udan, alamzadalikdan o'rgana boshlagan edi. Hasratini dutor va qo'shiq bilan eritishga tirishar edi. Erkak bilan sirli suhbatlar yasaganda ichkilikdan, nozi-ishvadan dastlab o'zini tiyishga harakat qilsa-da, lekin ko'pincha bunga erisha olmas edi. "Mehmon"ning ko'ngli uchun ozgina ichgach, keyin vinoning unuttiruvchi, yupattiruvchi ta'siriga aldanib, ancha-muncha ichib qo'yganini o'zi bilmay qolar edi.

Bugun ham shunday bo'ldi. Tantiboyvachcha yarim stakanni qistab ichirgandan so'ng, o'zi sekin-sekin yarim shishaga yetkazdi.

Yuzlari yondi, ko'zlari mast porloqlik bilan suzildi.

Tantiboyvachcha anchagina mast bo'lib, og'zig'a kelganini valdirashga boshladi. Har munosabat bilan o'zini maqtadi. Gulandomga suykaldi, uning atlas ko'ylagi ostida bolqib turgan ko'kragini o'ynadi. Keraksiz bo'lsa ham, tantilik uchun har xil ovqatlar, ichimliklar buyurdi.

- A, o'rgulsin,- Tantiboyvachcha qoziqdagi dutorni ko'rsatdi,- chaling, bir shingil ashula qiling.

Gulandom dutorni olib sozlarkan, dedi:

- Dutor bo'lmasa, bu zindonda yuragim yorilib o'lar edim. Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir qo'shni kelinchakdan o'rgangan edim. Ko'p chala berma, buzilib ketasan, derdi onam boyoqish, aytgani keldi... Lekin ayb dutorda emas!..

Atlas ko'ylakning keng yengini tirsakka qadar shimarib, ilon boshli oltin bilaguzuk chirmashgan to'la, go'zal bilaklarini ochib dutorni chertdi. Uning barmoqlari dutor qillarida mohir o'ynadi. U erkakcha - shahd bilan chaldi. Qillar qandaydir chuqur mung bilan yangradi. "Rohat"ni eshitib Tantiboyvachcha: "Ezib yubordingiz, jonidan!" ЁЎ"qichqirdi va bangi kabi bir "do'st" tortdi.

- Yana nimani?- tabassum bilan so'radi Gulandom.

- Men, to'g'risini aytсам, maqomlarni bilmayman,- G'uldირab gapirdi Tanti.- Bilsam nomlaridan adashaman. Chalavering, nimani chertsangiz, o'sha bizga yoqadi. Bir shingil ashula ham qo'shing!

Gulandom o'ylamasdanoq, dutorni chertib, yengil, sho'x ashulani boshladi. Uning ovozi mayin, toza ovoz edi. Ashulani bitirib, dutorni devorga suwab qo'ydi.

- Qornim to'ygani uchun yaxshi ayto'lmadim,- kuldi Gulandom.

- Nima dedingiz? Qorin och bo'lishi kerakmi!- hayron bo'lib so'radi Tantiboyvachcha.

- Bilmadim, men bir vaqtlar uyda, qarindoshlarimiz orasida ashula aytgan edim.- Gulandomning ko'zlari bir onda dard bilan suzildi, vinodan bir qultum yutib, davom etdi. ЁЎ" Dadam keldi: "Bolam, qorning to'q ekan, ovozing xira chiqdi", dedi. Biz tushunmadik. Keyin o'sha narsani hikoya qilib berdi, hali ham yodimda. Bir zamonda,- dedi dadam,- Aflotun degan bir hakim o'tgan ekan. U hech tinmasdan fikr qilar ekan. Lekin fikr qilganda, soqolini bitta-bitta yulib olaverar ekan. Qo'lini band qilish uchun bir nima o'ylab chiqarishga urinpti. Axir bir tanbur yasabdi. Tanburi jaranglamabdi. Hayron bo'lib o'tirgan ekan, ko'chadan hali baland ovoz bilan ashula aytib o'tgan yigitlar, yana ashula bilan qaytishibdi. Lekin, yigitlarning ovozi endi juda sust, bo'g'i'q eshitilibdi. Aflotun yugurib eshikka chiqibdi, yigitlarni to'htatib so'rabdi:

- Bolalarim debdi, hali ovozlaring juda baland, yangroq edi, endi nimaga sust bo'lib qoldi? ЁЎ"yigitlar kulib shunday javob berishibdi: "Hali qornimiz och edi. Ziyofatga borib, ko'p yedik, ko'p ichdik. Qornimiz to'yib, ovozimiz pasaydi". Aflotun darrov uyga kiribdi, tanburga qarab, qorning to'q ekan, debdi-da, tanburning ichini kavlabdi. Ana shundan keyin tanbur jaranglab chalinibdi. Aflotun tanburni chalib, soqolini yulmasdan, fikrga sho'ng'ibdi... Qalay? Dadam bunday gaplarni juda ko'p bilar edi, bizlarni hech zeriktirmasdi...

- Qiziq ertak ekan otincha, endi sira zerikmaydigan bo'ldim. Qani, o'sha Aflotun hakimning sog'lig'iga ichaylik!- Tantiboyvachcha kula-kula stakanni ko'tardi.

- O'lganlarning sog'lig'iga ichadilarmi?- kuldi Gulandom.

- Xo'p, ishqilib jannatda soqolini yulmasin... yana xonish qiling...

* * *

Kechasi Tantiboyvachcha izvosh kira qilish uchun ko'chaga chiqdi. Darvozadan bir oz narida turgan baland bo'ydi, gavdali odamga tikildi, izvosh fonarining xira yorug'ida tanish yuzni uchratdi.

- Yo'lchiboy? Nima qilib turibsan, Salim shu yerdami?

- Ikki soat bo'ldi, anov eshikka kirib ketgan edi,- dedi Yo'lchi.

- Hozir soat o'n bir. Tez chiqmaydi. Meni eltib qo'y. Shoshma!

Yo'lchi so'zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong'ida yo'qoldi. Bir ozdan keyin paranjiga o'ralgan xotin bilan birga keldi, shoshib-pishib izvoshga o'tirishdi. Yo'lchi, Salimga xabar bermadik, deb e'tiroz qildi. Tantiboyvachcha qo'lini sekin silkdi.

- Qo'yaver, xo'jayin - men. Chol qulamay turibdi. Qulagan kun ularning yoqasyni bo'g'aman, merosimni da'vo qilaman! Man kim, hayda...

Chorsuga yaqinlashganda, Tantiboyvachcha chap tomondagi kichkina ko'chani ko'rsatdi. Izvosh to'xtarkan, boyvachcha oldin xotinni tushirdi, oyog'i ostidan bir o'ris savatini olib Yo'lchiga tutdi: "Olib kir!"

Boyvachcha kavakchadan cho'p tiqib zanjirni tushirdi, kattagina og'ir darvoza "g'urr" etib ochildi. Qop-qorong'i, uzun yo'lakdan o'tib, tashqari hovliga chiqildi. Boyvachcha bir uyni ochib, chiroq yoqdi. Yo'lchi savatni deraza ostiga qo'ydi. Undagi shishalar chiroqda yarqirardi. Tantiboyvachcha ko'rpachaga bemalol o'tirib, do'ppisini bir chekkaga otdi. Dahliz tomonga qarab qichqirdi:

- Kiravering, jonim!

Atlas ko'ylak, ipak durrachasi, ko'rkam sochlari bilan yonib-yashnab Gulandom kirdi. Ko'zlarini chiroyli suzib eski kiyimda, lekin kuchli, mag'rur, kelishgan Yo'lchiga tikildi va boyvachchaga qarab dedi:

- Akam sodda dehqon yigitga o'xshaydi. Sodda bo'lgani yaxshi. Negaki, shumlarning qo'lga tushib, ne balolarga giriftor bo'ldim.

Nihoyat, mana bu yerga ham keldim.

- Yomon yerga keldingizmi? Qarang...- Tantiboyvachcha mehmonxonaning jihoziga ishorat qildi.

- Hammasi joyida!- Mehmonxonaga ko'z yugurtib dedi Gulandom,- hayronman, shu qadar bosh bilan shuncha narsani

16 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

yig'dingizmi?bʔbʔGulandom kinoya bilan kuldi, Yo'lchi ham beixtiyor kulib yubordi. Tantiboyvachcha Gulandomning so'zini hazil deb o'ylagan bo'lsa kerak, ahmoqcha tirjaydi qoldi.

Gulandom gugurti tokchadan olib, boyvachchaga imo qildi-da, eshikka chiqdi.

- Qarshida...- xotinning orqasidan qichqirdi Tantibayvachcha. So'ng Yo'lchiga qarab:- Shoshma, ketarsan. Shishani ol, ichamiz.

Ha, Salim, Hakimlarning jag'ini ezaman, uka. Lekin chol hali baquvvat, iligi sog'. Bir kun ko'zini yumar axir. Xotiningga tegadigan merosdan mani quruq qilishga urinishadi ular. Lekin bo'sh kelmayman!

- Eldan burun g'ovg'a ko'tarib nima qilasiz? Xo'p, man ketdim,- Yo'lchi eshikka burildi.

bʔbʔShoshma, ichsang-chi bir piyola? yo'qmi! Bo'lmasa mana buni ol.- Boyvachcha kissasidan bir so'lkavoy olib gilamga tashladi.

- Rahmat, Mirishoq aka, olmayman,- to'ngroq javob berdi Yo'lchi.

- Bu yoqqa qara, tentak! Kambag'al bo'lsang ham o'lgudek odmisan, balandda yurasan, bilaman. Bu fe'lingni tashla, uka! Man sanga ikki og'iz gapiray: birinchidan, pulning qadrini bil, lo'lining eshagini sug'or, pulini ol. Sanga yarashadi, negaki, kambag'alsan. Shunday qilib pul topmasang sira odam bo'lmayсан. Bu zamonda farishtaga ham pul kerak. Ikkinchidan, puldorlarga egil! Atrofdagi odamlar bari puldor odamlar, mana tog'ang, Hakim, Salim, men, yana qancha boylar bor! Ularga egilsang, boshingni silaydilar. Sani ko'p sinadim, san unday emassan. Tashla bu qiliqni! Pulni ol!...- Qizil gilam ustida yarqirab yotgan kumushga ishorat qildi.

Yo'lchi Tantiboyvachcha tomon bir qadam yurdi. Lablari titrasa-da, o'zini sovuqqonlikka solib so'zlashga tirishdn:

- Balli bu nasihatga! Yigitning yuragi, nomusi, odamgarchiligi puldan aziz, puldan yuqori emasmi? Puldorlarga egilish pastkashlik emasmi? Egiluvchi bilan tilanchi orasida nima farq bor? Oz bo'lsa ham peshana terim bilan topaman, suqtoylik, mo'ltonilikka sira yurmayman! Egilsam boshimni silaysizlarmi? Yo'q, tek turay, boshimga tayoq bilan uringlar, ha, shu yaxshi!

Tantiboyvachcha bir piyola vinoni simirib, labini burishtirdi-da, Yo'lchiga qarab, "afsus!" deganday kallasinn qimirlatdi.

- Haligi jononni ko'rdingmi?- hovli tomonga qarab qo'yib gapirdi Tantiboyvachcha.- Bugun bazm... Ko'ngilga tegdimi, yana o'z joyiga eltib qo'yamiz. Yana boshqasi, mundan sozrog'ini qo'lga ilamiz. Gap pulda. Shu jonon ham bir musulmonnnng qizi. Aslini surishtirsang, ota-onasining quchog'idan uni pul kuchi surgab chiqqan! San hali yoshlik qilasan. Yigitlik emish. Bu qanday puchak so'z!

- Manimcha,- O'ylanib gapirdi Yo'lchi,- ayb yolg'iz pulda emas. Ayb odamlarda, to'g'risi, puldor akalarda. Pulga suyanib har bir noma'qulchilikni qiladilar. Pulning kuchidan boshqacha foydalanishga yo'l yo'qmi? Mana, bir musulmon qiziga qilgan yaxshiliklaring?...bʔbʔYo'lchi keskin harakat bilan qayrilib, tashqariga otildi.

Jimjit, qorong'i ko'chalardan otni qattiq haydab ketdi. Hushtak, shaqildoq chalgan tanho qorovul ko'lkalari unda-bunda uchrab qolar edi. Yo'lchi Gulnorni ko'z oldiga keltirdi. Mast, ablah Tantiboyvachchaga yana qattiqroq gapirmaganiga afsuslandi.

Salimboyvachcha ham bir kambag'al qizni quchoqlab, hozir ishrat qiladi. Uning gandraklab chiqishini kut, qachon chiqadi?

Bugun uyqu yo'q. Ertalab dalaga jo'naydi. Butun kun yer haydaydi!

O'rdadan o'tganda daraxtlarni, uylarni xira nur yoritdi: yengil bulutlar orasidan oyning bir parcha kumushi ko'rinish qoldi...

Yettinchi bob

I

Nurnning hovlisidagi gilolar gullagan. Ularning oppoq ko'rkam gullari quyosh nurida juda nafis tovlanar, sonsiz arilar va bahor qo'ng'izlari gullar orasida uchishib, ajib musiyqa tarqatardi. Gullar hidiga to'lgan iliq, mast qiluvchi havo... Laylak kelganiga ancha vaqt bo'lgan esa-da, allaqaydan tomida o'ynagan bolalarning ovozlari eshitilar edi.

Laylak keldi, yoz bo'ldi,

Qanoti qog'oz bo'ldi...

Nuri gilolar ostiga qo'yilgan, panjaralari ko'k bo'yoq bilan sirlangan katta yog'och karavotga qalin ko'rpacha yoyib, yostiqqa yonboshlab o'tirar edi. Qarshisida, Nuridan o'n qadam narida Gulnor, dam sekingina qo'shiq aytib, dam Nuri bilan u-bu to'g'risida gaplashib, kir yuvar edi. U, bukun shod, bahor uning nash'asiga nash'a, go'zalligiga go'zallik qo'shgan!.. Yenglari shimirilgan, tiqmachoqday oq bilaklar quyosh nurida kumushlanar, sochlari quyuq, kipriklari mayin yonar edi.

Nurining qaynanasi goh-goh kelib, Gulnorga boqishar va uni maqtar edi.

- Qop-qop oltin-kumush to'kib olsa azriydigan qizsan. Ilohim baxtli bo'!! Onangga, otangga rahmat, senga ish o'rgatishipti...

Qaynananing so'zlarini o'ziga piching deb bilgan Nuri, labini burib, achchiqlanib dedi:

- Oltin-kumush qursinki, hammaning oyog'iga to'kilaversa... tuproqmi?!

- Voy, Nuriniso,- qoshlarini ma'nodor chimirib javob berar edi qaynana,- eshitmaganmisiz, qadimgilardan qolgan bir gap bor: qizga oltin taxt emas, barmoqday baxt tila... Ajab emas, baxti ochilib, Gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa... Ha, bu oltin-kumush emasmi!

- Quda xola, undaq maqtayvermang mani. Ishdan aynib qolaman. Manday xizmatkor, kambag'alning qiziga yarasha bir kambag'al topilib qolar. O'zi yaxshi bo'lsa, aqli bo'lsa - bas.- Kulib der edi Gulnor.

Nurining hech qanday so'zga, ishga tobi yo'q edi. U o'z rejasini yuzaga chiqara olmagani uchun, dam g'azablanar, umidsizlanar, dam yana yangi hiylalar to'qishga urinar edi. Yo'lchini yodlarkan, uning yuragida endi g'azab qo'zg'alar edi. Otasining ostonasida yurgan bir kambag'al malay yigit uni nazar-pisand qilmasin, uning yalinishlarini, va'dalarini tinglamasin! Kim u? Nega muncha noz qiladi, kekkayadi? "Man qizlik vaqtimda u xavflandi, mandan qochishga intildi. Bu narsa yaxshi bo'ldi. Man unga, albatta, tegmasdim. Sho'xlikka berilib, o'zimni behuda sharmanda qilgan bo'lar edim. Lekin endi nimaga qochadi? Nimadan, kimdan qo'rqadi? Yo'q, bunda bir sir bor. Man bu ishni, albatta, ochaman!"bʔbʔdeb o'ylar edi Nuri.

Hozir u qaynanasining haligi gaplariga chidamasdan o'rnidan turdi. Hovlida g'ivillab yumush qilgan qaynananing ko'zida, jo'rttaga boshini baland ko'tarib, qo'llarini belga tirab, xuddi mehmonga kelgan takabbur kelin qabi, yalqovlanib kezdi, gilolarini tomosha qildi. U shu bilan qaynanasiga "Chidasang - shu, chidamasang - katta ko'cha. Onam meni ish uchun tuqqan emas. San mani kim bilan tenglashtirasan? Gulnor boshqa, men boshqa!" demoqchi bo'ldi. Katta hovlini, giloszorni aylanib, Gulnorning yonida to'xtadi.

- Charchadingmi?bʔbʔdedi dimog' bilan.

- Yo'q. Bundan ko'proq kirlarni yuvaman-ku.

- Pochchang kelsa...

- Qachon qaytadilar?

- Allaqachon qaytishi kerak edi. Bilmadim, qachon keladi. Pochchang kelsa, bir "oqsoch" ham bir erkak xizmatkor yollataman.

- Ayniqsa "oqsoch" kerak sizga.

Nuri bir qo'li bilan daraxt shoxini ushlab, Gulnorga yuqoridan tikilib turdi-da, jiddiyat bilan dedi:

- Xizmatkorlikka Yo'lchiboyini so'ramoqchiman. U sinalgan odam, san nima deysan?

Gulnor bir zum boshini ko'tarib, Nuriga qaradi, yana quyi soldi. Hech nima demadi. Lekin, Gulnor qaragan vaqtda uning ko'zlaridagi ma'noni Nuri payqagan edi. U istehzo bilan iljaydi, sinovchi ko'zlari bilan qizga uzoq tikilib turdi. Gulnorning rangi o'chgan, lablari titroq. Gulnordagi bu o'zgarish uni qiziqitirdi. Qizning yuragidagi sirlarini butunlay oshkora qilishni istadi:

- Nega indamaysan? Yo'lchiboy biznikiga kelsa, yomon bo'ladimi? U o'z qarindoshim. Pochchangdan ko'p-ko'p pul olib beraman unga. Ammam boyoqish eshitsa xursand bo'ladi. Yo'lchini, albatta keltiraman. O'zi ham qanot qoqib kelar...

Gulnor titroq lablari bilan bazo'rgina: "Yaxshi... ammangizni sevintiring, man nima?" ЁЎ dedi-da, kir yoyishni bahona qilib uzoqlashdi. Nuri ma'noli kulib, boshini tebratib, uning orqasidan qarab qoldi...

Kechqurun Gulnor o'z uyiga qaytarkan, yo'l-yo'lakay hasratda yonib, qorong'i xayollarga chulg'ondi. Parishonlikdan bir necha yerda qoqilib o'tkinchilarga o'zini urib oldi. Yo'lchi to'g'risida Nurining so'zlarini eshitgan hamon, olam uning ko'ziga qorongilandi. Chunki u Nurini bilar edi, ko'ngliga kelgan har bir orzuni vujudga chiqara bilishiga chuqur ishonar edi. Yo'lda ketarkan, unda turli o'y va xayollar bilan birga shunday shubha tug'ildi. "Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi? Xizmatkorlarni eri topsin. Yo'lchidan boshqa yo'qmi? Nima uchun Nuri qishloqda unutilgan ammaga va uning o'g'liga bunday mehribon bo'lib qoldi? Bunda tag'in bir sir bo'lmasin... Nuri qizlikda qanday yengil edi? Og'zidan hech bir qizga yarashmaydigan so'zlar chiqar, yigitlarga hazillashishni, tegajaklikni yaxshi ko'rar edi..."

Agar Yo'lchi Nurining uyiga ketib qolsa, u vaqt nima qiladi? Bu savolga sira javob berolmas, yolg'iz yuragi yonar edi. Yo'lchi abadiy g'oyib bo'lgan, uzoq yurtga ketgan kabi tuyular edi.

Qiz horg'in, parishon holda uyiga yetdi. Onasi ertaga barvaqt boqqa ko'chishga to'g'ri kelgani uchun tezroq yotib tinchish kerakligini aytdi. Gulnor bu xabarni juda sovuq qarshi oldi.

Yormatning oilasi har yil xo'jayinlardan bir-ikki oy ilgari ko'char, xo'jayinlar ko'chib borguncha bog'ning hamma ishini saranjom qilib qo'yar edi. Dadasi, onasi bilan Gulnor ham erta-kech ishlashar edi.

Xuftonga yaqin Yormat kelib, o'zi ertaga boshqa ish bilan band bo'lgani uchun, ko'chni Yo'lchi olib borishini, o'zi esa kechqurun borishini so'zlagach, Guliorning ko'nglini qoplagan hasrat dudi tarala boshladi... O'rniga yotganda tezroq tong otishini kutib, horg'inligiga qaramay, uyqusi o'chdi...

Arava dala yo'lida. Yormatning qaqir-ququri oz bo'lgani uchun, aravaning oldingi qismida Gulnor va onasi bemalol joylashgan edi. Sevikli qizni olib borayotgani uchun quvongan Yo'lchi otni ildam haydar, past, eshitilar-eshtilmas ovoz bilan qo'shiq ham aytib qo'yar edn. Paranjiga o'ralgan Gulnor atrofidagi narsalarni onasiga ko'rsatib, titroq ovoz bilan so'zlar, lekin Yo'lchiga so'zlashga botinmas, so'zlashuv uchun biron bahona, sabab qidirishga tirishar edi. Kechagi dard qalbining bir chekkasini og'ir tosh kabi hali ezsa-da, u hozir buni o'ylamaslikka urinar edi.

Quyosh, toza havo, keng tiniq zangori osmon ko'zlarni beixtiyor tortadi. Dala yo'lining ikki tomonidagi bog'lar tutash gullar bilan qoplangan. O'rik, olma, shaftolilariig ko'rkam guldastalari, toza ruhli quvnoq tabiatning mo'l-mo'l yongan go'zallik sepi quyoshda turli rang va nur bilan porlaydi. Unda-munda dehqonlar oriq, horg'in ho'kizlarning turtib chiqqan suyaklariga "shaq-shaq" urib, omoch bilan yer suradilar. Bir yigitcha ketmon bilan yer chopadi, ovozin qo'yib ora-sira kuylaydi, daraxtlarda qushlar unga jo'r bo'ladi. Yalanglikda podachi bola tanho tentiraydi...

Ko'ch boyning qo'rg'onidan nariroqda, pastgina guvala devor bilan aylantirilgan, butun imorati birgina ayvondan iborat qo'rg'onchaga tushirildi. Gulnor va onasi darrov hovlini supurib-sidirib, narsalarni jon-joyiga saranjom qilish bilan ovora bo'lishdi. Zarur ishlar bitgach, ona choy qaynatishga buyurdi. Kichik ariqqa hali suv kelmagani uchun, Gulnor chelak ko'tarib, katta ariqda jo'nadi. U "yolg'iz oyoq" yo'ldan bordi. Har tomon ko'm-ko'k maysa, maysalar orasida turli-tuman gullar...

Boshiga onasining kamzulini olib, bahorda yashnagan va yoshligidan buyon tanish bo'lgan joylarni sayr etib ketayotgan Gulnor katta ariqqa yaqinlashganda, birdan to'xtadi: ariq yoqasida Yo'lchi yuz-qo'lini artib turardi... Gulnorning yuragi kuchli to'lqinlandi, butun gavdasini totli bir titroq bosdi. Orqaga qaytish-qaytmaslik to'g'risida bir lahza o'ylab, keyin oldinga qarab yurdi. Yo'lchi sekingina chetlandi.

- Chelakni shu yerga qo'ying, Gulnor, suvni man o'zim eltaman,- dedi Yo'lchi.

Gulnor yuzini boshqa tomonga yarim o'girib, javob berdi:

- Rahmat, suv tashib o'rganganman. Siz ham charchagansiz.

- Charchash? Yo'q, Gulnor,- dedi kulib Yo'lchi,- charchash uyat-ku, ayniqsa, sizni ko'chirib kelgan kun...

- Chindanmi? Yo anchiki, ko'ngil uchunmi? ЁЎ sho'xlik bilan so'radi Gulnor.

- Ishoning, so'zlarim yurakdan.

Gulnor chelakni loyqaroq suvga botirdi va ariq bo'yiga olib qo'ydi-da, dedi:

- Siz har vaqt chin so'zlaysiz, ishonaman, Yo'lchi aka. Lekin... siz yaxshi ishlaganingiz uchun boshqalar olib ketmasa ekan, deb qo'rqaman.

- Nima deysiz? Tushunmadim, Gulnor?- Yo'lchi atrofiga ko'z yugurtib, qizga tomon ikki-uch qadam bosdi.

Gulnor boshiga ilgan kamzulni jo'rttaga eplay olmagan bo'lib, yuzini bir zumgina Yo'lchiga ko'rsatib oldi.

- Ayta qolaymi?... Nuri opam, Yo'lchini biz olamiz, biznikida ishlaydi, dedi. Rostmi, bizdan ketasizmi?- xo'rsinib gapirdi qiz.

- Eh-he, hali shundaymi? Nuri opangiz tushini suvga aytsin, zanjir solib sudrasalar ham boshqa yoqqa bormayman. To'g'ri, bu yerda bir kun tinim yo'q. Bu yerdan yaxshiroq joy topib bo'lar, lekin istamayman...- dedi yigit.

- Nimaga? Har kim o'z tinchligini xohlaydi. Nuri opaniki ham yaxshi joy-ku,- dedi-da, Gulnor yashirincha Yo'lchiga qarab oldi.

- Buni o'zim bilaman.- Yo'lchi bir oz sukut qildi. so'ng dedi: ЁЎ Sizga aytсам, xafa bo'lmaysizmi?

- Nimaga xafa bo'lay? Ayta qoling, balki sevinarman, kim biladi...- shiringina so'zladi Gulnor.

- Sizni ko'zim qiymaydi, sizdan uzoqlashgim kelmaydi, Gulnor!

Gulnor yuzini rosa ochdi, yurak to'lqini shiddatlandi, g'ayri shuuriy ravishda Yo'lchi tomon yurdi. Chiroyli ko'zlaridan tomchilar gul shabnami kabi yuzlariga quyuldi, lablari titradi:

- Rostmi? Rost?..

- Chin so'zim, Gulnor, manga ishonmaysizmi?

- Man... qaydam,- Gulnor ko'zlarini bir lahza tushirdi, so'ng Yo'lchiga tikilib dedi,- yo'q, man ishonaman. O'zimdan ortiq sizga

18 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

ishonaman. Siz ko'ngli toza yigit, bilaman...

Yo'lchi titroq qo'llari bilan Gulnorning sochlarini asta siladi. Har ikkisining ko'zlari yosh va kuchli muhabbatning chuqur ma'nosi, nash'asi va samimiyati bilan bir-biriga uzoq tikildi...

II

Gulnorni sinovdan o'tkazgandan keyin, Nurida hech qanday shak-shubha qolmadi. U har qizning, har xotinning fe'li, axloqini o'lchashda o'zini namuna qilganligidan, Yo'lchi bilan Gulnor o'rtasida bir ko'p sirli voqealar bo'lganiga ishonadi va shunday o'yladi: "Yo'lchining boshini aylantirgan, orzularimga to'siq bo'lgan - Gulnor. Chuchvarani xom sanabdi cho'ri qiz. Haddi bormi?! Men uning ko'zini o'yib olay, oshiq-ma'shuqlikni unga kim qo'yibdi, tirmizak cho'ri!"

U ikkilanib o'tirmadi. Uch kundan so'ng, onasining oldiga yugurdi. Lekin Yormat oilasining boqqa ko'chib ketganini eshitib afsus qildi: koshkiydi, Gulsumbibi shu yerda bo'lsa, Gulnorning "buzuqligini" uning qulog'iga yetkizsa...

Nuri endi o'z onasi orqali bu "sirni" fosh qilmoqchi bo'ldi. Odatdagi ziyofatdan so'ng, onasi Lutfiniso bilan yolg'iz qolib, ivir-shivir gaplasha boshladi. Lutfiniso odatdagicha, harsillab, nafasi bo'g'ilib, kelinlaridan shikoyat qildi. Uyda va qarindosh-urug'larnikida bo'lib o'tgan har xil mayda gaplarni, g'iybatlarni va kelinlariga qarshi xasta ko'kragida yig'ilgan gina-kuduratni ezmalik bilan, biron so'zni unutmay, biron so'zni yamlamay, qizining oldiga to'kdi. Yoshlikdan boshlab shunday ivir-shivir b' hasratlashishni, har xil g'iybat va chaqimchilikni yaxshi ko'rgan Nuri, sira zerikmasdan aksincha, huzurlanib tingladi. Dam kuldi, dam gazablandi, dam onasiga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Nihoyat, gapira-gapira qaqragan lablarini tili bilan yalab, Lutfiniso jim bo'ldi. Keyin "g'iybat kitobini" bekami-ko'st qilib qizi o'qidi. Gulnor to'g'risida so'zlagan-da, tovushiga sirli ohang berdi, g'animatni qizg'angan olaqarg'aday, atrofga olaqaroq ko'z yugurtib dedi:

- Gulsum opa o'lgur yo'q ekan, aytadigan gaplarim bor edi. Oyi, siz bu yerda o'tirasiz, yon-bag'ringizda qanaqa ishlar bo'lib turgannni bilmaysiz! b' Lutfiniso qulog'ini tikkeytirdi, "a!" deb Nuriga yana yaqinlashdi. - Juvonmarg Gulnor g'irt buzuq ekan-ku! - Nima deysan, nima? b' Lutfiniso ko'zlarining oqini o'ynatib, labini yalab qiziga tikildi.

- Gulnor buzilpti, yana haligi sirli tovush bilan davom etdi Nuri, - Yo'lchi bilan ikkovi mana mundoq emish! - Nuri ikki barmog'ini bir-biriga mahkam chirmashtirib ko'rsatdi, so'ng yana davom etdi, - ikkisi oshuq-ma'shuq... manga qolsa, ayb Yo'lchida emas, ayb Gulnor shaytonda. Qiz quchog'ini ochsa, yigit yo'q deydimi? Voy Gulnorning' shaytonligi-e!

Lutfiniso: "Voy juvon o'lur!" deb labini tishladi. U qizining so'zlariga ishonchi to'la bo'lganidan, kim aytdi, qaerdan bilding va hokazo savollarni so'rashga hojat topmadi. Shamol tekkan olovdek lovillab ketdi.

- Voy, sharmanda o'lsin! Tug'ib qo'ysa-ya? b' Lutfiniso betoqat bo'lib boshini chayqadi.

Nuri bunga sira ishonmasa ham, lekin "sukut alomati rizo" degan kabi indamadi. Nafasi qisilishiga qaramay, onasi davom etdi:

- Ishqilib bo'yida bo'lmagan bo'lsin. Voy qiz o'lgur, balo ekan, ichidan pishgan ekan. Aftiga qarasang, shundoq mopora, aqlli-hushli qizga o'xshab ko'rinadi...

- Oyi, shunaqalarning ko'pi buzuq chiqadi, shunaqalarning ko'ksini shayton egallagan bo'ladi, - dedi Nuri.

- Gaping to'g'ri, qizim. San bir qop yong'oqday shaldir-shuldur eding, opang ham sho'x, qaqildoqqina edi. Mana ikkovlaring, xudoga shukur, qog'ozga o'ralgan qantday top-toza bo'lib yetishdinglar. Ko'zlaring erkak betini ko'rmadi. Sizlar hur qiz ekansizlar... Ha, Gulnorning tagi past-da. Otasi kim? Onasi kim? Malay, cho'ri... Zotiga tortadi, zoti past. Endi Gulsumni chaqirtirib, qulog'iga shipshitaman. Hozircha Yormat bilmay qo'ya qolsin... Qizingni tezdan bir musofir-mujofirga uzat, o'z tengingni top deyman, - dedi Lutfiniso.

Nuri bir oz o'yladi, onasining hovliqmaligini va bu sirni erkakka ham, ayolga ham yoyishga tayyorligidan cho'chidi, agar o'z dadasi va akalari eshitsa, ular Yo'lchining shaloq yigit ekaniga ishonadilar, haydaydilar; keyin Yo'lchini xizmatkorlikka ola bilmaydi u, Yo'lchiga yetishuv o'rniga, undan mangu ayriladi. Siri ochilgan Yo'lchi undan - Nuridan g'azablanishi va uning o'zini sharmanda qilishi mumkin... Mana shu mulohazalar orqasida u bir oz bo'shashdi.

- Oyi, - onasining tizzasini turtib dedi, - tag'in dadamga, akalarimga gapirmang bu sirni. Kelinoyilarim ham zinhor eshitmasin. Har qancha gap bo'lsa, Gulsum opaning o'ziga ayting, tuzukmi?

- Shoshma, Nuri, - sabrsizlanib shivirladi onasi, - Gulnorni Yo'lchiga berishsa bo'lmasmikan? Baribir ikkovi o'ynashib qo'yipti.

Rasmi qiz buzilsa, uni o'z o'ynashiga berishadi.

Nuri bu narsani sira o'ylamagan va onasidan bunday taklifni aslo kutmagan edi. Shuniig uchun kutmagan hol qarshisida bir oz dovdirab qoldi, keyin e'tiroz qildi.

- Bo'lmag'ur gaplarni og'izga olmang. Yo'lchi biznikiga ishlagani kelgan, ishlasin. Puli yo'q, joyi yo'q, ham o'zi yosh hali, xotinni nima qiladi? Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga. Yo'lchi besh-o'n yildan keyin o'z qishlog'ida, onasining bag'rida uylansin. Bu to'g'rida zinhor og'iz ochmang! - Nuri qat'iyat bilan qo'lini silkidi va davom etdi so'zida: b' Kim biladi, Yo'lchiboyni xizmatkorlikka bizlar olamizmi. Bir vaqt kuyovingiz palon xizmatkorlaring juda yaxshi yigit ekan, u yigitni manga bera qolsinlar, degan edi.

- Man shu ikkala shum birga bo'lsin degan edim. Gaping to'g'ri; dadang ham xizmatkorning uylanishini sira yoqtirmaydi. Gulnor buzuq qiz bo'lsa, ko'zimizdan uzoqroq joyga yo'qolgani yaxshi. O'ziga yarasha bironta yalangoyoq topilar, - dedi-da, Lutfiniso belini ushlab, ingrab va har qadamda "tavba-tavba!" deya tahorat qilgani ketdi.

III

Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi. Ular butun bog' ishini o'z kuchlari bilan bajarib, xo'jayinlari ko'chib kelishigacha hamma yoqni jannatday yashnatishlari lozim...

Bog' go'zal. Unda quyosh va yengil shamolning, gullar va maysalarning quvnoq o'yini kun bo'yi davom etadi. Bog'ning har burchagida o'zga bir latofat; ariqlarda suv kumushlanadi, maysalardan uqa tutgan hovuz suv bilan emas, nur bilan to'lgan kabi jimir-jimirlay mavjlanadi. Bir yoqda mevali daraxtlar - tutash havo gulzori yasaydi. Bog'ning quyi tomonida bir chiziqda saf tortgan baland, adl teraklar... Ular har vaqt mayin titraydi. Qushlar kuylaydi, ariqlarda suvlar, daraxtlarda barglar kuylaydi. Ular bilan birga bog' ichida Gulnor ham kuylaydi. Qiz o'z ovozi boshqalarga uzoqdan eshittirishi ham gunoh... U sekin kuylaydi. Dadasi va onasi bo'lsa edi bunga ham jasorat qilmagan bo'lar edi. Lekin, u hozir tanho. Onasi shaharga - boynikiga tushib ketgan. Dadasi esa, ishi juda zarur bo'lgani uchun, qizni noiloj yolg'iz qoldirib, arava qo'shib bir yoqqa jo'nadi.

Gulnor ochilgan toklarni ishqomga ko'tarib tol po'stlog'i bilan mahkamlab bog'laydi. Uning ko'ngli shod, ko'ksida hasrat emas, yorqin umidlar yonadi.

Nogoh katta darvoza tomondan tanish tovush yangradi:

- Yormat aka!

Gulnorning yuragi to'liqlanib ketdi, bir zum entikdi. So'ng parishon sochlarini shamolda to'zg'itib yugurdi. Lekin boyni qo'rg'oni orqali o'tib, darvoza tomon chopar ekan, ot yetaklab darvozadan kirayotgan Yo'lchini ko'rib qoldi. Qiz darrov chekilib, qo'rg'on eshigi orqasiga o'zini oldi, eshikning bir qanotini qiya ochib, qizil gul g'unchasiday lablaridagi tabassum bilan Yo'lchiga qaradi. Yigit eshikdan bir necha odim narida, o'tning boshini silab turar edi. Ular ko'zlari bilan iliq, samimiy salomlashishdi.

- Yormat aka qayoqda? ЁЎ”shubhalanib so'radi Yo'lchi.

- Dadam arava qo'shib bir yoqqa ketdi. Toklarga poya keltirsa kerak,- keyin nozli kulib qo'ydi Gulnor.- Siz qaerdan? Jim bo'lib ketdingiz?

- Men "katta yerdan",- ko'zlarini qizdan uzmay, qandaydir ichki hayajon bilan gapirdi Yo'lchi,- ish ko'p. Xo'jayinlardan har kun buyruq keladi: unday qilinglar, bunday qilinglar... Lekin, o'zim u yerda bo'lsam ham ko'nglim, xayolim bu yerda, ana shu bog'da... Ovozining eshitish umidi bilan ataylab kelgan edim. Baxtinga o'zingizni ham ko'rdim.

Gulnor uyalgan kabi, tabassum bilan boshini quyi soldi.

- Ataylab kelmagansiz, ishingiz bordir,- dedi qiz sekingina.

Yo'lchi kuldi va qiz tomon yaqinlashdi.

- Rost, siz uchun keldim. Odamlarga ketmon olib borishni bahona qildim. Ketmon yetishmay turibdi hozir: Yormat akaning ketmonini olib ketaman-da.

- Olib chiqaymi? ЁЎ”Gulnor ko'zlarini tabassum bilan suzdi Yo'lchiga.

- Mayli.

Yo'lchi quyosh va dala shamoli bilan bir oz qoraygan. Ammo bundan uning yigitlik husni yana kuchliroq barq urgan edi. Hozir Gulnor uchun qarshisida turgan yigit arslonga chang sola bilajak bir qudrat va jasoratga ega ko'rindi. Shu bilan baravar qiz uning ko'zlarida samimiy mehr, qandaydir noziklik ham ko'rdi.

Yo'lchi qizning qo'lidagi ketmon olarkan, bir qo'li bilan uning bilagidan sekingina tutdi. Yuragida sezgilari toshganligi va aytib bitirolmas, so'zga sig'mas fikrlari, hislari borligini ko'rsatuvchi bir vaziyatda Gulnorga tikilib qoldi. So'ng, keng va mard yuzini birdan iliq kulgi qoplad:

- U kungi gap-a? - dedi.

Gulnor chiroyli va erka tabassum bilan, xo'p deganday, boshini qimirlatdi, keyin: "albatta!" deb so'z bilan ta'kidladi. Nihoyat, ularning lablari beixtiyor birlashdi, qonlarida, tomirlarida bahor quyoshi eriganday bo'ldi... Yo'lchi o'tni yeldirib tepalikda ketarkan, orqada qolgan pastlikdagi boqqa beixtiyor qaradi. Yashnagan bog' ichidan ko'zlari Gulnorni topdi. Quyosh nurida uzoqdan qorday porloq ko'ringan oq ko'ylagi, tovlanib yongan, nurlangan sochlarini shamol yumshoqqina xilpiratar, gullar, yashilliklar orasida uning adl ЁЎ” kelishgan qomati, shaffof bir xayol kabi, goh yalt etib ko'rinar, goh o'char edi. Gulbog'chadagi u pari ko'zdan g'oyib bo'lguncha, o'tni sekin yurgizib, ko'ksidagi cheksiz shodlik bilan qanoatlangan, shirin o'ylarga botgan holda ketdi.

Gulnor, kutilmagan chog'da ketmon olib ketish bahonasi bilan kelgan Yo'lchini ko'rganligidan sevindi, yuragiga sig'may, sevikli yigitning xayoli bilan zavqlanib, ancha ish qilib qo'ydi. Choy qaynatib ichishnida unutdi. Kechga yaqin, dadasi qaytgach, qo'rg'onga kirdi, har kungi kabi qora sho'rva uchun olov yoqdi. Ovqat pishar oldida onasi ham shahardan yetib keldi. Lekin, uning rangi kasal odam kabi dardli, o'chiq va ko'zlarida g'azab yonar edi.

Gulnor shu yoshgacha hech vaqt onasini bu kayfiyatda ko'rmagan edi.

- Nima bo'ldi, oyi, betobmisiz? - qo'rqa-pisa so'radi Gulnor.

Gulsumbibi indamadi, yolg'iz zolim ko'zlari bilan o'qraydi-da, ayvonning bir chekkasida, kasal kabi cho'zilib yotdi.

Gulnorning qo'l-oyoqlari bo'shashdi, o'choq yonida cho'qqayib, uzoq o'yladi. Ammo, onadagi bu o'zgarishning sirini sira topolmadi.

Bog' ichidan Yormat chiqdi. Xo'jayinlar to'g'risida xotiniga savollar berdi. Lekin, to'la-to'kis javob olmagan uchun Gulsumbibiga ancha-muncha qo'lansa so'zlar, so'kishlar yog'dirdi, Zir-zir qaltiragan Gulnor sho'rvani nari-beri suzib keldi. Gulsumbibi bir qoshiq ham ichmadi. Gulnorning ham ishtahasi kesildi, ikki-uch qoshiq sho'rva halqumidan bazo'r o'tdi. Yormat tovoqqa qattiq nonni ko'p to'g'rab, ishtaha bilan yedi, ichdi, o'z tovog'ini bo'shatib, xotinining tovog'ini ham o'z oldiga surdi:

- It fe'l, badbaxt! Qosh-qovog'idan naq qor yog'adi, ЁЎ”o'zicha valdirayverdi Yormat.

- Oyim charchagandir, so'kishingiz ortiqcha, ЁЎ”dedi

- Katta oyim shaharda qo'shga qo'shiptimi bu ablahni?! Charchaganmish, o'lib ket! ЁЎ”Gulsumbibiga, qiziga o'qrayib vaysadi Yormat.

Gulsumbibi o'likday cho'zilib yotaverdi. Namozshomdan keyin, uyqusi kelmasa-da, Gulnor o'ringa kirdi, ko'rpaga burkanib piq-piq yig'ladi.

Qiz ertalab turib, darrov onasiga razm soldi. Uning yuzida kechagidan qo'rqinchliroq g'azab sezdi. Onasining ko'zidan tezroq qochish uchun u ariqqa borib, apir-shapir bet-qo'lini yuvdi, ro'molining bir uchi bilan artinib, bog'da ishlashga yugurar ekan, Gulsumbibi qaytardi.

- Shoshma, dadang yo'qligida san o'lgur bilan gaplashib olay, yurak-bag'rimni zaharlading!- O'rnidan turib, ildamlik bilan qo'rg'on eshigini zanjirladi Gulsumbibi.

Hech nima bilmagan, tushunmagan Gulnorning rangi o'chdi, xovli o'rtasida toshday qotdi. Gulsumbibi uning qo'lidagi sudrab, ayyonga keltirdi.

- Bolang necha oylik bo'ldi, yer yutgur?! ЁЎ”bo'g'ilib so'radi va qizni bir tepdi.

- A, nima gap? Uyalmaysizmi?! ЁЎ”Gulnor boshini ustunga urib qichqirdi.

- Sekin gapir, sekin... sharmanda qilding, boshimni yerga bukding, san juvonmarg! Yoshligingda o'lib ketsang edi, bunday gaplarni eshitmagan bo'lar edim. Ayt, qachondan buyon o'ynashasan... Tig'parronga uchragur Yo'lchi bilan qachon topishding?- Gulsumbibi qizini oyoq ostiga olib, uning badanini ombir bilan cho'zib tortganday, chimchilab, uza boshladi. Lekin hozir Gulnorning butun gavdasini parchalab tashlasalar ham, og'riq sezmagani bo'lar edi.

- Bu qanday tuhmat! Jonimni ol, xudo, sandan boshqa kimim bor, o'z onam shunday tuhmat qilsa!- O'zini urib ho'ngradi kiz.

- Nimasi tuhmat! ЁЎ”Gulsumbibi Gulnorning quloqlarini cho'zib tortdi.- San o'zing Nuriga aytibsan, Nuri onasiga aytibdi, hammasini eshitdim, esimdan og'ayozdim. Shahardan bu yerga qanday yetib kelganimni bilmayman.

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Tuhmatchining nomini eshitgan xamon, Gulnor sachrab o'rnida turdi, g'azab, iztirob bilan qaqshab gapirdi:

- Yolg'on! Yolg'on! Nuri o'zi buzuq. Man unga xich nima degan emasman, oyijon, man toza, oyijon, man toza... Aqlim bor, nomusim bor. Nuriday betayin, benomus emasman.- Gulnor chidamasdan yana o'zini yerga tashladi.

Gulsumbibi yumshamadi:

- To'g'risini ayt, baribir o'lasan. Dadangga aytaman, u avval saning kallangni oladi, keyin Yo'lchining kallasini oladi... Uzdiraman kallalaringni! Jilla bo'lmasa o'lim oldida bir og'iz to'g'ri so'zingni manga ayt.

O'z tozaligini qanday isbot qilishni bilmagan, onasini ishontirishdan ojiz Gulnor, ko'z yoshlari bilan ho'l bo'lgan yuzlarini kir, chang namatga surib yig'lab yotdi. Faqat ba'zan yig'i aralash:

- Yolg'on, yolg'on!Bᄁ”derdi.

Sevikli qizi, yolg'iz Gulnorining tuproqqa qorishib yotganini ko'rgan ona, bir qadar bo'shashib, yig'lay-yig'lay so'radi:

- Yolg'onmi? Man qanday ishonaman? Gulnor boshini ko'tardi, titrab gapirdi:

- Musulmonmisiz? Man musulmon. Qur'on bering, yuzimni qo'yib ont ichaman. Keyin mani o'ldiringlar. mayli, xudoning oldiga man oq yuz bilan boraman. Ishonsangiz - xo'p, ishonmasangiz, gunohsizligimni keyin bilarsiz,- onasini quchoqlab yalindi qiz.

Gulsumbibi qizini nari itardi, chuqur "uh" tortib, o'zini tashladi, peshanasiga urib yig'ladi: "Koshki o'lsam! Koshki ajal kela qolsa!.. Kuydirding, nega tutdim sani? Yo'lchiboy o'lgurni yaxshi deyishardi, o'zim ham yaxshi ko'rardim. Kirini yuvdim, yamog'ini yamadim. Mana, nima qildi axiri yigit o'lgur".

Gulnor sachrab onasining oldiga keldi, yig'idan shishgan, qizargan ko'zlarini qattiq tikdi.

- Yo'lchida nima gunoh? Uyaling. U yaxshi yigit. Man uni sevaman. Bu rost. Qolgan gaplarning bari yolg'on, bari tuhmat!

- A, sevaman? Bu yomon gapni qaerdan o'rganding? Bu narsa buzilganing emasmi?Bᄁ”Gulsumbibining g'azabi yana toshib ketdi. Gulnor endi tap tortmadi. Sof nomusiga otilgan qorani butunlay yuvib tashlashga jazm qildi.

- Oyi,- dedi u ko'z yoshlarini to'kib,- ishonning, man toza, man sog'!.. Ishonmaysizmi, yuring Nuriga boramiz, katta oyimga yo'liqamiz. Nuri man bilan gaplashsin. Man unga nima debman, u qaerdan bilipti, yuzimga solsin. Xo'jayinligi o'ziga. Mani, sizni, dadamni qul qilib ishlatsin, yana bu yetmaganday, nomimizni bulg'asin!

Gulnor jahl bilan onasining qo'lidan tortdi, quchoqlab surgadi.

- Yuring, boramiz! Man chidamayman bu tuhmatga. Oyi, ulardan qo'rqmang, mayli, bizni haydab yuborishsin. Ochlikdan o'lmasimiz, qiyinchilikka ko'nikkanmiz. Ularsiz ham tirikchilгимiz o'tar... Bormaysizmi, qo'rqasizmi? Man o'zim boraman, Nurini sharmanda qilaman. Tuhmat bilan emas, rost gap bilan sharmanda qilaman!

Gulnor mahsini topib, shoshib-pishib kiymoqqa boshladi. Gulsumbibi yugurib, uning qo'llarini mahkam ushladi:

- Es-hushingni yig', unaqa yengil bo'lma!

- Yo'q, qanday chidayman tuhmatga!Bᄁ”qichqirdi Gulnor

- Haligi gaplar yolg'onmi? Orada Hech narsa... bo'lgan emasmi?Bᄁ”so'radi yumshoqlanib ona...

Gulnor onasini quchoqladi va chuqur iztirob ichida so'zladi:

- Oyi, nima qilay, so'zimga ishonmasangiz pichoq bilan ko'ksimni yorib ko'rsataymi? Nima deysiz, ayting? Nega o'shalarniki to'g'ri bo'ladi-ku, man yolg'on gapirgan bo'laman!

Gulsumbibi qizining boshini siladi, yig'lab gapirdi:

- Qo'y, qizim, Nuri tuhmat qilgan bo'lsa, xudoga soldim. O'zi bir kun jazosini tortar, bir kun izza bo'lar. Shov-shuv ko'tarma.

Dadang xabardor bo'lib qolsa, yaxshi bo'lmaydi. Man o'zim yaqin o'rtada shaharga tushib, katta oyimga gapiraman. Nurini ham uyaltiraman.

Gulsumbibi qizi Gulnorni ro'parasiga o'tqazdi, mahsini yechtirdi, bir oz dam olib, keyin ishga chiqishga buyurdi-da, o'zi bog' tomonga yurdi, bir necha qadam qo'yib, yana orqasiga qaradi, tanbehlovchi tovush bilan qiziga dedi:

- Bundan keyin Yo'lchi nomini og'zingga olma, uqtingmi?

Gulnor hech nima demadi, faqat, chuqur, yoniq g'am bilan: "uf!" dedi.

Sakkizinchi bob

I

Yo'lchi yozda yonib chang-tuproq yalab, qishda qor-muz kechib, butun mahrumiyatlarga, butun og'irliklarga qaramasdan, jonkashlik bilan ishladi. U yer haydadi, chopiq chopdi, suv surdi, dalaga go'ng tashidi, shaharga paxta tashidi, do'konlarga gazlama tashidi, izvosh haydadi... Vaqt-soat, juma, bayram, hayit nima ekanini bilmasdan ishladi. Mashaqqatlar, qiyinliklar ichida yashasa ham, mahrumiyat to'la faqir hayotini bezaydigan bir yorqin umid, bir go'zal xayolga u ega edi: Gulnor...

Yo'lchi mana shu qizning muhabbati bilan Mirzakarimboyning eshigida uchinchi qishni kechirmoqda.

Bir vaqtlar Nurining o'rta otgan tuhmati orqasida Gulsumbibi eri Yormatdan yashiriq qizning fe'l-atvorini, yurish-turishini ochiq va bekitegich ravishda uzoq ta'qib etdi. O'z sirlarini Yo'lchi tomondan ochilishi mumkin deb, qo'rqanligidan bo'lsa kerak, Nuri bu tuhmatni tarqatishga, yangilashga ortiqcha urinmadi, lekin Yo'lchiga, Gulnorga qarshi kuchli adovat saqladi.

Yuragida Yo'lchidan o'zga bir fikr va tuyg'uga o'rin bermagan Gulnor, o'z sevgisini hammadan yashira-yashira hozir o'n sakkiz yoshini kechirib turadi. U har bir musulmon qizi kabi, o'yin-kulgidan, sarbast ovoz chiqarishdan mahrum, ota-ona, tanish va begona, erkak-ayolBᄁ”hammaning oldida soqov bo'lishga majbur esa-da, lekin yuragida muhabbat to'lqinlanib, ba'zan unga kuch va jasorat beradi. Shunday paytlarda,- lekin juda siyrak, - u qo'rqa-pisa inidan chiqadi. Ota-ona va boshqalarning ko'zlaridan uzoqroq bir fursatni topib, Yo'lchi bilan uchrashuv baxtiga erishadi. Ikki sevuvchi qalbning toza tuyg'ularini mavjga solgan bunday uchrashuv so'zlar, imolar va ishq nuri bilan porlagan ko'zlarning jilvasi bilan o'tgan ikki-uch minutli suhbatBᄁ”Gulnor uchun ko'ngilni oylarcha isitgan xayol va umidlarni quyosh kabi porlatgan bir ulug' baxt bo'ladi.

Yormat bir yildan buyon qizini munosib joyga uzatishga tirishadi. Lekin bu masalani hal qilishda u mas'uliyatini, otalikni o'zidan ko'ra ko'proq Mirzakarimboyga topshirgani uchun bu to'g'rida jadal qilmaydi. Lekin, bu yil qish qizni, albatta, uzatishga qaror qilib, "ojizasining to'yi" xususida Mirzakarimboyga bir necha marta so'zladi. Ammo, Mirzakarimboy har xil javob berdi. Bir gal:- "Qo'ya tur-chi, yov keldimi. Yolg'iz qizing, vaqti-soati kelganda uzatarsan..." dedi. Ikkinchi gal: "Kuyov tanlash kerak. Boymi, bechorami, ishqilib ro'zg'or mashaqqatini yelkasidan uzmaydigan bir odam bo'lsa, to'yni boshlarmiz, sabr qil!" dedi. Lekin bu yil kuz faslida Mirzakarimboyning xotini Lutfiniso to'satdan - qalb xastaligidan bo'lsa kerak - bir kechada vafot etdi. Lutfiniso kabi qadrdon bekasining o'limiga kuygan Yormat, to'yni tezroq o'tkazish xususida og'iz ochmay qo'ydi. U endi iloji bo'lsa, munosib kishiga Gulnorni hozirdan unashtirib, fотиha o'qib, to'y-nikohni bahorga yaqin o'tkazmoqchi...

To'qqizinchi bob

I

Mehmonxonalaridan birida Mirzakarimboy o'z gumashtasidan hisob olar edi. Gumashta Mahamad Rasul qirq yoshga yetib qolgan, mutavoze, mullanamo kishi edi. Ko'p yillardan buyon bir ko'p boylarning qo'lida xizmat qilgan. Mahamad Rasul o'tgan yil Mirzakarimboyning diqqatini jalb qilib, uning Avliyootadagi gazlama do'koniga, boshqa bir gumashta o'rniga tayin qilingan edi. Bir yil muddatida u Toshkentga ikkinchi marta kelib, hozir xo'jayin oldida tiz cho'kib, uyning sovuqligiga qaramay, terlab-qizarib o'tirar edi.

Mahamad Rasul o'z ishida ko'pgina tajriba orttirgan kishi bo'lgani uchun, boylarga hisob berganda, unchalik dovdiramas edi. Ammo mug'ambir Mirzakarimboyning qarshisida u rosa esankiray boshladi. Avliyootadan chiqish oldida bir kecha mijja qoqmay, cho't qoqib, "boz muncha, boz uncha" degan yozuvlar bilan to'lgan daftarlarning mazmunini qayta-qayta hisobga olib, xotirjamlik bilan yo'lga chiqqan bo'lsa ham, hozir u sanoqlarni xo'jayin, ko'knori xayoli kabi, puchakka chiqarishga urindi. Boyning ilk so'zlariyoq uni majolsizlantirgan edi. Mahamad Rasul kamol hurmat bilan xo'jayinning qo'lini siqib ko'rpachaga cho'kkaalagan hamona shunday so'zni eshitdi:

- Nimaga bevaqt, beso'roq qaytdingiz? - boy javob kutmay, so'zini ustma-ust ag'daraverdi, - men hali sizni kutganim yo'q edi. Bundan besh-olti oy ilgari yo'qladim - keldingiz, gaplashdik. Lozim bo'lsa, yana bir enlik xat yozib, yo sim qoqib bildirar edim. Ish bunday bo'ladi! Bo'zchining mokisidek, Avliyoota bilan Toshkent orasida yo'rg'alashdan nima foyda? Bundan keyin gaplarimni uqib oling, modomiki, men bilan birgasiz, mening odamimsiz, har bir ishni men bilan bahamjihat qiling, o'zbilarmonlikni ko'tarmayman...

Boy so'zidan to'xtagach, Mahamad Rasul boshini ko'tarmasdan, qo'llarini qovushtirgan holda, kelish sababini tushuntira boshladi:

- Boy ota, bu yerda andak anglashilmovchilik borgan o'xshaydi. Meni avvalo inimiz Salimjon chaqirtirgan edilar, o'zlaridan so'rasalar bo'ladi. Ham xudo bergan bir o'g'il, bir qizim bor Ularni notob deb eshitdim... Musofirchilik qiyin, bola-chaqani sog'inadi kishi. Bu to'g'rilarni mulohaza qilib ham inimiz Salimjonning ra'yilariga qarab, yo'lga chiqa qoldim...

- Be! Salimjon kim u? O'g'limmi? U nimani biladi? Ko'zim tirikb" men bilan muomala qilasiz. Bola-chaqani sog'indim deb do'konni yopish ishmi? Toshkentga kelishning o'zi bo'lmaydi, yo'l xarajati, bola-chaqaga sovg'a-salom degan narsalar ham bo'ladi... xo'p, kelibsiz, ikki shingil gaplashaylik-chi. Xohlasangiz mana cho't.- Boy tokchadan cho'tni olib Mahamad Rasul oldiga surdi.- Bizga biribir, cho'tsiz ham hisoblay beramiz.

Mahamad Rasul o'z ichida: "bu kun boy chap yoni bilan turgan shekilli" deb, ancha vaqtgacha kallasini osiltirib o'tirdi. Keyin qo'li bilan peshanasini siqdi-da, hisob berishga boshladi, u qo'rqa-pisa gapirdi, qaltiragan barmoqlari bilan cho't qoqdi. Istehzoli kulgi, ayyor boqish bilan qarab, pul masalasida tiyinni, savdo ishida ikir-chikirni ham diqqatidan qochirmay, har minut sayin luqma tashlagan boy huzurida hisobi, ma'ruzasi o'zi o'ylab qo'ygancha, u qadar silliq va qulay chiqmasa-da, lekin natijaning to'g'ri, qat'iy ekani Mahamad Rasulga ma'lum edi. U nihoyat, hisobni bitirdi, samimiyatni izhor etgan bir boqish bilan boyga tikildi va kamtarinlik bilan dedi:

- Mana, boy ota, ishning ketishi shunday. Menimcha, chakki bo'lmasa kerak.

Xo'jayin soqolini bir nafas hovuchiga olib turib, kinoyali jilmaydi.

- Chakki emas! Bundaqangi ishni biz chakki deymiz. Ayta qoling, Avliyoota - qozoq yurti, norinxo'rlikka ko'proq berilganga o'xshaysiz-a? Men shartta ayta beraman, inim Mahamad Rasul. Men do'kon qilsam, uni molim bilan to'ldirsam, foydasi uchun qilaman. Sichqon teshgan supradan un to'kilaveradi. Sizniki shunday bo'lgan; to'g'ri, siz hammasini ko'rsatdingiz, lekin mening ham hisobim bor, meniki har vaqt aniq bo'ladi. Sizga ma'lumki, gumashtalarim har yerga taralgan. Chinozda, Qo'qonda, Chimbkentda... Men ularning betlarini ko'ray-ko'rmay, lekin har birining ishi menga ayon. Har vaqt bilib turaman, hech nimani yashira olmaydilar.

Boyning so'zlari nohaq bo'lsa ham, Mahamad Rasul ko'zlarini qayoqqa yashirishni bilmay xijolatda qoldi. U o'z oilasidan uzoqda qolib, boyning pulini ko'paytirish, undan turtki yemaslik uchun jonkashlik qildi, o'ziga kiyim-bosh qilmay isqirt bo'lib yashadi, ovqatini siqdi, har kun kechqurun do'kon oldida kichkina dekcha qaynatib, bir tovoq xo'rda oshga qanoatlanganidan, do'kondorlar orasida u sal kundayoq "xo'rda maxsum" deb laqablandi. Bunga qaramay, boy uni norinxo'rlikda aybladi. Mahamad Rasul o'z umrida boylarning tuhmatini ko'p eshitgan bo'lsa-da, Mirzakarimboyning bu tuhmati uning yuragiga nayzaday sanchildi. U xo'jayinni insof va adolatga da'vat qilmoqchi ekan, shu paytda boy tumanli deraza orqasida turgan birovga hayron bo'lib qaradi va imladi.

U kishi eshikni ochdi, ichkariga qadam qo'yishga uyaldi shekilli, ostonada to'xtadi. Uning kiyimlari juda eski va tuproqqa ag'nagan kabi, chang-chung edi. Lekin o'zi qishloqcha sodda, dolig'uli yigit ko'rindi. Mirzakarimboy shubha bilan boqib so'radi:

- Keling, kimni yo'qlab keldingiz bu yerga?

U Yo'Ichining hamqishlog'i ekani, Yo'Ichiga xat keltirganini g'uldirab so'zladi-da, belbog'i orasidan xatni olib, boyning oldiga tashladi va eshikni zarb bilan yopib, chiqib ketdi. Choy qog'ozga yozilib, to'rt buklangan xatni boy ochdi. Tokchadan ko'zoynakni olib taqdi, qog'ozni derazaga moyil tutib, ko'z yugurtirdi... So'ng, bir nafas xomush bo'lib, o'z ichida bir nima shivirladi. Xatni kursi ustidagi quruq patnis tagiga qistirdi, Mahamad Rasul xo'jayinning kayfi o'zgargani uchun, o'ylagan e'tirozini aytishga botinmay turdi. Ikki-uch minutli sukutni boy buzdi, yana avvalgi yo'sinda, lekin ohistaroq gapira boshladi:

- Mahamad Rasul, men birovga et, moy va boshqa masalliqni berib, shirin sho'rva tayyorlashni buyuraman. U kishi sho'rvani pishiradi, lekin moyini suzib ichadi, go'shtini yeydi, menga taqir suyak bilan bir kosa jirsiz suv keltiradi... Tushundingizmi? Bu qalay bo'ladi? Mulohaza qiling!

Boy chol Mahamad Rasulni ezgani ham o'z "donishmand"ligiga xursand bo'lgani uchun, soqolini silkib kuldi, bir ozdan so'ng yana kibrli jiddiyat bilan o'shshaydi

Mahamad Rasul bu so'zlarni o'zi uchun bo'hton, haqorat deb bilganidan, qancha kamtarin, tavozeli bo'lmasin, chiday olmadi.

- Boy ota,- boshini ko'tarib gapirdi u,- sizga va sizning kabi boyonlarimizga qul singari xizmat qilgan bir ojiz bandani bu qadar tuhmatga loyiq ko'rmasangiz edi.- Mahamad Rasul ovozdagi shikoyatni yana kuchaytirdi.- Sho'rvaning eti, moyi, suvi - bari sizniki bo'ldi-ku. Yana nima deysiz? Men halol ishladim, zarracha xiyonat qilmadim. Mana jami ishni ko'rsatdim. Shartnoma mazmuniga qaraganda, sizning gardaningizga tushadigan bir ko'p chiqimlarni men o'z zimmamga oldim. Menimcha, tijorat paydo bo'lgan zamondan boshlab, bunday mo'l foydani hech kim ko'rgan emas. Bu qanday gap axir, sakkiz-to'qqiz hissa foyda bo'lib ketdi.

Mirzakarimboy yana o'shshayib tikildi, ammo maslahatgo'ylik bilan asta gapirdi:

- Foyda inim, o'n-o'n besh hissa bo'lishi kerak edi. Bilasizmi, zamon qanday? Urush zamoni! Gazlamaning qadri juda oshib ketdi. Ertalabki narx kechga to'g'ri kelmaydi...

- Avliyootada turib qulog'imiz har kun yangi narx qidiradi,- dedi Mahamad Rasul.

- Shunday bo'lishi kerak. Narx-navo har kun tom bo'yi sakrab turipti. Oyoqni nechog'liq tirang, oqpodshohning urushi bitguncha narx oshaveradi. Men hozir gazlamani ko'plab sotishni to'xtatdim. Bu kungi foyda go'sht bo'lsa, ertasiga nuqul moy bo'lishi aniq, naqd pulga mol chaqqon bo'lgan zamonda, siz ancha molni nasiyaga sotibsiz. Bunga achchig'im chiqmasinmi? Endi gap shu: oyoqni qattiq tirang. Qozoqlardan nasiyani tezroq undiring, durustmi? Qozoqlar pul bilan to'lolmasa, bug'doy olavering. Inim, gaplarim sizga qattiqroq tekkan bo'lsa mendan xafa bo'lmang. Men foydali narsani so'zladim. Xo'p, ertaga do'konga tushing, yana gaplasharmiz.

- Ma'qul, ma'qul boy ota, soyayi davlatingiz kam bo'lmasin! B^o B^o Mahamad Rasul qo'l qovushtirib chiqib ketdi.

II

Yo'lchi o'z do'sti Qorato'y temirchi bilan hangamalashib o'tirar edi. Qorato'y ikki tomondan ochiq, bo'g'otlari uvadalangan, ichki devorlari isdan, temir, ko'mir uchqunlari to'zonlaridan qoraygan ishxonada, "olovdon" va bosqon yonida turib, qizil cho'g' bo'lgan temir parchasini bolg'a bilan gurs-gurs urar, yassilar, cho'zar, qayirar edi. Uning o'n uch yashar o'g'li Xolto'y dam bosib kichik bolg'a bilan temirni urib dadasiga yordamlashardi. U o'ttiz sakkiz-qirq yashar yumaloq, katta boshli, bilaklari yo'g'on, gavdasi etsiz, lekin pishiq, suyaklari beso'naqay, yoshi o'tsa-da, yuragida yigitlik o'ti so'nmagan, shijoatli, o'z so'zli kishi edi. Jumaboy degan bir bo'ydoq ukasi tramvay izini tozalovchi ishchi edi. Ba'zi vaqtlarda u ham ishga yordamlashar edi.

Yo'lchi chamasi ikki yildan beri bu temirchi bilan yaqin do'st bo'lib, uning butun sifatlarini, fazilat va kamchiliklarini yaxshi sinagan edi. Aksar vaqt, ishdan qutulgach, u bilan vaqt kechirar, qayg'usini, sevinchini unga ochar edi.

Hozir muyushdagi choyxonadan damlab keltirilgan choyni ozgina-ozgina quyib dam o'zi ichib, dam Qorato'yga uzatib, har vaqtdagi kabi xangmalashib o'tirardi.

Faqat bolg'alarning "taraqa-turug'i" jim bo'lganda Yo'lchi suhbatga o'tdi, o'z dardini bayon qila boshladi. Shu bir-ikki oy ichida Mirzakarimboy bilan yaxshilab gaplashajagini, ikki yarim yillik mehnat haqi qancha pul bo'lganini tayinlab, keyin Gulnorga uylanmoq orzusini biron kishi orqali boyga bildirib, o'jar Yormatni boy orqali ko'ndirmoq umidida ekanini so'zledi. Qorato'y og'ir mehnat orqasida chuqur chizilgan peshana chiziqlarini silab maslahat berdi:

- Bu ishda boy o'rtada turmasa, bilib qo'y, polvon, bir nima chiqishi qiyin. Nainki, xumsa Yormating baland dorga osiladi. Bu zamonda kimning jin chaqasi ko'p bo'lsa odamlar o'shanga og'adi. Jin chaqa hammaning' karmoniga tupurib, boylarning hamyoniga o'zini uradi. U yer issiqroq, bexavotiroqmikan deyman.

- Pul kambag'alning kissasidan qo'rqadi shekilli,- dedi Yo'lchi,- bu urush ayniqsa boylarning birini o'n qildi. Har kun mol narxi oshadi, bozorda savdogarlarning qulog'i tikkaygan. Bitta-yarimtasi vahimaliroq bir gap eshitdimi, darrov mol narxini oshiradilar. Urush bahona bo'ldi ularga. Bizning xo'jayin-chi? Ishi taraql... Omborlarda chirib qolgan mollarini endi xaridor ko'zga surib oladi. Tushgan pul B^o B^o tegirmonning novi!

Qorato'y bolg'ani bir chekkaga qo'yib shivirlardi:

- Oqpodshohning urushi boylarga huzur-halovat keltirdi, lekin fuqaroni non gadoyi qildi. Manga o'xshash taqachi-maqachi, kosib-mosib-chi? Husht! B^o B^o Qorato'y tishlari orasidan g'alati tovush chiqardi va so'zini davom ettirdi.- Nimaga kulasan? Ishimiz sira belini ko'tarolmay qoldi, uka. Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal-taqal qilib turipti. Ammo, B^o B^o Qorato'y alanglab, shivirladi,- oqpodshohning tagi puchga o'xshaydi. O'ris xalqi urushdan norozi, deb eshitaman. Hamma yerda ahvol bir ekan. Urush boylarga yoqib tushdi, kambag'alni shildi,- temirchi endi qaddini ko'tarib, ovozini baland qo'ydi. B^o B^o Shu qishdan qoldirma, o'rta, albatta boy tog'angni qo'y. U ikki og'iz gapirsa, Yormat "g'ing" deya olmaydi...

- Gulnor mandan boshqani tanimaydi, B^o B^o g'urur bilan do'stiga qarab gapirdi Yo'lchi,- lekin, u, albatta bir qiz: dadasining ixtiyoriga bog'liq. Ammo xo'jayin o'rtaga tushsa, u vaqt ish silliq bo'lnb chiqsa kerak, deyman.

- Menimcha, B^o B^o Qorato'y temirni suvga "jaz" bosib gapirdi,- Mirzakarimboy cho'chqa boylardan bo'lsa ham, senga yon bosar. Undan nima ketdi? Ikki og'iz so'z. Bir xizmatchining qizini o'z qarindoshiga, o'z eshigida halol ishlagan yigitga olib beradi, yana o'z hamyonidan emas, yigitning peshana teri bilan topgan aqchasiga... Bu - bir. Yormat qizini birovga uzatadi, bundan boyga nima foyda? Sen Gulnorga uylansang, bu bilan boyga yana ko'proq bog'langan bo'lasan. Bundan boyga foyda bor, shunday emasmi? B^o B^o dedi-da, Yo'lchiga qarab ma'noli kuldi.

- Gapning bu tomonini qo'yavering yil emas, oy emas, uning eshigida bir kun ham turgim yo'q... Ish bitsin, keyin ko'ramiz, nasibamiz qaerda...

- Bilaman, tushunaman, kishanga tobimg yo'q,- dedi-da Qorato'y ko'zlarini ayyorcha qisib davom etdi,- lekin hozircha va'dani quyuq qilaver boyga. Sen ochiq so'z, ochiq ko'ngilsan. Boy - pishiq, mug'ambir odam. Sen ham pishiq bo'l. U shoxida yursa, sen bargida yur. Shunda yutasan!

Yo'lchi do'stining so'zlariga xaxolab kuldi, ma'qul deganday qo'lini cho'zib, uning yelkasini qoqdi. Umidlar bilan ko'ksi qavargan holda lablarida bir qo'shiqni shivirlab xo'jayinnikiga ketdi.

Vaqt namozgarga yaqin. Ko'cha qatqaloq. Mahalla bolalari, o'spirin yigitlar yungi hurpaygan ikki katta kuchukni urishtiradilar, g'azablangan kuchuklarning vovillashi, tomoshachilarning qiyqirishi ko'kni qoplaydi. Yo'lchi hech nimaga nazar solmay, odimlarini katta tashlab borarkan, Shokir ota uchradi, u boshiga tushgan qayg'u va falokatlardan juda munkillab qolgan edi.

Yo'lchini ko'rish bilan:

- Ha g'uvori, hali bir qishloqning seni qidirib yurgandi, yo'liqdimi?- dedi.

Yo'lchi o'z qishlog'idan kelgan odam bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rasha olmaganiga afsuslandi. Chunki kuzning boshida onasiga yigirma so'm yuborib, shundan buyon hech qanday xat, xabar olmagan, o'zi ham yo'qlolmagan edi.

Tashqari hovlida tahorat qilayotgan boydan hamqishlog'i to'g'risida so'radi. Boy bet-qo'lini artib, "bu yoqqa yur!" deb imladi.

Uning orqasidan Yo'lchi mehmonxonaga kirdi. Mirzakarimboy tanchaga o'tirib, qo'lini peshanasiga tirab bir minut sukut qildi, so'ng so'zni iimadan boshlashni bilmay, soqolining uchini tishlab dedi.

- Senga bir xat bor,- boy patnis tagidan xatni chiqardi,- lekin xushxabar keltirgan emas. Sen, albatta, og'ir, aqlli yigitsan, Olloning rizosiga bo'ysunarsan...

- Qanday xabar ekan, aytavering,- Yo'lchining qoshlari, ko'zlari savol va shubhani ifoda qildi.

- Ey dunyoyi bevafo!.. Onangdan ayrilibsan, jijan! Yo'lchi butun gavdasi bilan seskanib, yolg'iz "a!" degan keskin tovush chiqardi... So'zlashga tili qotdi, yuzi bo'zday oqardi. Uning baquvvat, metin gavdasi, ko'ksiga to'lgan qayg'uni ko'tarishga ojiz kabi egildi bukildi.

Mirzakarimboy Yo'lchiga dalda berish uchun, Olloning rizosiga bo'ysunish kerakligini, o'lim har kimning boshida omomsiz qilichini tutib turganligini ne-ne payg'ambarlar, ne-ne aziz avliyolarni o'lim olib ketganligi haqida gapirdi. Lekin bu so'zlar Yo'lchining qulog'iga yetmas edi. Uning butun vujudi abadiy ayriliq, onaning yodi va achchiq iztirob bilan lim to'lgan edi. Bolalarining baxti uchun kambag'al er bilan birga ishlab, tinib-tinchimagan, har qanday jafakorlikka o'zini otgan, mehribon, shafqatli ona! U o'lim panjasida chirpanarkan, to so'nggi nafasigacha mehnat, mashaqqat, azob ichida kechirgan bu dunyodan ko'zlarini mangu yumgancha, uni, Yo'lchini eslagandir... Esini tanigandan boshlab onasi bilan kechirgan zamonlar mas'ud, lekin qaytarilmas bir tush kabi, Yo'lchining ko'z oldidan bir-bir o'tadi. Mana so'nggi xotira:

Ikki yarim yil avval mehribon ona uni shaharga uzatadi. Ko'z yoshlarini quyib, qo'l ochib duo qilgandan so'ng, eshikka qadar uzatib qolmaydi, boshiga yaktak yopinib sokin qishloq ko'chasida uning orqasidan yuradi, go'yo uning qalbi o'g'il bilan birga ketishga intiladi, katta yo'lgacha kuzatadi, muhabbat bilan, ko'z yoshlari bilan... Yo'lchining ongida, o'tmish manzaralari jonlanar ekan, qayg'u ko'krakni yana chuqurroq ezadi. Nihoyat, og'ir xo'rsinish bilan boshini ko'tardi::

- Qachon? Qachon - so'radi. "O'ldi" degan so'zga tili bormadi. .

- Chamasi bir hafta bo'lipti. Sen endi. har kun qur'on o'qib, onangga bag'ishlayver. Shu o'zi kifoya. Arvohga tilovat qurKjon lozim. Yo'lchi hech nima demadi. Gilamda yotgan xatni qo'lida mahkam siqib, hovliga chiqdi, qayg'ulari to'lqinlanib, qalbini parchaladi.... Yigit o'zini tutolmay, birdan yig'lab yubordi, bulut yig'laganday ko'z yoshlarini kuchliB” mo'l toshtirib yig'ladi, ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladi...

III

Bulutli qish kunining yurakka ziqlik, beruvchi xira tongi edi. Gulnor onasi bilan birga uyda tanchada nonushta qilar, patnisda arpa unidan yopilgan sopolday nonbir kaft qurtlagan turshak... Ko'mir yo'qligidan, tarasha cho'g'i tanchani birpas bozillatib, so'ngan edi, Gulnor eski chit guppisiga o'ralib, nonni ishtahasiz tishlar, miskarlar tomonidan samovar taxlitida yasalgan qumg'ondan choy quyar edi.

Yormat ko'chadan keldi, yelkasini qisib tanchaga o'tirdi. Nafasidan chiqqan bug' bilan ho'llangan mo'ylabini dag'al barmoqlari bilan silab-artib, choy icha boshladi.

- Sovib qolipti. Qish kuni choyni nechog'liq qaynoq ichsang...B”norozilanib dedi Yormat.

Gulsumbibi uyda qitday o'tin, qitday ko'mir yo'qligini va choyni qiynala-qiynala bazo'r qaynatganligini so'zladi.

- Har yil ahvol shu. Yozda tog'-tog' o'tin tayyorlaysiz, huzurini xo'jayinlar ko'radi.

- Ko'p valdirama, xo'jayinga yalinsam, o'tinsiz qo'ymas. Xudo o'ldi-ettidan saqlasin!B”bir oz sukut qilib, yana so'zladi:- Mana Yo'lchini jo'natdik: xabarlarining yo'q shekilli...

- Qayoqqa? Nimaga?B”kutilmagan bu daxshatli xabar orqasida Gulnorni bir onda titroq bosdi.

- Enasi o'lipti,B”dedi Yormat,- kecha kechqurun xat kelgan ekan. Hozir qishloqqa jo'natdik. Jadal yursa, kechasi alla-pallada borib yetadi.

- Qari bo'lsa imonini bersin, o'lim haq,- dedi beparvo Gulsumbibi.

- Yo'lchiga qiyin bo'ldi,- sinovchi ko'zlari bilan qiziga tikildi Yormat,- bir o'spirin ukasi bor ekan, bu ham birovda ishlar ekan, o'zini eplab ketadi. Lekin o'n besh yashar bir singlisi... Ana u bechora nima qiladi?

- Voy bechora!- dedi Gulsumbibi birdan.- Sho'rlik qizga qiyin bo'lipti hammadan. Ona yo'q, bir aka bu yoqda, bir aka yana kishinikida ishlarkan deysiz. Yosh qiz, ko'chada qodibdi hisob-da. Endi nima qiladi Yo'lchi?

- Bilmadim, qishloqda erga berib keladimi, bu yerga olib keladimi. Menga hech nima demadi. Xo'jayin bir maslahat bergandir...- dedi Yormat.

Gulnor so'zga aralashmadi. Yo'lchiga tushgan qayg'u uning ko'nglini bir onda motam bilan qopladi. Uning halqumini dard qisib keldi. U yana bir oz shu yerda qolsa ho'ngrab yig'lashdan o'zini tiyishga ojiz ekaniga aqli yetdi-da, sekingina hovliga chiqdi.

Quyuq, uzun kipriklari ko'z yoshi bilan namlandi. Qalb azobidan kelgan ko'z yoshlarni koshki u to'xtata bilsa!.. U yugurib oshxonaga kirdi. Qaqir-ququrni yig'ishtirishni bahona qildi. Butun xayoli, borlig'i Yo'lchi bilan ovora bo'ldi. U qishloqqa ketayotgan g'arib yigitni tasavvur qiladi: mag'rur boshi bukilgan, ko'zlarida chuqur hasrat, qor bosgan dalada qadamlarini katta-katta otib, tanho boradi... Koshki u ham Yo'lchiga hamrohlik qilgan bo'lsa, u bilan dardlashib, g'amlariga sherik bo'lib, ovutib, yupatib u bilan birga tepalar, jarlar oshsa...

Goh Yo'lchining yetim singlisini tasavvur qiladi, uni quchoqlab-quchoqlab yig'lagisi keladi: "Ishqilib qishloqqa tashlab kelmasin, bu yerda man uning ko'nglini ko'taraman, unga chin opa bo'laman..." deb o'ylaydi va xayol suradi.

Goh Yo'lchining marhum onasini, xayol kuchi bilan jonli, ravshan tasavvur qilishga tirishadi. Gulnor qaynanalarning ko'pini badfe'l, urishqoq bo'lishini yaxshi bilsa-da, Yo'lchining onasini mehribon, ko'ngilchan, g'oyat samimiy bir qaynana kabi tasavvur qildi. Ilgari ham ba'zan o'z kelajagini o'ylagan vaqtlarda, baxtli hayot manzarasida, Yo'lchining onasini ham ko'rar edi, qaynanasiga yelib-yugurib xizmat qilishni orzu qilardi edi.

- Gulnor, qayoqdasan?B”dadasining ovozini eshitdi. Gulnorning yuragi o'ynab, darrov javob berdi:

- Men bu yerda, gapiravering,- dedi-da, ko'z yoshlarini yashirish uchun muzday suvda yuz-ko'zini yuva boshladi. Yormat oshxonaga yaqinlashib gapirdi:

- Hamma ish manda qoldi. Kech qaytaman. Sen bir ozdan keyin tashqari hovliga chiq, mehmonxonalarni supurib, asboblarni top-toza qilib qo'y!

- U yerda hech kim yo'qmi?

- Kim bo'lar edi?

- Xo'p, dada?

* * *

Gulnor mehmonxonalardan birini supurib, ko'rpachalarni hovliga olib chiqib qoqdi. Tokcha ichiga yasalgan qizil, yaltiroq silliq yog'ochdan ishlangan shkaflarni, bezak uchun u yerga, bu yerga qo'yilgan katta-kichik chiroyli xitoy vazalarni latta bilan yaxshilab artirdi. Keyin ikkinchi uyga o'tdi. Bu uyda har vaqt Mirzakarimboy o'tirar edi. Tanchaning ustida boyning sadaf tasbehi, ko'zoynagi

yotar edi. Gulnor ularni tokchaga olib qo'ydi. Chang chiqsin uchun, derazalarni ochdi. Uzun, go'zal sochlarini osiltirib, enkayib uyni supura boshladi. Nogoh, oyoq tovushi eshitdi, derazadan qarab Mirzakarimboyga ko'zi tushdi. Kamzulining tugmalarini darrov ilib, supuraverdi. Mirzakarimboy shoshib-pishib uy ichiga kirgach, Gulnor chetlanib, devorga qisilib, sekingina "assalom" dedi.

- E, gul qizim, shundamisan? Barakalla, oppoq qizim.- Boy bir zungina Gulnorga kulib qaradi. So'ng, uyni to'riga o'tdi, yana muloyim so'zladi:- Birovning omonat narsasi bor edi, qizim, unutibman. Ancha yerdan qaytdim.

Taxmonda ustiga sholcha tashlangan, og'ir po'lat sandiqni jaranglatib ochdi-da, bir nimani olib, tezgina cho'ntagiga yashirdi, sandiqni yana qulfladi.

Gulnor cholning chiqib ketishini qutib, devorga qisilgan holda turdi. U uyalgan edi. Chunki bir yildan buyon, onasining buyrug'i bo'yicha, boyga juda siyrak ko'rinar va unga yaqin kelmaslikka tirishar edi. Lekin, boy uchrab qolsa, albatta, gapga solar edi.

Hozir esa u bilan tanho uchrashganda, o'zini qayoqqa olishni bilmay, sarosimada qoldi.

- Oppoq qiz, kiyiming yomonku-a...- uy o'rtasida to'xtab dedi u,- nimaga Yormat menga arz qilmaydi? Onang qalay, kiyim-kechagi butmi? Uyalma, aytaver. Oppoq qiz, nega yuzingni burasan? Voy-voy, uyalma, tirikchiliklaring qalay, nima yetishmaydi? Manga aytmasalaring, kimga aytasanlar? Otalaringman

Xo'jayinning og'zidan bunday g'amxo'rlik, mehribonlikni birinchi marta eshitgani uchun qiz juda hayron bo'ldi, uyalibgina, ta'zim bilan javob berdi:

- Tirikchiligimiz avval qanday bo'lsa, hozir ham shunday. O'zingiz bilsangiz kerak.

- Qizim, man ko'p surishtirmayman,- qizga bir qadam yaqinlashib dedi boy, - avvalgiday degin, mazasi yo'q, degin. Yo'q, endi albatta, durust bo'ladi. Dadang qancha yildan beri manda ishlaydi. U kelganda san chaqaloqmiding yo onang qornidamiding? Ko'p zamon o'tdi. Qizim, dadang yahshi ishladi, yashirmayman. Ammo endi rohatini ko'radi, endi sizlarni ro'yobga chiqaraman,- boy, Gulnorga boshdan-oyoq razm solib, ko'zlarini qisib, labini yalab qo'ydi.

Gulnorning yuzi uyatdan olovlangan bo'lsa ham, dadasiga yaxshi turmush va'da qilgan xo'jayinga nisbatan so'zsiz bo'zarib turishni odobsizlik deb bildi, yerga qarab dedi:

- Yaxshiligingizni unutmaymiz...- Supurgini tashlab, teskari o'girilib tokchalarni tozalashga urindi.

- Beri kel, sanga bir nima ko'rsataman,- sekingina dedi xo'jayin.

Gulnor hech nimaga tushunmasdan, qizarib mo'ysafidga qaradi. Lekin turgan joyidan qimirlamadi. Boy haligi sandiqni ochib, oq lattaga o'ralgan bir tugunchak oldi.

- Beri kel, qizim!- qo'li bilan imladi kulib. Qiz taraddudlanib, sekin-sekin uning yoniga bordi.

Xo'jayin tugunchakni ochib, deraza tomonga o'tdi.

- Ko'rdingmi? Bu nima? Mana bu dur, mana bu marvarid. Mana bu yongan gavhar. Qolganlari - har xil toshlar, yoqut, zumrad.

Mirzakarimboyning hovuchiga sig'magan bu qimmatbaho bezaklar ko'zni qamashtiradi. Oq, sarg'ish dur va marvaridlar porillaydi, yoqutlar, gavharlar rang-barang yonadi. Hammasi bir-biridan go'zal tovlanadi. Gulnor qiziqib tomosha qildi.

- Mana bu durmi? Juda toza ekan. Nuri opamda ham bor-a?

- Hammasi asl, qizim. Menda past narsa bo'lmaydi, b' b' dedi xo'jayin, keyin qizga qarab, ko'zini qisib kuldi.- Ol, bir shodani taqib ko'r. Juda yarashadi... Bularning bari qizlarga, xotinlarga chiqarilgan. Ma, ol, taq...- deb Gulnorning hovuchiga to'kdi.

Qiz bezaklarni bir nafas hovuchida tutib, yorug'ga solib, yana tomosha qildi. Lekin, birdan, onasining mo'zini quchish uchun sovuqda qor kechib ketayotgan yetim, motamli Yo'lboshi eshladi. Qo'llari titradi, ko'zlarini hasrat bosdi.

- Yo'q, men taqmayman, boy ota. Ko'rdim, bo'ldi-da, oling, b' b' bezaklarni Mirzakarimboyga uzatdi.

- Voy, tentak qiz, uyaldingmi? b' b' U qarilikdan yoshi oqib, chetlari qizargan ko'zlarini Gulnorga allaqanday hirs bilan tikdi va soqollarini qashib, so'zladi.- Xo'p, hozir taqmasang, cho'ntakka sol, uyingga yashir, keyin taqarsan.

- Nima deysiz? b' b' hayron bo'lib so'radi qiz.

- Nimaga ag'rayasan, gul qizim? Buni man sanga berdim, ol, yashir!

- Yo'q, man sira taqqan emasman, boy ota! - dedi-da Gulnor orqasiga chekindi. Supurgini olib, chang'itmaslik uchun, sekin-sekin supura boshladi.

Mirzakarimboy: "ixtiyor sanda, qizim" degan gapni ikki-uch marta takrorlab, javohirotni qaygadir yashirdi va istar-istamas, sekin yurib chiqib ketdi.

Gulnor uyni yig'ishtirar ekan: "Boyning fe'li yaxshilanibdi, ilgari ziqna edi. Boyligi oshib-toshib ketdi, derdi dadam. Shuncha pulni, shuncha molni nima qilsin. Endi qarib, savob yo'lini esga olibdi. Dadamga, Yo'lboshi yaxshi qarasa, mayli-ya", deb o'yladi. Haligi bezaklar uning ko'z oldida yondi, ularni olmaganiga dam achindi, dam nimadandnr shubhalanib, yaxshi qildim - olmadim, deb o'yladi.

O'ninchi bob

I

Hakimboyvachcha ko'k chakmaniga o'ralib, qimmatbaho qunduz telpakni boshiga yengil qo'ndirib, atrofga nazar solmay, har vaqtdagi kabi, g'urur bilan kelar edi. Mahallaga qayrilishda go'yo uni kutib turgan kabi, ellik boshi Olimxon uchrab qoldi. U boyvachchaniig qo'lini yumshoqqina qisdi.

- Mulla Hakimjon, biznikiga marhamat qiling.- Xushovoz bilan dedi ellik boshi.

- Rahmat, Olimxon aka. Man uyga boray.- Hakimboyvachcha taklifni oddiy manzirat deb bilgani uchun ketmoqchi bo'ldi.

- Yo'q, boyvachcham,- ma'noli iljaydi ellik boshi,- ikki og'iz so'zim bor, tasaddug'ingiz bo'lay, marhamat qiling.

Hakimboyvachcha yelkasini qisdi. Istar-istamas, Olimxonning ketidan yurdi, qorong'i yo'lakdagi katta narvondan boloxonaga chiqdi. Boloxona bo'g'ot tomli, tishdan ko'rimsizgina bo'lsa ham, ichi bejirim - qadimcha edi. Shipi sharqcha naqshdor uy, naqshlar eskirib, rangi xiralangan, lekin hali diqqatni tortarlik holda. Tokchalar qadimcha - ganchdan ishlangan qat-qat katakchadardan iborat. Uyning to'riga eskiroq gilam, quyi tomoniga qip-qizil yangi namat solingan. Tancha atrofida yangi ko'rpachalar.

Hakimboyvachcha tanchaga o'tirib, orqasidagi yostiqqa suyandi. Ellik boshi mayin to'qilgan chakmanini yechdi, tuxumday silliq va oppoq sallasini olib qoziqqa ildi.

Dasturxon olib chiqish uchun shoshib-pishib hovliga tushib ketdi.

Olimxon, zamonasiga muvofiq, oliftanamo, yoshiga qaraganda, chiroyli, silliq kishi edi. Yoshi oltmishga yaqinlashgan bo'lsa ham,

odamlar ellikdan ortiq bera olmaydi. Ancha oq tushgan soqollarini, mo'ylovlarini muntazam qirdirib, tarab, silab yuradi. Har vaqt yaxshigina, ixchamgina kiyinadi. Barmoqlariga toshi yirik uzuklar taqadi. Soati ham bor, odamlar bilan gaplashganda, ko'kragida osilib turgan kumush zanjirni aksar vaqt o'ynab qo'yadi. Lekin Olimxonning muayyan kasbi-kori yo'q. Bir vaqtlar mayda savdo bilan mashg'ul bo'lgan esa-da, ko'pdan buyon biron ish olib borganini hech kim bilmaydi.

Olimxon bekor yurib tirikchilik qilishning ham yaxshi yashashning yo'lini topgan odamlardan. U juda quv, mo'ltoni odam. Pul qarz olib, yeb ketish, qalbaki hujjatlar yasash, soddadil odamlarning hovli-joylarini o'ziga qaratish singari harom ishlarning piri edi. Ayniqsa, mahallaga ellik boshi bo'lgandan keyin, mansabidai foydalanib, haliginday ishlarni avjga mindirdi. U o'n ikki yildan beri ellik boshilikdan tushmaydi. Mahalla fuqarolari u muttahamdan shikoyatlanib, qozixona va boshqa mahkamalarga arizalar topshirishlariga qaramay, xar saylovdan Olimxon sip-silliqlik chiqadi. Chunki mahallaning katta-kichik boylari, imomi, ulamosi bilan, xususan Mirzakarimboy bilan apoq-chapoq edi. Vaqti kelganda bular uni qo'ltiqlashadi. Olimxonning "fazilatlarini" sanoqsiz: u, ellik boshi bo'lgani uchun, hamma to'y, ma'rakalarga burnini tiqadi, mahallaning odamlari orasida yuz bergan har xil janjal va talashuvlarga boshi bilan kirib ketadi, bir janjalni bostirib, ikkinchi janjalni o'zi qo'zg'aydi. Bunday vaqtlarda u haq tomonni emas, qay tomon obro'liroq bo'lsa, porani ko'proq bersa, uni mudofaa etadi. Yerli-suvli puldor odam vafot qilsa, uning vorislarini bir-biri bilan jiqqamusht qiladi. Keyin loyqa suvda baliq tutib, o'ziga katta hissani qo'poradi. Boylar bilan qish-yoz gap-gashtak yeydi. Lekin o'zi hech vaqt gap bermaydi...

Hakimboyvachcha yolg'iz qolarkan, uning ma'lum va chala ma'lum kirdikorini bir-bir xotirdan kechirdi, uning epchilligiga qoyil bo'ldi. Lekin boloxonaga da'vat etilishidan shubhalandi: "Ehtiyot bo'lishim kerak. Yana bir hiyla-nayrang to'qiganga o'xshaydi. Mandan maslahat so'raydimi? Lekin, ish har qancha chatoq bo'lmasin, u birovdan yo'l-yo'riq so'ramasdi. Qaydam. Pul so'rasa, albatta yo'q deyman".

Olimxon meva-cheva bilan to'la bir patnis olib chiqdi. So'ng g'izillab tushib, shaqillab qaynagan samovarni keltirdi, choyni quydi. Yeb-ichib o'tirishni, odatdagicha, xushomadgo'ylik bilan taklif qildi. Boyvachcha danakday nonni og'ziga tashlab, vaqti ziqligini bildirmoqchi bo'ldi:

- Olimxon aka, so'zlang...

- Suhbatingizga orzumand edik, shoshmang. Marhamat qiling,- dasturxonga ishorat qildi Olimxon. Keyin urush xabardari to'g'risida, shoshmay-pishmay so'z ochdi. Eshitgan xabarlarini jabhaga borib kelgan odam kabi qat'iy gapira boshladi.

Dushmanning to'plari, aeroplanlari, "aqlga sig'maydigan" boshqa hunarlari haqida lof qildi. Hakimboyvachcha, urush xabarlariga har vaqq qiziqqanlikdan, diqqat bilan tingladi. So'ngra, o'zi ham gapirdi. Rus, tatar, yahudiy savdogarlaridan bu kun eshitgan ko'ngilsiz voqealarni, podshoh hukumatining ahvoli ancha tang ekanini to'kib soldi. Lekin ikkisi ham bu xabarlarining noto'g'ri ekanini o'z bilganlaricha isbot qilishga tirishdi. Har ikkisi podshohga va askarlarga Ollostan madad tiladi.

Yarim soatdan ortiqroq cho'zilgan bu qizg'in va zeriktirmovchi suhbatdan so'ng, Hakimboyvachcha sabrsizlanganini bildirdi. Ellik boshi bir minut qadar sukut qilib, haligi "ikkig'iz" so'zini qay turda boshlashni o'yladi-da, jilmayib qo'ydi.

- Mudla Hakim, bir nozik ish bor. Lekin xayrli ish. Bu ishga qadam qo'ymasdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tish, ra'yingizni bilishga to'g'ri keladi. Inshoollo, siz yolg'iz fikr berish emas, balki quvona-quvona bu ishga o'zingiz boshchi bo'larsiz...

- Gapiravering, yaxshi ishga belim bog'liq,- dedi Hakimboyvachcha, kumush portsigaridan papiros olib, labiga qistirdi, Olimxonga ham tutdi. So'ng, shubhali bir boqish bilan unga tikildi.

- Ma'lumki, mulla Hakim, erkakni qaridi, keksaydi deb bo'lmaydi. Chunki halloq olam o'z qudrat qalami bilan erkakni asl, puxta yaratgan. Erkakning jismidagi javhar tugamaydi...- Olimxon papirosni yoshlar kabi olifta qistirib, tutatib, so'zini davom ettirdi: - So'zim to'g'rimi? Mehribon onangizning o'lganlariga mana to'rt oyga yaqinlashdi. Boy otamni uylantirish kerak. U kishining yoshlari ancha ulg'aygan bo'lsa ham, lekin hali juda tetiklar. U kishining yuragi hali yigit yuragiday. Man buni juda yaxshi bilaman, u kishi hali ishdan qo'l uzganlari yo'q, xushchaqchaq suhbatni yahshi ko'radilar, yor-do'stlarinikiga boradilar. Bu narsa ko'rsatadiki, Mirzakarim otam dunyo lazzatini yaxshi tushunadilar, yana ko'p vaqt bu lazzatdan bahramand bo'lishni istaydilar. Modomiki ahvol shunday ekan, u qishining orzulariga quloq solishimiz kerak bo'ladi. Maqsadim shuki, siz - katta o'g'illari do'stlaridan man, ikkimiz bosh qo'shib uylantirsak... Bu juda shirin ish bo'lar edi-da...- Ellik boshi jilmayib mo'ylovini juda ohista siladi, Hakimboyvachchadan javob kutdi.

- Durust,- beparvolik bilan javob berdi Hakim,- men o'zim ham o'ylab yurar edim. Dadamga tahorat suvi beradigan, erta-kech holidan habar oladigan bir mo'min-ma'qul zaifa topilsa, yaxshi bo'ladi. Olimjon aka, siz bu xususda dadam bilan gaplashdingizmi? Yo do'stingizga o'zingizcha g'amxo'rlik qilasizmi?

Ellik boshi boyvachchaga choy quyib berdi, o'zi tishi bilan no'xotdek qandni ushatib olib, bir qultum choy ichdi, so'ngra shoshmasdan gapirdi.

«Б»Dastlab bu gapni dadangiz o'zlari o'rta otdilar. Bundan bir hafta ilgari uzoq gaplashgan edik. Man sizni xoliroq joyda uchrata olmadim. Xayr, ezgulikning kechi yo'q. Ammo, mulla Hakim, man hali dedim-ku, boy otamning ko'ngli yosh. Ko'ngilni yana yosh qilmoqchilar, tushundingizmi? Tahorat suvi beruvchi ayolni og'izga olmang, inim.

Hakimboyvachcha patnisni chertib, boshini chayqab, bir laha sukutdan so'ng dedi:

- Yosh xotin olmoqchi deng? Qiziq!

- Dadangizning orzulari bundan ham baland. U kishi yel o'pmagan gulni uzmoqchilar, nima deysiz? Ammo boy otamga yarashadi. Man u kishining ko'ngliga qoyil qoldim. O'tar dunyoda zavq-safo g'animat, ayniqsa dadangizga yarashadi.- Olimxon birdan tovushini sirli ravishda pasaytirdi. - Sizdan yashirmayman, dadangiz qizga uylanmoqchilar! Boyvachcha, ota orzusiga himmat kamarini bog'layvering...

Hakimboyvachchaning ko'zlari hayratdan ola-kula bo'lib ketdi:

- Qiz, shu gaplarning bari rostmi? Tavba!

- Hey-hey-hey,- ellik boshi kulib, ko'zlarini artirdi,- ignaning uchiday yolg'oni yo'q, quling bo'lay, boyvachcha. Men sizga tilmochlik qilyapman. Hatto, "kuyov yigit" o'zlariga munosib bir qizchani ham ishorat qildilar, o'hu, gap ko'p. Dadangizning tabiatini bilmas ekansiz-a?...

- Kimning qizi ekan u onamiz?«Б»dedi asabiylanib Hakimboyvachcha.

- Yonbag'ringizdagi Yormatning qizi!- beparvolik bilan javob berdi ellik boshi.

- A? Tushmi, o'ngmi? Nima deyapsiz o'zingiz? To'g'risi, hech xotirga kelmagan gaplar.- Boyvachchaning rangi bir oz oqardi, ko'zlari asabi ravishda qisildi, papirosni ustma-ust tortib, ancha vaqt jim qoldi, so'ng dag'allik bilan dedi:

- Boshqa qiz... topilmaydimi?

- Dadangiz bu to'g'rida shunday bir mulohaza yurgizdilar: o'z qo'limizda o'sgan mo'min-ma'qul, sinashta qiz, sirimizga oshna... Ammo, menimcha, ko'z oldilarida olovday yonib yurgan chiroyli qiz bo'lsa kerak u, ko'ngil u qizga andak moyildak ko'rinadi. Man shunday sezdim. Chiroyli qiz - oftobday ko'ngilni yondiradi. Chiroyli qiz - ko'zning nuriga nur qo'shadi. Qiz zoti - qizil olma: suvda balqib-qalqib kelayotgan qizil olmani ko'rsangiz, cho'kib ketishni unutib, qo'lingizni cho'zasiz unga... Boyvachcha, nima deysiz? Yormatning qizini dadangizga qo'shsak, naq uzukka qo'yilgan asl toshday o'z joyiga tushadimi? Hakimboyvachcha indamadi. Olimxonga qaramasdan, boshini quyi solib, bu kutilmagan voqeani o'yladi. Dadasidan ranjidi. Ayniqsa, Gulnorga ko'z tikkani uchun achchiqlandi.

Gap-gashtaklarda, o'tirishlarda kitobxonlik qilgan jo'ralari orasida "shirin suxan"lik bilan tanilgan Olimxon sayrayverdi. U Mirzakarimboyning tabiati haqida, chol kishi uchun qizga uylanishning foydalarini, qiz husni, uning lazzatlari, zavqi haqida lablarini yalab ishtaha bilan uzoq gapirdi. Uning qiz maqtovarlarga Hakimboyvachcha, nihoyat, chiday olmay, o'rnidan sachrab turdi.

- Xo'p, man ketdim.

- Mulla Hakimboy, otangiz bu ishga jazm qilganlar. Bir xizmatkorning qizini dadangizdan ayaysizmi? Siz aqlli yigitsiz, sizga o'rgatish qiyin, lekin aytayin, dadangizning orzusini qoniqtirish - sizga farz. O'g'il, qanday bo'lmasin, otaning quli bo'ladi.- Ellik boshi boyvachchaning oldini to'sdi.

- Xo'sh, man nima kilaman?- yerga qarab so'radi boyvachcha.

- Sizga shunday vazifa yuklanadi: ukangizga, singlingizga, xo'sh, yana kim bor, shularga ohista tushuntirasiz, ya'ni ular Mirzakarimboy otamga araz qilmasinlar, mana shu. To'y boshi albatta, men o'zim...

Hakimboyvachcha "yo'q" ham demadi, "xo'p" ham demadi. Olimxon bilan sovuqqina xayrlashib, uyga jo'nadi.

U hovlida o'ynab yurgan va "dada!" deb har yoqdan yugurishgan bolalariga nazar solmay, to'g'ri o'z uyiga - yangi, ko'rkam, ichlari havo rang bo'yoq bilan bo'yalgan va har xil qimmatli buyumlar, asboblilar bilan yasatilgan uyga kirdi. Uy juda sovuq bo'lsa ham, tanchaga o'tirmadi. Hech vaqt foydalanilmaydigan, lekin savlat uchun qo'yilgan yangi va kunguralari kumushday yarqiragan katta karavotga o'zini tashladi. Uzoq vaqt o'ylab yotdi. Dadasining uylanishiga qarshi turish uchun hech qanday asos topa olmadi. Chunki dadasi o'z so'zli, vaqti qelganda har qanday monelikni yakson qiluvchi zabardast keksa bo'lganidan, uning qizga uylanishiga to'siqlik qilish mumkin emasligini angladi. Ammo Gulnorga uylanishi boyvachchaning yuragini tirnadi. Chunki Hakimboyvachcha ko'ngli bilan bo'lmasa-da, erkak orzusi, hirsini bilan Gulnorga moyil edi. Gulnorning bo'yi o'sib, ko'kragi to'lishib, butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog'da boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'ygan edi. Lekin Gulnorga uylanish to'g'risida dastlab taraddudda qoldi. Birinchidan, bola-chaqali odam xotin ustiga xotin olsa, uyda har kun janjal-suron bo'lishi shubhasiz; ikki xotinning qovoq-dimog'iga qarab janjallariga qozi bo'lib, boshim qotadi, deb qo'rqqan edi. Ikkinchidan, bir xizmatkorning qiziga uylanishni - qiz qancha chiroyli bo'lmasin - O'z g'ururi, o'z obro'si uchun katta nuqson deb bilar edi. Chunki Hakimboyvachcha o'z g'ururi - obro'siga birovning oz-moz til tegizishini ko'tarmas edi. Lekin keyinchalik u bir qat'iy fikrga kelgan ediki, buning sillikli va illatsizligiga sira shak-shubha qilmas edi. U shunday qarorga kelgan: Farg'ona shaharlaridan biriga, masalan, o'zi ko'proq qatnaydigan Qo'qonga biron ish bahonasi bilan Yormatning butun oilasini ko'chiradi. Keyin o'zi borib, Yormatga kuyov bo'ladi. Qo'qonda bir xotin, Toshkentda bir xotin. Ular bir-birlarining yuzlarini ko'rmaydilar. Janjal-suron yo'q. Bu uylanishdan birinchi xotini va boshqalar sira xabardor bo'lmasligi ham mumkin. O'zi dam Toshkentda, dam Qo'qonda yashayveradi. Qo'qonda, Hakimboyvachcha xizmatkorning qizini olibdi, degan gap-so'z ham bo'lmas. Boyvachcha mana shu rejani amalga oshirish uchun jiddiy kirishmoqchi bo'lgan pallada onasi o'lib, yana bahorga qadar sabr qilishga majbur bo'lgan edi. Hakimboyvachcha hozir bu rejasini xo'p o'ylab ko'rdi. Buni shu kunlarda yuzaga chiqarish mumkin bo'lsa-da, oqibati xunuk ko'rindi. Dadasi ko'z tikkan qizni qochirish, unga uylanish ikkinchi marta ota yuzini ko'rmaslik bilan baravar edi. Hakimboyvachcha bu masalada o'zining uzoq vaqt taradduddanganiga, nihoyat, fursatni qochirganiga afsuslandi. Ortiq chora yo'q edi. U istar-istamas, Gulnordan voz kechdi.

Uning xotini Tursunoy tuxum bilan qovirilgan moyli qo'y go'shtini bir xitoy laganda keltirib, sandal ustiga qo'ydi: "Turing, sovib qolmasin", dedi. Hakimboyvachcha xo'rsinib o'rnidan turdi. Ovqatdan bir oz yedi-da, laganni chetga surib qo'ydi.

- Salim keldimi?B" dedi xotiniga.

- Shavkat yo'taladi; doktorgami, tabibgami ketdilar,- dedi xotini.

- Kelsa unga ayt, albatta menga uchrasin!- dedi-da, sovuqdan uvushgan badanini tanchaga tiqib yotdi.

* * *

Salimboyvachcha akasini har kungidan jiddiyroq va xafaroq ko'rdi. Yer to'g'risida bir chatoq odam bidan sudlashib yurgan edi, sud ishni buning zarariga hukm qilganmikan, deb o'yladi.

- Nima bo'ldi, xafa ko'rinasiz?- G'amxo'rlik bilan so'radi Salimboyvachcha.

- Dadam uylanarmish, nima deysan?B" shartta javob berdi Hakimboyvachcha.

- Muncha tez? Oyimning hayit-ma'rakasi o'tmasdan! Hakimboyvachcha qo'lini silkidi.

- O'ldi ketdi. Joyi jannatda bo'lsin,- dedi u,- men ellik boshi bilan gaplashdim. Chol unga hamma sirini aytipti.

- Xo'p... Qidirsin. Ozoda, saranjom-sarishta, befarzand, xo'sh, yoshi ulg'aygan bir ayol topilsa mayli...

Hakimboyvachcha ukasiga qarab kinoya bilan kuldi, boshini ma'noli qimirlatib sukutga ketdi.

- Nima? Yosh xotin olmoqchimi? Tavba!B"Salimboyvachcha ko'zlarini olaytirib sabrsizlik bilan gapirdi.- Bu teng odamlar uyda namoz bilan, tasbeh bilan ovora.

Salimboyvachcha achchiqlanib, yuzini teskari burdi.

- Salim, hali dadam tetik emish,- yotig'i bilan tushuntirishga tirishdi Hakimboyvachcha,- qartaygan choqda aysh-ishrat surmoqchi emish. Xo'sh, biz nimaga to'siq bo'lamiz? Bilasan-ku dadamning fe'lini, uning fikrini birov kesa oladimi? Hovliqima, uka, man sani maslahat uchun chaqirdim.- Yana xo'mrayibroq, ovozi pasaytirib dedi,- u yog'ini so'rasang, aytaymi, dadam Yormatga kuyov bo'lmoqchi! Gulnorga uylanmoqchi!..

Salimboyvachcha o'rnidan irg'ib tushdi. Jahldan tanchaga bir musht urib, tancha ustida turgan katta lampani qulatay dedi. So'zlashga tili qotgan kabi, ancha vaqtgacha akasiga baqrayib qoldi, kipriklari qo'rquvdan, g'azabdan asabiy pirilladi.

- Nimaga titraysan?B" dedi vazminlik bilan Hakim.- Ota rizosi Ollo rizosi. Dadam qiz olmoqchi ekan, olsin. Gulnorni olmoqchi ekan, olsin. Uka, biz to'siq bo'lmaydik, cholning dili og'rimasin...

- Qo'limizda cho'ri bo'lib o'sgan qiz sizga, manga ona bo'lsin, oilaning boshiga chiqsin. Isqirt Yormat bizga bobo bo'lsin!B" dedi

baqirib Salimboyvachcha.

- Sekin! Sekin gapir! Ё Ё "Hakimboyvachcha labini tishladi,- xotinlar eshitsa, gap-so'z chuvaladi. Xo'p, Gulnorga uylanmasa, boshqa bir kambag'alning qiziga uylanadi-da. Har qancha boy bo'lmasin oldi-keti to'la nabira bo'lgan cholga durust oila qiz beradimi?

- Qizmi, juvonmi, Gulnormi - baribir, man dadamning yosh xotin olishini xohlamayman,- dedi Salim, o'rnidan turib, uy ichida asabiy yura boshladi. So'ng, tancha ustida yotgan papirosidan olib, gugurt chaqishga sabri yetmay, qoshini kuydirib lampadan tutatdi va akasining naq boshida turib so'zlab ketdi:

- Nimaga kuyaman, aka, bilasizmi? Yosh xotin shartta-shartta tug'averadi. Bir vaqt kelib, dadamning kuni yetsa, Gulnorning churvaqalari bosh ko'taradi. Ularga himoyachilar topiladi. Yaxlit davlat, bilmadim, necha bo'lakka bo'linadi. Sag'ir-kabirlarga ajratilsa, tog' ham uvoqlanadi. Shunday kilib, Mirzakarimboy xonadonidan baraka uchadi. Siz bu narsalarni o'ylamaysiz shekilli... Ukasining mantiqi qarshisida Hakimboyvachcha ham esankirab qoldi. U hali ko'proq boshqa xayollar bilan bosh qotirib, bu tomonlarga ahamiyat bermagan, to'g'risi, esga keltirmagan edi. Chunki uning qo'li "uzun" edi, davlatning bir qismini dadasidan, ukasidan yashirin ishlatib, xolis o'ziga qarashli katta bir boylik orttirgan edi. Lekin bunga qaramasdan, hozir uning ko'z oldidan bir qator go'daklar, o'gay ukalar o'ta boshladi. U boshini qo'llari orasiga olib, jim o'tirdi. Nihoyat, charchaganday, bir uh tortdi-da, sekin gapirdi:

- Bir iloj top. Six ham kuymasin, kabob ham.- Salimboyvachcha javob bermadi. Uning harakatlari notinch... jahldan barmoqlarini tishlab, dadasining, Yormat va Gulnorning sha'niga bir-biridan achchiq, o'tkir so'zlarni o'z-o'zicha ming'irayverdi.

- Behuda yonma, uka, bir aql top!

Salimboyvachcha akasining yoniga tiz cho'kdi, bo'g'ilib shivirladi:

- Munga nima deysiz?.. Uylanmasdan ilgari dadam hamma mavjud dastmoyani, butun yer-suvni va boshqa mulklarni bizga hujjat qilib berib, muhr bilan mustahkamlasa... Boshqa narsa kerak emas. Keyin kimni olsa olsun, hech ishim yo'q.

Hakimboyvachcha yalt etib ukasiga qaradi. Yengillangan kabi ko'kragini ko'tarib xo'rsindi-da, mo'ylabi orasidan jilmayib:

- Juda soz. Ko'p odamlar shunday qilishadi. Lekin cholga og'ir botmasmikan?- dedi.

- Yo'q, sira xafa bo'lmaydi,- dedi Salim,- dadam boylikni biz uchun topgan. Gulnorga uylanishni jazm qilgan bo'lsa, bu talabimizni rad qilmaydi. Bu shartga ko'nmasa men tamom noroziman...- qo'lini keskin silkidi Salim.

- Norozi bo'lishdan nima foyda? Dadangdan kechasanmi? U xohlagan ishini qilaveradi. Haligi fikring soz. Man ertaga ellik boshi orqali dadamga bildiraman. Javobi qanday bo'ladi. Buni ayta olmayman... Har holda ko'ndirishga harakat qilaman. Uka, man uch-to'rt kundan keyin Farg'onaga jo'nayman. Lekin san cholning ko'nglini zarracha og'ritma, durustmi?

Salimboyvachcha akasining bunday "bo'shang"ligiga g'azablanib, uni koyimoqchi bo'lgan paytda, eshik ochilib, Tantiboyvachcha kirib keldi. Ikki og'a-ini bir qadar sarosimaga tushib, o'rinaridan turishdi.

- Suhbatlaringni buzdim shekilli, salomatmisizlar? Ё Ё "Tantiboyvachcha ko'rishib, og'ir po'stini bilan sandalga cho'kdi. Aka-ukaning basharasiga razm solib, kinoya bilan dedi:

- Ko'zlaringiz bejo, nima bo'ldi, tinchlikmi?

- Tinchlik, tinchlik...- aka-uka birdan javob berishdi.

- Man sizlarga xushxabar keltirdim,- taltayib kulib dedi Tantiboyvachcha,- xudo jiyaningiz Mirobidga o'g'il berdi, sevinchi cho'zinglar!

- O'ho', juda yaxshi. Muborak bo'lsin nabira!

- O'n olti yoshda Mirobid o'g'il ko'rdi-a. Tavba!

- Kichkina ota!

- Biz yigitcha - bobo bo'laylik,- xaxolab kuldi Tantiboyvachcha.

- Dadam,- kinoya bilan kulib dedi Salimboyvachcha,- mana evarali bo'ldi. Katta to'y qilib bersin endi...

Hakimboyvachcha labini tishlab, ukasiga ma'noli qarab qo'ydi...

II

Ikki ovsin - Tursunoy bilan Sharofatxon - birga o'tirib, "hasratlashar" edi. Erlari Hakim va Salimboyvachchalarning uch kundan buyon qovoq-dimog'larini osilganining sababini bu kun bilishdi. Qaynatalari Gulnorga uylanish niyati ular uchun katta motam bo'ldi. Chunki ular katta og'iz, kutuvchi, butun ro'zg'or, mol-mulkka o'zini yagona xo'jayin hisoblagan, o'ziga izzat va hurmatni benihoyat talab qilgan qaynanadan yaqinda qutulib, uy ichida o'zlarini endi bir daraja mustaqil seza boshlagan edilar. Qaynataning qayta uylanishi yodlariga kelmagan edi ham. To'satdan cholning Gulnorga uylanish orzusi ularning kapalagini uchirdi. Ikki ovsin, oralaridagi dushmanlikni hozircha yig'ishtirib, kutilmagan falokatni o'ylay boshladi. Ularning yuragiga motam solgan "falokat" mana shu vahimadan iborat ekanligi suhbat vaqtida aniqlandi: Gulnor cho'ri qiz. Bizlarning otalarimiz kim? Toshkentning eng ovoqali boyi. Cho'ri qiz bizga qaynana bo'ladimi?! Gulnor cho'ri bo'lsa ham, juda chiroyli qiz. Shuning uchun chol uni qadrlaydi. Yosh, chiroyli xotinga yoqish, uning ko'nglini ko'tarish uchun, uni hammamizning boshimizga o'tqazib qo'yadi. Keyin Gulnorga xudo berdi, u erka-arzanda xotin bo'lib, eriga suyalib, ko'ngliga nima kelsa, shuni qiladi, bizni har narsadan chetga qoqadi, balki boshimizda yong'oq chaqadi. Kambag'alning qizi ochko'z, molparast bo'lmasdan iloji yo'q. Uydagi hamma asil buyumlarni o'zi egallab oladi, biz unda nima qilamiz? Qaynatamizga qarshi "churq" etib og'iz ocholmaymiz, erlarimiz bo'lsa ota ko'rsatgan izdan chiqishmaydi... Agar chol bironta qari xotinga uylansa edi, ikkalamiz "ittifoq" yasab, uni yumaloq yostiq qilib chetga otar edik... Bu falokatga to'siqlik qilishdan ojiz bulgan ikki ovsin shu kayfiyatda hasratlashar ekan, darvoza yoqdan Nurining yig'isi eshitildi. Ular shoshib-pishib o'rinaridan turishdi-da, qayinsingilni qarshi olish uchun hovliga tushishdi.

Onasi o'lgandan beri Nuri tez-tez kelib turar edi. Ona o'limiga dastdab chiday olmagan kabi ko'ringan Nuri, sekin-sekin taqdirga tan bergan, hatto avvalgiday bir gapirib, o'n kuladigan bir holga kelgan esa-da, har kelishda eshikdan baqirib kirar edi. Chunki qo'ni-qo'shnilar: "falonchining qizi bemehr ekan" deb ayblashlari mumkin!.. Shuning uchun u har gal uyda, yo ayvonda cho'qqayib, istar-istamas, yig'i berar, ya'ni dastro'molni yuziga tutib, ko'zidan qatra yosh chiqmasa ham, onasining sha'niga bulbulday aytib "yig'lar" edi. Tursunoy va Sharofatxon qaynananing o'limiga ichidan g'oyat sevingan bo'lsalar ham, sir boy bermaslik uchun va Nuridan qo'rqqanlari uchun, ovozlarga cho'ziq, qalbaki motam ohangi berib, bosh yig'ichiga jo'r bulishar edi. Bu kun ham naq shunday qilindi. Yig'idan so'ng ikki ovsin darrov Nurini o'rtaga olib, shivir-shivir bilan "falokat"ni tushuntira boshladi. Nuri bu voqeaning uchini eshitgan hamon bezgakday qaltirab ketdi, ko'zlari jinni ko'ziday qo'rqinchli bir g'azab bilan olaydi. Hatto kelinlarni qo'rquv bosdi. Nurini sekingina xoli uyga olib kirishdi.

- Gulnor qani?- yulini b qairdi Nuri.- Hozir bo'g'ib o'ldiraman!..

Tursunoy bilan Sharofatning rangi bo'zday oqardi. Chunki erlari bu sirni hozircha zinhor og'izdan chiqarmaslikka buyurishgan edi. Endi ular bir-biriga gal bermas, Nurini avrashga, yupatishga harakat qilishdi.

- G'avg'o ko'tarmang, dadam xafa bo'ladi, yotig'i bilan ish qiling! Akalaringiz kelganda ularning oyoqlariga yiqilib yig'lang, bizlardan eshitganingizni bildirmang, durustmi? Dadamga munosib xotinni men o'zim topaman, deng...

Nuri mast jinniday betoqatlanib, kunni o'tkazdi. Kechqurun Salimboyvachcha do'kondan qaytgach, Nuri, kelinoyilari o'rgatgandek akasining oyog'ini quchib yig'ladi. Salimboyvachcha singlisini turg'izib, tanchaga o'tqazdi. Lekin titrab-qaqshab gapirdi:

- Eshitdingmi? Man sandan battar kuyaman. Lekin foydasi yo'q, Nuriyoy! Biz hammamiz dadamizning qulimiz. Man sanga, to'yga aralash, bosh bo'l demayman... Lekin og'zingni yum! Nima bo'lsa ko'rarmiz.

- Qanday ota u? ВЪъqichqirdi Nuri,- oyimning tuprog'i sovumasdan, cho'ri qizga uylanadimi? Kimsan Mirzakarimboy, tagi past, qashshoq qizga uylansa men qanday chidayman! Iflos cho'ri qiz uyimizga boshliq bo'ladimi?! Bilaman, juvonmarg Gulnor o'zi qoshini qoqqan, ko'zini uchirgan, shunday qilib dadamni yo'ldan ozdirgan.

Salimboyvachcha istehzo bilan kuldi, zo'r bilan Nurining ovozi o'chirdi. So'ngra imo bilan xotinini uydan chiqardi-da, mol-mulkii hozirdan o'zlariga o'tkazib olish to'g'risidagi u kungi fikrni tushuntira boshladi...

Ikkinchi kun ertalab Nuri akalari kabi bo'shanglik qilishni istamay, mahalladan bir kampirni topib, unga bosh-oyoq kiyim berish va'dasi bilan zo'r folbinga boshlab borishni so'radi. Kampir paranjini boshga ilib Nurini mashhur "qo'ng'iroq" folbinga (ba'zilar "rost folbin" ham deyishadi) surgadi. Sho'rtepa mahallasidan o'tib, jarlikka tushdi. Objuvoz, tegirmonlarning yuqorisida, yeri sho'rxok, devorlari buzuq-yoriq bir hovliga kirishdi. Hovli o'rtasida chirik gavdasi o'raday o'pirilgan, qari bahaybat bir tup tol.

Uning tarvaqaylangan qo'pol, yalang'och shoxlari hovlining u burchagidan bu burchagiga yetadi. Ularga qo'nib o'ynagan qarg'alar, bir nimadan cho'chigan kabi, ayanchli tovush bilan qag'illashadi... Nuri oldinroq yurib, sahnini yalang'och, eni bir bo'yra qadar ayvonga yaqinlashgach, tuproqqa qorishib yotgan katta, paxmoq kuchuk zanjirini shaldiratib o'rnidan turdi. Nuri cho'chib orqaga qochdi. Lekin, kuchuk keskin bir "hov" bilan jim bo'ldi, yalqovlanib yana yotdi. Nurini naq mozoristonda yolg'iz qolgan kabi bir vahima bosdi, rangi o'chib, kampirning pinjiga tiqildi, shubha va qo'rquv bilan atrofga qarab-qarab qo'ydi. Ayvoncha bilan bir qatorda, qo'rg'on kabi baland, haybatli, lekin juda eski paxsa uyni is bosgan, qora eshigi jimgina ochildi, ostonada mudhish bir maxluq paydo bo'ldi: bu folbin edi. Uning yoshini tayin qilish qiyin, qaddi u qadar egilmagan, lekin skelet kabi nuqul suyakdan iborat bo'lgan kichkina xotin, burushiqtirish yuzi - olqindi sovun; chuqur, ichiga botgan munchoqday ko'zdarida dahshatli qora olov yongan kabi... boshida qora ro'molcha... Chirkin, kir sochlari haligi kuchukning yungi tusida va o'shanday dag'al, qalin, uzun, cho'pday ingichka suyak barmoqlari bilan eshik halqasini ushlab, Nuriga ancha vaqt baqrayib qaragandan keyin, ko'ylak etagini yerda sudrab, ikki qadam oldinga yurdi. Nuri uning oldiga borishga qo'rqib, uzoqroqdan og'zaki so'rashdi. Kampir esa, go'yo u folbin bilan egachi-singil kabi, quchoqlashib ko'rishdi. Nuri shoshib maqsadini anglatdi. So'ngra, o'z kampiriga suqulib, folbin orqasidan uyga kirdi. Uy zindon singari qorong'i va sovuq, uyda nima borligini g'ira-shira ko'rish ham ancha qiyin. Folbin uy burchagida oqarib ko'ringan chodir ichida yo'qoldi. Bir ozdan so'ng u yerdan uning xasta tovushi chiqdi: "Eshikni yopinglar, muakkirlarim yorug'dan qo'rqadi..."

Eshik yopilgandan keyin qorong'ilik dahshatli ravishda quyuqlashdi. Nuri turtina-turtina chodir tomonga borib, o'tirishga tirishdi. Qo'rquvdanmi, qorong'idanmi uning nafasi tiqildi... Nogoh burchakdan qo'ng'iroqli chirmanda guldurab ketdi. Nuri bir seskanib chushdi, ko'zlarini yumdi. Chirmanda bo'g'iq gumburlaydi. Qo'ng'iroqlarning jarangidan vahima uchadi. Go'yo chirmandani odam chalmaydi. Qorong'i kechada mudhish jar yoqasida dev chaladi. Oyoqlariga, qo'llariga qo'ng'iroq taqqan qo'rqinchli ajinalar raqs etadi!

Bu mudhish mash'um bazmga haligi yalmog'iz folbinning xasta ovoz bilan vaysashi qo'shildi: "Yo Sulton! Yo chilton! Hu-hu-hu!..."

Folbin uzoq vaysadi. Jinlarga yalindi-yolvord, odam kulgisiga o'xshamagan bir yo'sinda qiyqirib kuldi...

Nuri o'zini chinakam jinxonada his qildi, atrofini go'yo jinlar o'radi, boshi aylanib, sovuq ter bosib, ko'zlari yumila bordi...

Kampirning: "Turing, Nuriyoy!" degan tovushini eshitmas qoqila-suqila o'zini eshikka otdi. Og'ir, qo'rqinchli tushdan qutulgan kabi, horg'in "uh" tortdi, lekin quloqlaridan haligi jin bazmining guvillashi ketmagan edi. Bir ozdan so'ng folbin eshikka chiqib, ularning, ya'ni Gulnor bilan Mirzakarimboyning "dillarini bog'lagan ipni" jinlar uzganligini yamlanib-yamlanib so'zladi. So'ngra, yakkam-dukkam iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi. Folbin og'zini yig'ishtirib, lattaga chandib o'ralgan, kattaligi danakday bir nimani yeng uchidan chiqarib berdi. Bu "amal" edi. Bu kichkina tuguncha ichida mozor tuprog'i, temirtak, tobutning cho'pi, sovun, o'lik tirnog'i va hokazolar bor edi. Ularning har biri Gulnor uchun bir balo va ofatga ishorat qilishi kerak: mozor tuprog'i - Gulnor tezdin tuproqqa qorishsin uchun; temirtak - Gulnor temirday qotsin uchun; tobut cho'pi va o'lik tirnog'i - bularning dahshati o'z-o'zidan ma'lum; sovun - Gulnor sovunday erisin uchun. Folbin bu dahshatli tugunchakni Gulnorning ostonasiga ko'mish kerakligini uqtirdi. Keyin, bir parcha xamirni odam boshi kabi yumaloq qilib, qirg'igna bilan haligi xamirni muttasil sanchib turish kerakligini va buning orqasida Gulnor qattiq bosh og'rig'iga muhtalo bo'lib, tez kunda o'lishini tushuntirdi. Folbin jinlarining kuchiga Nurining eKjtiqodi ming marta oshganidan, o'n so'm pul chiqarib berdi va folbin aytganlarini tezroq bajarish uchun uyga yugurdi.

O'n birinchi bob

I

Yormat xo'jayinning sigir-buzoqlariga tert qorish bilan mashg'ul bo'lgan xotinining oldida to'xtadi. Uning yuzida muloyim tabassum, butun siymosida, qandaydir bir sabrsizlik sezilar edi. U Gulnorning qaerdaligini so'radi. Yumush qilish uchun hozirgina xo'jayinnikiga chiqqanligini eshitib, peshanasini burishtirdi va:

- Ayt, endi u yerga chiqmay tursin!- dedi. Gulsumbib hayron bo'lib, ko'zlari bilan savol qildi: nimaga? Yormat xotinini ayvonga boshlab keldi.

- O'tir,- jiddiy buyurdi Gulsumbibiga, so'ng o'zi ham o'tirib gapira boshladi.- Man hozir ellik boshinikidan keldim. Qiziq narsalar eshitdim, xotin. Eshitganmisan, bizning ellik boshimiz qanaqa odam? Butun mahallaning otasi. Yetti yashardan yetmish yashargacha unga salom beradi, qo'l qovushtiradi. Obro'si baland, so'zda yagona odam. Zakun biladi.

Gulsumbibida bardosh qolmadi, eridan ko'z uzmasdan so'radi:

- Nimaga chaqiripti sizni, yaxshilikmi?

- Yaxshilik, manga qolsa, tushga kirmagan yaxshilik. Hammasini gapiraman. Ammo "g'ing" demaysan, naq ayvondan

29 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

uloqtiraman!- Yormat o'qraydi.

- Zardangiz qursin, har vaqt do'q bilan gapirasie!

- Xotin kishida tovuqcha aql bo'lmaydi, zarda qilmasdan iloji yo'q,- qovog'ini solib, so'zini davom ettirdi Yormat.- Ellik boshi mani chaqirib oldi. Fozil odam bilan suhbatlashsang rohat qilasan-da. U kishining so'zlari kitobda ham yo'q, shunday ma'noli... Ana so'zga ustaligu. Gaplashdik. Dasturxon joyida, qand-qurs, meva-cheva sanog'i yo'q... So'zlashdik, xotin, u kishi so'zni aylantirib, sizdek baxtli ota jahonda, yo'q dedi. Hayron bo'laman. Og'zim qiyshayadi, ko'zim javdiraydi, dono odamga sadaqa bo'lsang arziydi, u kishi juda muloyimlik bilan ravshan qildi: xo'jayin u kishini o'z yoniga chaqiripti, mani maqtapti, xulosa, Yormat bir qizini mandan ayamasin, deпти boy otam...

- Kinga deпти xo'jayin?bʻʼhayron bo'lib so'radi Gulsumbibi.

- Ho'kizning qulog'iga tanbur chertdimmi, nodon xotin!- qizarib ketdi Yormat.- Kinga bo'lar edi, boy otam o'ziga so'rayapti. Gulsumbibi irg'ib tushdi-da, ikki qo'li bilan ikki tizzasiga shart-shart urib, bobillab gapira ketdi:

- Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? Qarib miyasi aynagandir. Voy, uch kun ilgari evara ko'rdi-ya! Imonsiz ketkur...

- Jim!bʻʼmushtini ko'tardi Yormat.- Tovushingni o'chir, xudo hammaga aql ulashganda san qay go'rda eding!

- Siz nima javob berdingiz?- dedi butun a'zosini titroq bosgan Gulsumbibi qichqirib.- Yetmish yashar cholga yolg'iz qizimni bermoqchi bo'ldingizmi? Ota bo'lmay keting, bema'ni!..

- So'zga quloq sol, shallaqi makiyon!bʻʼYormat ko'zlarini nayzaday qadadi.- Yetmishda emas, oltmish beshda. Qarimi? Qari bo'lsa ham mandan, sandan tetik hali. Qarg'ama, quloq sol. Mirzakarimboy xudo yarlaqagan banda. Shuncha mol, mulk, shuncha obro'. Qizim Gulnor shunday ulug' dargohga tushsa, yomonmi? Keksaligini o'ylaysan-ku, bu tomonlarini nazar-pisand qilmaysan?! - Yo'q desangiz boy tilingizni kesarmidi?- bo'g'ilib dedi Gulsumbibi.

- Tilimni kesmaydi, bundan battarroq qiladi. Oramizga sovuqlik tushadi, mana bu yomon narsa. Keyin man ko'rpa-yostig'imni ko'tarib, qay eshikka boraman? Ko'rpa-yostig'ini orqalab xor-zor yurgan odamlarning sanog'i yo'q. San zamonni tushunasanmi, o'ylab qara, agar shu xom qovoqda miyang bo'lsa, yig'lama, kasofat; yig'i bilan boshlangan to'yning oqibati yomon bo'ladi. Quvonib-quvonib tayyorlik ko'raver!

- Nimaga yig'lamay, koshki ko'zim oqib tushsa, hech nimani ko'rmasam...- ko'z yoshlarini quyib so'zladi Gulsumbibi.- Davlati qursin, boyning o'g'illari, kelinlari, qizlari Gulnorni chiqishtirmaydilar, ularning fe'li, odati manga ma'lum-ku. Uch-to'rt kundan buyon ularning avzoyi buzuq edi, betlaridan zahar tomar edi. Sababini endi tushundim. Mana hozirdan boshlab ko'rsatgan qiliqlari! Siz hali chuchvarani xom sanabsiz.- Gulsumbibi ko'z yoshlarini etak uchi bilan artib, so'zida davom etdi:- To'g'ri, ular boy, juda boy. Ammo ular Gulnorga tinchlik bermaydi. Boyning uyi saroy bo'lsin, baribir Gulnorga zindon bo'ladi. Qizingizga munosib bir yigit topilmasmidi? Topiladi. Mana Yo'lchivoy. Tog'ni ura talqon qiladigan yigit. Qizimni och-yalang'och qo'ymasdi. Gulnorning ko'ngli ham moyil edi. Yashirib nima qilay sizdan....

Yormat sapchib o'rnidan turdi, toqatsizlanib u yoqqa-bu yoqqa yurdi, yoqasini ushlab "tavba" deb, yana xotiniga o'dag'ayladi:

- Akillama! Yo'lchi kim? Manga o'xshash bir malay-da. Xizmatkorning yorug'liqqa chiqqanini man xali ko'rgan emasman. Ahmoq!

"Mo'h, mo'h" desa, qo'y ham tushunadi. Ammo sanga so'z uqtirib bo'lmaydi. Yig'i-sig'ini yig'ishtir, agar joning shirin bo'lsa...-

Yormat eshikka tomon bir necha qadam tashlab, so'ng yana qaytib keldi-da, yumshoqroq so'zladi,- qo'shnilarga chiqib aljirama. Olimxon akaning oldida so'z berdim. Ota rizosi - fотиha bilan baravar. Gulnor chiqsa, ayt, tushuntir, nasihat qil. Bu ishlar sandan lozim. Qizim aqlli, bekorga to'polon qilmas. Durustmi?

Gulsumbibi yolg'iz qolarkan, o'zining "tosh peshanasidan", baxti qaroligidan shikoyatlanib, dam erini, dam boyni qarg'ab, dam xudoga yolvorib o'tirardi. Yana nima qilishi mumkin bechora ona! Hammadan ko'ra yuragini chuqurroq ezgan, butun vujudiga zahar kabi tarqalgan narsa - Gulnor bilan uchrashuv, unga o'z otasi keltirgan bu shum xabarni bildirish edi. U Gulnor kabi sevikli qizini, ko'z nurini olovga otib, yana uning baxt va saodati to'g'risida nasihat qilishi kerak!

Kechga yaqin Gulnor chiqdi. U ancha horg'in va xafa ko'rindi. Gulsumbibi qizi dam olgandan keyin, kechasi yoki ertaga astagina bildirmoqchi bo'ldi. Ammo qizining o'zi ona yuragini ochishga majbur qildi. U paranjisini qo'ymasdanoq hayrat bilan so'radi:

- Nima bo'ldi, oyi, dadam bilan urishdingizmi, ko'p yig'labsiz?

- Dadang qurg'ur xafa qildi meni,- O'zini tetiklikka solib dedi ona,- qani, paranjingni qo'y, yonimga o'tir. Hamon dardimni ocha qolay...

Gulnor paranjini qoziqqa ilib, onasining yon bag'riga o'tirdi va ko'zlarini tikdi.

- Bolam, bundan keyin xo'jayinnikiga chiqma. Dadang buyurdi.

- Shumi? Koshkiydi o'sha hovlini ko'rmasam. Iloji bormi? Yumushlari ko'p, o'zlari chaqirishadi.- Bir oz to'xtab davom etdi Gulnor.- Oyi, siz sezasizmi, boynikida orqamdan kulishadi, gapirishadi, piching, kesatiq-mesatiq... Man yaqinlashsam, jim bo'lishadi. Nuri opa ilonday chaqqisi keladi. Hartugul bu kun uyiga yo'qoldi, uh... juda jahlim chiqdi, oyi. Ha, nimaga chiqartirmaydi dadam?

Gulsumbibi bu savolga javob berishdan avval, kambag'alchilikdan, erining ahvolidan shikoyat qildi, yolg'iz qizi Gulnor orqasida tirikchilikning yaxshilanishiga umid qilganini so'zladi.

- Xayolingiz qaeda, nima so'zlayapsiz oyi? Tuzukkina gapiring!bʻʼdedi Gulnor taajjublanib.

- Bolam, shu mushtipar, shu baxtsiz onangning yarasiga tuz sepmasang, yurak-bag'rini qon qilmasang, dadang keltirgan xabarni aytaman.

Ona chuqur mehribonlik ifoda qilgan yoshli ko'zlari bilan qizga qaradi.

- Oyi, so'zlang, tezroq, nima, tinchlikmi, nimaga titraysiz?bʻʼGulnor ko'zlarini javdiratib onasga yaqinlashdi.

Onada bardosh qolmadi. Ho'ng-ho'ng yig'lab, Yormat keltirgan mudhish xabarni sevikli qiziga bildirdi. Gulnor hushsizlangan kabi, boshini onaning tizzasiga otdi. Ancha vaqt "qimir" etmay yotdi. So'ng, boshini ko'tarmasdan, yig'i aralash qichqirdi:

- Oyijon, xudodan o'limimni tilang, tezroq tilang!- yana jim bo'ldi...

II

O'g'li Tohirjon sil kasalidan o'lgandan keyii Shokir otaning beli yana ko'proq bukilgan, ko'zlari yig'i bilan yapa ko'proq kuchsizlangan edi. Yetim nabiralarini og'ir, chidamli mehnat bilan ham boqolmagan bu jafokash chol, o'zi uchun bir eski uyni va do'konxonasini olib qolib, hovlisining qolgan qismini sotishga majbur bo'lgan edi. Bu narsa ham uning yuragini jizillatib qo'yar edi. Bu g'amlar yetmaganday, uning yagona ko'makchisi bo'lgan shogirdini yaqinda boshqa bir usta aynatib olib, bechora cholning qo'lini kesdi. Ammo Shokir ota avvalgi bardosh, avvalgi g'ayrat bilan ishlab turdi.

Har kun tong qorong'isida ishga tushib, to peshin namoziga qadar hech qayoqqa qo'zg'almaydigan "bachkanado'z" bu kun qiyom bo'lmasdanoq do'konxonadan chiqdi. U erib bilch-bilch loyga aralashgan iflos qor va balchiq suv bilan tizzaga qadar to'lgan ko'chani bir chetidan yurib, devorlarga tiralib, katta hassasini avaylab qo'ya-qo'ya, har qadamda "yopirim!" deb bazo'r guzarga chiqdi. Qoratoyni do'konxonasiga yaqinlashgach, chollarga maxsus bir tikilish bilan qaradi. Chet odam yo'qligini fahmlab, temirchiga keldi, supachaga o'tirib nafasini rostladi.

- Buqalamun falakning gardishiga boq, chirog'im! B'v'v' dedi Shokir ota. - Kishining qo'li uzun ekan - yulduzni uzib oladi, qo'li qisqa cho'ntagidagini ham ololmaydi... Dunyo yalinib kelgan vaqtda shoh Mashrab uning orqasiga tepgan ekanlar, ajab qilganlar; dunyo o'zi bevafo, orqasiga tepsang arziydi...

- Tag'in nima bo'ldi, qariya? B'v'v' har narsani lo'nda qilib gapirishni sevgan Qoratoyni chidamsizlik bilan so'radi va javob kutmasdan yana so'zlab ketdi. - Keliningiz bolalarini sizga tashlab, erga tegipti. Eshitdim, lekin nima chora qilasiz? Shu kunda hammaning boshi shishgan. Oqpodshoh hammani qiradiganga o'xshaydi. Urushi qursin! Ochlilik, qimmatlilik...

Shokir ota o'tirgan joyida hassasini yerga "do'q" etib urdi, temirchining so'zidan noroziligini bildirib dedi:

- Man bog'dan gapirsam, san tog'dan kelasan. Navqiron Toxirjon yer bag'rida yotganda, man kelinni o'ylaymanmi? Urush deysan, taxtda o'tirgan Nekalay sani, mani qayg'umizni yeydimi? - Shokir ota umidsizlanib qo'lini silkidi. - Hoy, piring hazrati Dovud haqiga bir nafas shu taqir-tuqurni bas qil!

- O'rgilay nozingizdan! - Qoratoyni jilmayib, ishdan to'xtadi va cholga tikildi.

- Mirzakarimboy uylanarmish, xabaring bormi, g'ofil banda! - dedi chol sekingina.

- Menga nima? - dedi baqrayib temirchi.

- Shoshma axir, "berdi" siny aytay. Kinga degin, Yormatning qiziga! - Shokir ota, zikr tushganday, boshini tebratdi. Qoratoyni labini tishlaganicha, yerga qarab o'ylab qoldi.

- Yo'lchiga achinaman, - dedi chol, - oshiqlik yo'lga kirganini bilar edim. San-chi?

Qoratoyni boshi bilan "ha" dedi. Keyin boyni so'ka-so'ka so'radi choldan:

- Rostmi, kim aytdi?

- Bilasan-ku, qampirim ba'zi vaqtda kinnachilik qiladi. Nima qilay, kambag'alchilik-da... Kecha boyni nabirasiga kinna solgani chiqqan ekan, o'sha yerda eshitib qolipti. Boylarning tili moshinachining qaychisiday o'tkir bo'ladi; Yormat rozi bo'lipti. Mana hash-pash deguncha nikohi ham bo'lib qolar. Yo'lchi qachon kelar ekan? Kelganda ham nima qiladi, bo'z bola, kambag'al.

- Ha, noinsof, ha, ko'ppak! - Qoratoyni boyni so'ka boshladi. - Iflos qarg'a! Gul g'unchasini orzu qilganga dog'man! Hammasi pul-da. Mast bo'lgan, sharmi hayoni, odamgarchilikni unutgan!.. Hali kekkayib bozordan qaytadi. Bolg'a bilan bitta urib, abjaq qilsang, tomosha qilsang...

- Katta savob bo'lar edi-ya, ilojing yo'q! - Shokir ota hassasiga suyanib, o'rnidan turdi va taraddudlanib so'zladi:

- Yo'lchi qishloqdan kelib qolsa, yo'l-yo'riq ko'rsatamizmi, bilmadim. San bir o'ylab ko'r-chi.

- Koshkiydi Yo'lchi shu yerda bo'lsa, u kulguncha ishni bitirib qo'yadilar! - dedi-da, Qoratoyni og'ir "uh" tortdi.

- Uyla, Qoratoyni, ishqilib Yo'lchi bolamga tayanch bo'l, yolg'izlatma, yigitning ko'ngli buzilmasin, boshi bukilmasin!

Shokir ota bir nafas ko'ziga yosh oldi va "uh" tortdi. - Ey bema'ni dunyo! Qoratoyni, bir tanga pul topiladimi sanda? Nosvoy yo'q, ertadan beri xumoriman.

Qoratoyni boshi bilan "yo'q" dedi. Lekin, o'z otasi kabi sevgan shu g'arib cholga bir tanga topib berishdan ojiz bo'lgani o'chun qattiq xafa bo'lib, nosqovog'idagi nosni bir qog'ozga tezgina ag'darib, cholga tutdi. Chol bunga ham xursand bo'lib, duo qyldi. So'ng, bukik qaddini hassasiga tashlab, sekin-sekin jo'nadi.

Qoratoyni yuragidagi g'azab to'ldi, Yo'lchi va qiz taqdiri to'g'risidagi tashvish ishlashga imkon bermadi. U ishlarini chala qoldirib, do'konxona yuziga chiy tutdi...

III

Gulnor uch kunni jahannam azobida o'tkazdi. Onasidan mash'um xabarni eshitgandan boshlab, tinmay yig'ladi, qaynoq ko'z yoshlari bilan yuz-ko'zlarini yuvib, qayg'u alangasida tutaqib yondi, suyaklariga qadar zirqirab og'riydi. Mirzakarimboyga xotin bo'lish uning xayoliga bir lahza kelgan bo'lsa edi, bu fikr, chaqnoq yulduzni silab o'tgan bir parcha bulut kabi uning ko'zlariga bir oz ko'lka tashlagan bo'lsa edi, bu holning butun dahshatiga qaramay, Gulnor balki bunchalik o'tanmagan, bunchalik vahimaga, sarosimaga tushmagan bo'lar edi... Qiz o'z qalbini Yo'lchiga bag'ishlagan edi. Agarda butun vujudiyatini, butun "men"ligini u yigitning ishq to'ldirmagan bo'lsa edi, kambag'al qizlarning boshidan, ayniqsa ularning go'zallari boshidan, ko'p vaqt chamanlarni barbod qilib kechgan do'l bo'roni kabi, bu dahshatni, ofatni, u ehtimol, bir taqdir, bir zaruriyat, o'lim kabi daf etilmas hodisa deb tushunar, balki, kamtarinlik bilan bo'ynini bukkagan bo'lar edi.

Gulnor nima qilsin? U yaralarini kimga ochsin? Ostonadan hatlab chiqishga haddi yo'q. Uyda hamma narsa unga yot, hamma narsa kar, otasi begona, hatto onasi ham begona kabi.

Yormat qo'lini belbog'iga qistirib, qandaydir bedana yurish bilan yurib qoldi. U kuyov - xo'jayinning yumushlarini bajarib, uyga qaytganda xotiniga shivir-shivir bilan, yo imo bilan gapiradi. U so'zlarkan, yuzlariga goh do'q, goh g'azab, goh yalinchoqlik yoyiladi. Uning qo'llarida butun umrida ushlamagan qog'oz pullar shildirab qo'yadi ba'zan. Shunday qilib, ota qizning ko'z yoshlariga tamom beparvo. U buni "uzatiladigan qizlarning shayton yig'isi", deb tushunadi. Ona-chi? Birinchi kun qiz bilan birga yig'lashdi. Lekin u taqdir temirini sindirishdan ojiz ekanini tez angladi. Erining ra'yiga qarshi borishdan foyda yo'qligini bildi va ko'nikdi. Uning yuragi hozir ham iztirobda, lekin u endi sevikli qizining ko'z yoshlarini tindirish uchun, faqat nasihat qiladi, yupatadi, otin oyi, eshon oyilardan eshitgan "kitob" so'zlarini gapiradi. "Bu dunyoda alamzada, dardkash bo'lgan xotinlarni tongla qiyomatda Bibi Fotimaning o'zlari jannatga boshlar ekanlar"...

Gulnor Yo'lchining xayoliy iziga ko'z tikdi. Uni chuqur sog'inch, intizorlik va sabrsizlik bilan kutadi. Lekin u yo'q. Ketganiga bir haftadan oshdi. Agar u kelgan bo'lsa, o'zini bildirgan bo'lar edi. Lekin ba'zan vahima bosadi: "Balki qaytgandir, qaydan bilaman? U ham, men kabi bechora, bir burchakda g'am chekib yotgandir... Yo'lchi! U bilan bir zum uchrashsa, uning ko'kragiga bosh qo'yib, mard yuragini tinglasa, uning ra'yini bilib, bu qopqondan kutulish uchun astoydil urinsa!.. Faqat, Yo'lchi qani? Uning daragini qanday surishtiradi? Unda Yo'lchi nomini yodlash mumkin emas, dadasiga emas, hatto onasiga ham u endi Yo'lchi to'g'risida bir so'z ayta olmaydi. Chunki Gulnor, onaning nazarida ham, endi "kishining moli", Yo'lchi - "birov"...

Gulnor oshxonada o'tirarkan, onasining o'z-o'ziga qilgan shikoyatini eshitib quloq soldi: "Sho'rim qursin, kampir xotinni uzatganday, to'rtta-beshta xotin bilan birga malikaday qizimni olib chiqarmishman, eshigimga karnay-surnay bilan, bir to'da yigit

This is not registered version of TotalDocConverter

bilan quyoshning ko'zidan sochilgan so'zlar, quyoshning boshiga jig'a taqsam, degan orzularim bor edi... Domla imom bilan so'fi kelib, nikoh o'qirmish, man o'lgur qizimni yetaklab, "yor-yor" yo'q, shovqan-suron yo'q, suv quyganday, jimgina chiqarmishman sho'ppayib..."

Gulnorning yuragi zir titradi. U nikohning yaqin kunlarda bo'lishini angladi, demak erkaklar hamma narsa to'g'risida o'ylab, bir fikrga kelishgan, dadasi kelib unga so'zlagan!

Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tuganmas uzoq ko'rindi. Yalang'och daraxtlarning uchlarida ufqqa botgan quyoshning nurlari titraydi. Atrofdagi hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi...

Gulnor o'choq boshida dekchani qaynatib, xomush o'tirgan onaning yonida cho'qqaydi, unga tikildi, butun vujudidagi dardini ifoda qilgan bir harakat bilan onaga suquldi.

- Oyi, dadamga yalining, shoshmasin,- yolvorib gapirdi Gulnor,- yolg'iz qizining orzusiga ham quloq solsin. Yo'qchilik ichida siz bilan yana bir oz yashay. Shu turmushimizdan, shu dekchamizdan ko'nglim sira uzilmaydi. Ilgari yomon ko'rar edim. Endi-chi? Endi shu choldevor hovlimiz, shu tirikchilik ko'zimga har qanday boylarning sersavlat uylaridan yaxshi ko'rinadi.

- Koshkiydi, qizim, dadang so'zimga quloq soladigan erkak bo'lsa... Har kirganda, bir nima topib keladi: ellik boshi unday dedi, ellik boshi bunday qil dedi. Uh, o'lib bo'ldim.- Gulsumbibi so'zdan to'xtadi, qiziga qarab xo'rsinib, uning boshini siladi.- Oynaga qaradingmi? Uch kun ichida uch yilgi kasalday bo'lib qolibsan. Kuyma deyman-ku. Bu savdo yolg'iz saning boshingda emas.

Birov yoshga tegadi, birov... boshqaga. Xudo yulduzingni o'shanga to'g'rilagan ekan, choramiz yo'q...

- Yulduzim qursin, oyi, chaqnamasdan o'chdi, boshimga balo bo'lib tushdi. Mayli, oyi, siz mani besh-o'n kun bag'ringizdan ayirmang. Orzum shu...- dedi Gulnor.

Shu yerda ona-bola uzoq yig'lashdi. O'choqdagi o'tni sekin-sekin kul bosdi.

AvvalgiII- qismB Keyingi